

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

UDK

Qo‘lyozma huquqida

**MAGISTRATURA BO‘LIMI
O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

ATAJONOV G‘ULOMJON TO‘XTABOYEVICH

«TARIXIY DRAMALARDA SUJET VA OBRAZ YARATISH MAHORATI»

Mutaxassislik: 5A111201 - o‘zbek tili va adabiyoti

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

Davlat attestatsiya komissiyasida

himoya qilishga ruxsat berildi.

Magistratura bo‘limi boshlig‘i:

dots. B.Atashov

Kafedra mudiri:

dots. S.Matyakupov

Ilmiy rahbar:

prof. K.Qurambayev

NUKUS – 2016

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
--------------------	----------

I BOB. Drama sujetida tarixiy shaxs obrazi va badiiy talqin.....	.8
---	-----------

1.1 "Nurxon" dramasida obrazlar tizimi

1.2 "Zebunniso" daramasida badiiy talqin

II BOB. "Alisher Navoiy" va "Muqanna" dramalarida tarixiy haqiqat va badiiy sujet uyg'unligi.....	18
--	-----------

2.1 "Alisher Navoiy" dramasi tarixiy haqiqatning badiiy asardagi aksi

2.2 "Muqanna" daramasida sujet masalasi

III BOB. "Jaloliddin Manguberdi" va "Mirzo Ulug'bek" dramalari sujetida obrazlar talqinidagi o'ziga xoslik.....	46
--	-----------

3.1 "Jaloliddin Manguberdi" dramasida tarixiy shaxslar obrazi

3.2 Mustaqillik davri o'zbek dramaturgiyasida Jaloliddin Manguberdi obrazi-ning yangicha talqini.

3.3 "Mirzo Ulug'bek" dramasida obrazlar izchilligi.

3.4 Xurshid Davronning "Alg'ul" dramasi haqida ba'zi mulohazalar.

XULOSA.....	84
--------------------	-----------

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	88
---------------------------------------	-----------

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbek adabiyotida asosan dramaturgiya sohasida tarixiy shaxslar hayotini yoritishda Komil Yashin, Uyg‘un, Maqsud Shayxzoda, Hamid Olimjonlarning ijodini va ular yaratgan asarlarini chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Ushbu mavzuning dolzarbligi ham adiblarning tarixiy shaxslar haqidagi yaratgan asarlari bugungi kun uchun ham g‘oyat muhimligi, jumladan Uyg‘un bilan Izzat Sulton hamkorlikda yaratgan “Navoiy” siymosini yoki Abu Rayxon Beruniy, Nurxon, Zebunnisobegim, Mirzo Ulug‘bek Jaloliddin Manguberdi kabi tarixiy shaxslar haqida yaratgan asarlarini o‘rganish mavzuning dolzarbligini ta‘minlaydi.

O‘zbek adabiyotida tarixiy mavzuda yaratilgan asarlarni, qaysi janrda bo‘lishida bo‘lishidan qat’iy nazar, hech qahon dolzarblik xususiyatini yo‘qotmaydi. Ayniqsa, tarixiy mavzudagi asarlarni o‘rganish hamisha dolzarbdir. Chunki tarixni bilmay turib, bugunning qadriga yetib bo‘lmaydi. Jumladan, Uyg‘un, I. Sulton, K. Yashin, H. Olimjon, M. Shayxzoda kabi adiblarning tarixiy dramalarini o‘rganish bugun adabiyotshunoslik uhun juda muhim. Mustaqillikka erishilgandan keyin bu yozuvchilar ijodi bo‘yiha deyarli biror ilmiy ish yozilgani ma‘lum emas. Ularga sho‘rolar davrining ijodkorlari sifatida qarayotganlari ham sir emas. Shunday bir vaziyatda bu yozuvchilar ijodi haqida tadqiqot yaratish juda dolzarb deb hisoblaymiz.

O‘zbekiston xalq yozuvchilari Komil Yashin, Izzat Sulton, Uyg‘un, Hamid Olimjon XX asr o‘zbek adabiyotining yorqin siymolaridan biridir. Ular o‘zbek adabiyotiga Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Hamzalardan keyin kirib keldi. O‘ziga ma‘lum darajada tengdosh bo‘lgan Uyg‘un, H. Olimjon, G‘. G‘ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Mirtemir va M. Shayxzodalar bilan bir davrda, ya‘ni XX asrning yigirmanchi yillarining ikkinchi yarmida kirib keldi.

K. Yashin ilk ijodini she‘rdan boshlagan bo‘lsada, keyinchalik u o‘zbek adabiyotida katta dramaturg bo‘lib etishdi. Shuning uchun ham XX asr o‘zbek adabiyoti, qolaversa unda dramaturgiya janrining taraqqiyoti xususida so‘z ochilsa

birinchilar qatorida Hamza Hakimzodadan keyin Komil Yashinning nomi, asarlari tilga olinadi. Boshqacha aytsak, o'zbek dramaturgiyasining sho'rolar davridagi taraqqiyotini Kolim Yashin ijodisiz, uning dramalarisiz also tasavvur qilish mumkin emas.

Dissertatsiyaning maqsadi va vazifalari. Dissertatsiyaning bosh maqsadi istiqlol yillarida deyarli unutilgan yozuvchilar Uyg'un, K.Yashin, M. Shayxzoda, H. Olimjonlarning tarixiy dramalarini o'rganish asosida bu adiblarning bugungi o'zbek adabiyotimizda ham muayyan ahamiyatga ega asarlar ekanligini e'tirof etishdan iborat.

Mustaqillik yillarida sho'rolar davrida yashagan juda ko'p yozuvchilarning ijodi, ayrim asarlari qayta baholanayapdi, yangicha qarashlar nuqtai nazardan elakdan o'tkazilmoqda. Lekin, negadir, K. Yashinning ijodi, uning sho'rolar davrida yaratilgan sahna asarlari, ularning bugungi kun uchun ahamiyatli jihatlari haqida jiddiyroq tadqiqotlar yaratganicha yo'q. Mana shu bo'shlik ham bizni mana shu mavzuga K. Yashin , Uyg'un, Maqsud Shayxzoda, Hamid Olimjonlarning dramalarini o'rganishga, uni dissertatsiyaning tahlil ob'ektiga tanlashga sabab bo'ldi.

Biz K. Yashin, Uyg'un, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzodalar ijodi bo'yicha tadqiqot ishlari olib borgan adabiyotshunos olimlarimizning ilmiy tadqiqotlariga, maqolalariga tayanib ushbu mavzuni yoritishga harakat qilamiz.

Dissertatsiyamizning birinchi bobida K. Yashin va Uyg'un ijodi, ya'ni uning dramaturgiyasida tarixiy shaxslar obrazini yaratish bilan bog'liq masalalardan iboratdir. Uyg'un ham xuddi K. Yashin singari bir davrda o'zbek adabiyotiga kirib kelgan. U Hamza ijodini safdoshi singari she'riyatdan boshlagan va o'zbek adabiyotida shoir sifatida tanilgan adibdir. U o'nlab she'riy kitoblar, to'plamlar nashr qildirdi. Poema va dostonlari bosilib shiqdi. U ayniqsa o'tgan asrning 30-yillarida juda barakali ijod qildi, she'riyat bilan adabiyotning boshqa janrlari bilan ham shug'ullandi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. O'zbek adabiyotshunosligida tarixiy

mavzuda yozilgan dramalarni o'rganish masalalari doimo adabiyotshunoslikning kun tartibida turgan. Bu mavzu bilan eng taniqli adabiyotshunos tanqidchilar shug'illanishgan. I. Sulton, M. Qo'shjonov, H. Abdusamatov, B. G'ulomov, B. Imomov kabi olimlarning Uyg'un, K. Yashin, M. Shayxzoda, H. Olimjonlarning tarixiy mavzudagi dramalarini o'rganishga bag'ishlangan maqolalaridan tashqari, alohida-alohida kitoblari ham bor. B. Imomovning "Hayot va dramatik konflikt", H. Abdusamatovning "Hayot qo'shig'i", "K. Yashinning ijodiy yo'li", B. G'ulomovning "Safdoslar va izdoslar" kabi kitoblarida "O'zbek dramaturgiyasi tarixi" nomli maqolalar to'plamida va boshqa tadqiqotlarda biz tahlil qilayotgan mavzuga doir izlanishlar bor. Biroq ularda bu ijodkorlarning tarixiy mavzudagi dramalari alohida tadqiq qilinmagan. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, "Sharq yulduzi", "O'zbek tili va adabiyoti" jurnallarida ham mavzuga doir N. Hudoyberganov, U. Normatov, A. Rasulov, N. Karimov kabi olimlarning maqolalari ham e'lon qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Dissertatsiyada Uyg'un, K. Yashin, M. Shayxzoda va H. Olimjonlarning tarixiy dramalari xuddi shunday yo'nalishda, dissertatsiyada birinchi marta tadqiq etilmoqda. Yana bir yangiligi shundan iboratki, yuqoridagi adiblarning tilga olingan tarixiy dramalari shurolar davrida yozilgan va sahnalashtirilgan. Buz bu asarlarni mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan tahlil qilishga urindik.

Ko'rayapmizki, K. Yashin o'zbek adabiyotini har tomonlama rivojlantirish, ayniqsa o'zbek dramaturgiyasini shakllantirish sohasida ancha fidoyilik bilan qalam tebratadi. Ayniqsa uning "Ravshan va Zulxumor" muzikali dramasi hech qachon ahamiyatini yo'qotmaydigan asarlardir.

Uyg'un ijodinihg bir qirradi dramaturgiya janri bilan bog'liq ekanligi ilmiy-adabiy jamoatchilikka ma'lum. Ayniqsa, uning mashhur adib va olim I.Sultonov bilan hamkorlikda yozgan "Alisher Navoiy" dramasini adibni xalqimizga yaxshi tanitdi. Bu asar chindan ham o'zbek dramaturgiyasining shoh asarlaridan biri sifatida xalqimiz tomonidan kelmoqda, shu kunlarda ham u O'zbekiston teatrlarida

namoyish etilayotgan asarning qanchalik badiiy salohiyatga ega ekanligidan darak beradi.

Uyg'un dramaturgiya janridagi izlanishlarini izchil va muntazam davom ettirdi, o'tgan asrning 50-yillaridan boshlab u dramaturg sifatida xalqimizning nazariga ko'proq tushdi. Zamonaviy mavzu va o'nlab saxna asarlari yozdi va bu asarlar o'z vaqtida o'zbek saxnalarida ko'rsatilib tomoshobinlarning olqishiga sazovor bo'ldi. Muallifning "Ona", "Hayot qushig'i", "Oltinko'l", "Qaltis hazil", "Hurriyat", "Navbahor", "Parvoz", "So'nggi pushaymon", "Qotil", "Parvona" va yana boshqa bir qator zamonaviy dramalari muallifiga obrusiga obru qo'shdi, uni el-yurtga tanitdi.

Tadqiqotning predmeti va obyekti. Ishimizning asosiy tadqiqot ob'ekti Uyg'un , K. Yashin, Maqsud Shayxzoda, Hamid Olimjon ijodi. Ularning tarixiy dramalari. O'zbek adabiyotshunosligida bu yozuvchilar ijodi bo'yicha yozilgan ilmiy ishlar, kitoblar, maqolalar.

Adabiyotda K. Yashin faqat birgina janrda ijod qilish bilan chegaralanib qolmadi. U o'zini nasrda ham sinab ko'rdi. Ko'plab publisistik maqolalar, adabiy chiqishlar qildi. K. Yashin oldin Hamza Hakimzoda haqida p'esa yozib ustozining obrazini saxnada gavdalantirgan edi. Uning "Hamza" romani adibning ustoziga bo'lgan hurmatining yana bir ko'rinishi bo'ldi. Roman o'zbek adabiyotshunosligida ijobiy baholandi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati. Dissertatsiya natijalaridan umumta'lim maktablarida yoki kollej va litseylarda bu yozuvchilar ijodi o'tilganda amaliy foydalanish mumkin.

Uyg'un o'zbek adabiyotida tarixiy mavzuda saxna asarlari yozgan muallif sifatida ham tan olingan. Uning "Alisher Navoiy" dramasidan boshqa Abu Rayxon Beruniy, Zebiniso va boshqa tarixiy siymolar haqida ham saxna asarlari yaratilib o'zbek dramaturgiyasini boyitdi. Biroq bu dramalar to'g'risida o'zbek adabiyotshunosligida keng ko'lamdagi tadqiqot ishlari yaratilmadi. Umuman, uning ijodi ham huddi K. Yashin ijodidek nazarimizda, musaqillik yillarida

adabiyotshunosligimiz nazaridan chetda qolib kelayotgandek taassurot qoldiradi. Shularni hisobga olib biz magistrlik dissertatsiyamizni bu adiblarning dramaturgiya, xususan tarixiy dramaturgiyasi haqidagi asarlariga munosabat bildirishni maqsad qildik. Imkoniyatimiz doirasida mavzuni o'zbek adabiyotshunosligining yutuqlariga tayangan holda yoritishga harakat qilib ko'ramiz.

I BOB. DRAMA SUJETIDA TARIXIY SHAXS OBRAZI VA BADIY TALQIN

1.1 Nurxon” dramasida obrazlar tizimi

K.Yashin dramaturgiyasida yetakchi o’rinni egallagan mavzulardan biri bu xotin-qizlar taqdiri masalasi. Dramaturg butun ijodi davomida bu mavzuga alohida e’tibor beradi. “Nomus va muhabbat”, “Gulsara”, “Nurxon” “Oftobxon” kabi xotin-qizlar hayotiga bag’ishlangan sahna asarlarini yaratdi. Bu to’rt asar o’zbek dramaturgiyasida tetralogiyaning yorqin namunalaridir. K. Yashin o’zbek adabiyotida, xususan, dramaturgiya janrida tetralogiya asos soldi.

K. Yashin tetralogiyasi ichida eng mashhurlaridan biri uning “Nurxon” muzikali dramasidir. Bu asar faqat K. Yashinning emas, umuman, o’zbek dramaturgiyasining jiddiy yutug’idir. Dramada sevgi mavzusi, Nurxon va Haydarning bir-birlariga samimiy munosabatlarida ko’rinadi.

Nurxon va Haydarning hali bir-birining vasliga erisha olmagan ikki intizor qalbning oshiq-ma’shuqning uchrashuvdagi entikishi, his-tuyg’ularini dramaturg quyidagi dilrabo, ohangrabo termalar orqali beradi:

Haydar (Nurxondan ko’zini uzmaydi)

Shahlo ko’zli, egma qoshli janona

Tiri mujgoningga ko’ksim nishona

Sen malohat bog’ida gul yagona

Oshiq bo’ldim senday shirin zabona

Gohi xudman, gohi behud devona.

Nurxon:

Sho’ru savdolarni solding boshimga,

Bir kelmading holim so’rab qoshimga

Ko’z yoshlarim to’qilmoqda oshkora

Dardu zailar layiqmidur yoshimga.

Nurxon tomonidan keltirilgan terma esa, quyidagi xalq qo’shig’iga

hamonang jaranglaydi:

*Na savdolar soldi Falak boshimga,
Zahar-og'u qo'shdi ichgan oshima,
Alam-kulfat layiqmu shu ishimga,
O'rdak suzar ko'zdan oqqan ishimga,
Sen ayrimdin, men ham sendan ayirdim.*

Haydar visol ishtiyoqidan yonadi, shu tufayli bir lahzalik uchrashuv vaqtida o'z ichki tuyg'usini xalq dostonlaridagi bir lahzalik visol onini eslatuvchi sho'x, yo'poqi misralar orqali ifoda etadi.

Nurxon ham visol lazzatiga entigadi, lekin uning qo'shig'iga, shodlik kayfiyatidan ko'ra o'z boshidan ko'p mushkullarni o'tkazgan ma'shuqa xarakteri namayon bo'ladi. Chunki u to'r qafasda zolim ota tazyiqidan ezilgan, bag'ri qon edi. Shu tufayli ma'shuqa o'z intizorini ko'rgach, dard-alam bilan kuylaydi. Bu bilan o'z orzusiga soya tashlashi mumkin bo'lgan zolim va badjahl otaga ishora qiladi.

Ma'lumki, onalar o'z bolasini "alla" aytib o'xlatish jarayonida o'z quvonchi, dardini, ichki kechinmalarini hamma vaqt qo'shiq qilib aytib kelganlar. Bu an'anaviy "alla" qo'shiqlari dramaturg Komil Yashinni o'z qahramonining ruhiy holatini, dard-alamini, qalbini tomashabinga ochib solishda qo'l kelgan.

"Nurxon" dramasida Nurxon – sof sevgi egasi. U shu tufayli o'limga yuzmayuz bo'lganida ham chekinmaydi, mardona jon beradi, u muhabbatini qadrlaydi, uni hech narsa bilan o'lchab bo'lmasligini, muhabbat bir umrlik savdo ekanligini yaxshi tushunadi. Ana shunday sadoqatli qiyofasini dramaturg uning tilidan keltirgan "Husn to'yda, muhabbat kunda kerak" degan maqol vositasida ochib beradi.

Haydar: Husningizga qarang, to'liq oyga o'xshaydi.

Nurxon: Sizni qiziqtirgan narsa husn ekan-da, husn to'yda, muhabbat kunda kerak, yaxshi yigit.

Shu dramada Huzurxo'ja Norqo'zi bilan uchrashganidayoq, Norqo'zi

Huzurxo'janing qiziqchilik qobiliyatini yo'qori baholaydi. Obbo ... Huzurxo'jani ... Gapga ham chapon kiydirdinizg-da. Shunda Huzurxo'ja: "O'ynab kulsang yigitday, siqilmaysan chigitday" – deb javob beradi va mazkur xalq maqoli orqali o'zining qiziqchilik xarakterini, ijtimoiy ahvolini namayon qiladi. Huzurxo'ja mehnatkash, shu tufayli xalqimizning ota kasbi paxtachilikka oid termini bo'lgan maqolni uning tilidan qo'llanilishi bejiz emas.

"Nurxon" dramasida teskari targ'ibotchilar to'ymasidan bo'lgan Mullakamol va Sarkor ularning umidlarini chilparchin qilib, ozodlik yo'lini tutgan va Hojining tor qafasidan chiqib, yayrab nafas olgan, o'zining san'atkorlik qobiliyati bo'ladi.

Albatta, Nurxonni tor qafasda saqlay olmagan kimsalarning tinch turmasligini Nurxon va uning do'stlari his etadilar. Nurxon qatnashayotgan teatr Farg'onaga gastrolga borishi lozim bo'lganda, ana shunu o'ylaydilar. Lekin o'sha davrda dushmanlar qanchalik quturmasinlar, yaxshilik tarafdorlari to'siqlarni yanchib, yorug'likka intilganlar. Nurxon qatnashayotgan teatr jamoani ham ana shunday kayfiyatga ega bo'lgan san'atkorlar edi. Teatrning tashkilotchilaridan biri bo'lgan Norqo'zi mazkur vaziyatni xarakterlab, unga shunday munosabat bildiradi: "Chigirtkadan qo'rqqan bug'doy ekmas". Mazkur maqol, teatr jamoasining qarori qat'iy ekanligini, uning ishi xalqqa xizmat qilish bilan belgilanganligini, shu bilan birga teatr kishilarining ongliligini kuchaytirish, dushmanlarga qarshi kurash quroli ekanligini, bu qurol har qanday qarshiliklarni yanchib o'tishga tayyorligini ko'rsatadi.

"Nurxon" dramasida Huzurxo'ja Nurxonning qo'shiqchilik qobiliyatini xarakterlar ekan: "Qo'shiqchi bo'lganda qanday... Bulbul lolu, qumri sharmanda" – deydi. Bu yerda bulbul va qumri bilan qiyos qilish orqali Nurxonning juda ham jo'shxon xonanda ekanligi ochib beriladi. Cuunki xalqimiz, bulbul va qumrining sayrashini yoqtiradi, ularni jon qulog'I bilan tinglaydi. Huzurxo'janing ta'biricha esa, Nurxon qo'shiqchilikda xalqqa qumri va bulbullarning sayrashidan ham yoqimli kuylaydi va ma'zur bo'aldi.

Haydar va Nurxonning bir-biriga etishish uchun Nurxonning otasi boy Hoji

va ruhoniylar tish-tirnog'i bilan qarshi turadilar. Buni chuqur his etgan Nurxon Haydarga: "Boshimga qilich kelsa-da, sen yorimni derman" – deb va'da beradi. U o'z va'dasida turadi. Ozodlikka erishgan Nurxon uchun yana Hoji izmiga bo'ysinishi, qafasga tushgandek bir gap edi. U pisoq ko'targan mamatga: "Qafasdan bo'shagan qush, yana qayta o'zini qafasga uradimi?" – deydi va akasining jirkanch yo'lga kirganini sezgach: "Hayot bilan mening o'rtamga basing tog'lar tikka qilsang ham, yuragimni bug'ib, ozodlik qo'shiqlarini uchirsang ham, yuragimdagi orzu-umidlarimni o'limning o'tli omburlari bilan o'yib-yulib tashlasang ham, men u yorug' yo'ldan qaytmayman" – deb obrazli va o'z xarakterini ochib beruvchi iboralar vositasida kitob qiladi; ozodlik uchun o'linga yuzma-yuz boradi. Bu so'zlar uning ozodlikni jondan sevuvchi, jondan kechsa ham ozodlikdan kechmovchi o'zbek xotin-qizlarining buyuk bir tipi sifatida kitobxon-tomoshabin ko'z o'ngida gavdalanishda muhim rol o'ynaydi.

Haydar bilan Nurxonning sof va beg'ubor muhabbatlariga, ikki yoshning orzu-umidlariga to'siq bo'layotgan Hojining xarakterlarini kuzatib turgan Norqo'zi: "Hoji kovushingiz sob bo'lsa ham, haligacha koponsiz buzilmapti" – deydi. Norqo'zi tilidan keltirilgan bu ibora Hojining o'z mavqeidan ajralgan bo'lishiga qaramay, kishilarga hali ham dog'al muomilada bo'lish xarakterini ochib beradi va qoralaydi.

"Nurxon" dramasida ham asosiy obrzalardan tashqari, Nurxonning dugonalari erkinlik nuridan barhamand bo'lgan baxtiyor qizlar obrazi real aks ettirilgan bo'lib, ular ham yangi tuzumdan, o'z vatanidan minnatdorlar. Bu ularning tilidan keltirilgan xalq qo'shig'ida ham o'z aksini topgan:

*Oh, na go'zal bahor, o'rgilay,
Har yonimiz olma-anor, o'rgilay,
Sayr etamiz qo'lda dutor, o'rgilay,
Baxtu quyosh qo'lda bizlarga yor o'rgilay.*

Nurxon – sahna oshig'i. U o'z sevgilisi tufayli, sahna tufayli to'rt devor orasidan, ota zulmidan qochib Samarqandga keladi. Bu yerda yayrab nafas oladi,

buning uchun, ozod hur Vatandan behad minatdorchilik bildiradi:

Kokilimga zarra-zarra

Yog'dusin sochdi quyosh...

Yuzlarimga qon yugirdi

Ko'zlarimda tindi yosh.

Yoki:

Yallalar aytib kezaman,

Bu go'zal bo'stonda men,

Boshima sochdi quyosh,

Nurin faravon o'zgacha, - kabi.

Bundan tashqari dramaturg K.Yashin har bir obrazning holatiga, xarakteriga qarab turli shakldagi va mazmundagi xalq qo'shiqlarini ishlatadiki, bu qahramonlar xarakterining tomashabinga yorqin namoyon bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

“Nurxon” tarixiy musiqali dramasi, aytish mumkinki, K.Yashin ijodida yangi sahifa bo'ldi. U har tomonlama muvaffaqiyatli chiqdi. Asarning sahna talqini ham tomashabinlarni mamnun qilganligi, bu asar hatto mustaqillik yillarida ham namoyish qilib turishi bu fikirimizga dalil bo'lgani. Nurxon Yo'ldoshxo'jaeva tarixiy shaxs. O'tgan asrning 20-yillarida o'zbek qizlari orasidan chiqqan birinchi san'atkor. K.Yashin bu san'atkor obrazini dramada juda hayotiy ishonarli talqin etgani adibning yirik muvaffaqiytidir.

“Nurxon” dramasi o'zbek xotin-qizlarining, ayniqsa, san'atkorlariing bosib o'tgan murakkab va qiyin yo'lini haqqoniy ko'rsatib bergan sahna asari sifatida o'zbek adabiyotida uzoq yashashiga shubha yo'q.

Dissertatsiyamizning ushbu bobidan shunday xulosalarga kelish mumkinki, Komil Yashin tarixni yaxshi biladi. Tarixiy mavzudagi p'esalarini yaratish uchun tarixiy man'alarni yaxshi o'rgangan. Bulardan tashqari tarixiy dramalarning qahramonlari yozuvchining zamondoshlari, ularning ayrimlarini shaxsan ko'rgan, mulohatda bo'lgan, ularning zamondoshlaridan ba'zi ma'lumotlarni ham yozib olgan. Nurxon mashhur aktrisa, o'zbek qizlaridan birinchi marta sahnaga chiqqan

aktrisa va akasi tomonidan fojiali o'ldirilgan o'zbek qizlarining tipik vakili. Bu obrazni dramaturg asarda ancha ishonarli va ta'sirli ko'rsatishga harakat qilgan.

Umuman olganda, K. Yashin mana shu uch tarixiy drama misolida zamonning ,uhim ijtimoiy-siyosiy muammolarini talqin etishga muvaffaq bo'lgan. Har uch asarda davr ruhi, zamonda tarixiy shaxslarning roli haqoniy ko'rsatilgan. Bu asarlarning yana bir ahamiyati shundaki, bu uch drama o'zbek drama to'g'risidagi tarixiy mavzuni kengaytirdi, uning mazmunini ranglashtirdi.

Mazkur bobidan yana bir mantiqiy xulosa chiqarish mumkin. Ya'ni K. Yashin zamonaviy mavzudagi dramalari bilan qay darajada o'zbek dramaturgiyasini boyitgan bo'lsa, tarixiy mavzudagi asarlari bilan ham bu janrning imkoniyatlarini kengaytirdi. Uning zamonaviy p'esalari qanchalik tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lsa, tarixiy mavzudagi p'esalari o'quvchilar va tomoshabinlarni yaqin o'tmish tariximizda yashab o'tgan insonlar hayoti va faoliyati bilan tanishishda ham amaliy ahamiyatga ega bo'lishi shubhasiz.

1.2 “Zebunniso” daramasida badiiy talqin

Uyg'un tarixiy mavzuda jadal ijod qilgan dramaturglarimizdan biri ekanligi yana bir p'esasi – “Zebunniso” (1982) dramasi misolida yaqqol ko'rsatdi. Bu dramada uyg'un Boburiylar avlodining munavvar vakilasi,shoh Avrangzebning qizi, muhabbatda baxti qaro,she'riyatda tole'I baland, “ gul hidini yapirog'iga yashirgandek o'z qalbini, o'z ishqini g'azaliga joylagan shoira” Zebunniso obrazi gavdalanadi.

Zebunnisobegim (1639-1702) olima sozanda, xattot va zo'r iste'dodli shoirdir. U Hindistonda qaror topgan va tarixda buyuk “mo'g'ul imperiyasi” degan yanglish nomada shuhrat qozongan saltanat hukmdorlaridan Avrangzeb Olamgirning qizi edi. Shoira o'z asarlarida inson go'zalligini uning mehnati, ishi natijasida ko'rdi, el yurtga keltirgan nafida deb bildi. U insonparvarlik g'oyalarini targ'ib qilganligi uchun hukmdor otasi tomonidan ta'qib ostiga olinadi, sevgan

yigiti bilan qovushish baxtidan judo qilindi va tanholikka mahkum etildi. Shoira ezgulik tuyg'ularini kuylash bilan, armonli hayot iztiroblarida umr o'tkazdi. Dramada Zebunniso qismatiga oid ana shu hayotiy haqiqat ruhi realistik asosda haqqoniy ifodalanadi. Bunga p'esa ijobiy va salbiy qutblarga joylashgan kuchlar o'rtasidagi murosasiz kurash shaklidagi ziddiyat xizmat qiladi. Uyg'un bunday usullarda g'oya va xarakterlarni ochishga mohir san'atkorlarimizdan. Asarda buning uchun zarur zamin yaratilgan: hindlarni kamsituvchi yangi farmon chiqarilishi, ingliz va boshqa evropaliklarning bu elga suqilib kela boshlashlari hayotiy ziddiyatlarning kuchli negizidan dalolat beradi. Biroq, ochig'ini aytganda, asar syujetida personajlar qismati bevosita bog'lanib ketadigan, sahna talabiga ko'ra ko'z o'ngimizda shiddatli va keskin tus oladigan yaxlit dramatic harakatni hamisha his etib turmaymiz. Ayniqsa, ijobiy kuchlar faoliyati tashqarida sodir bo'lib, ular to'g'risida izoq va xabarlar keltiriladi, personajlar ruhini hodisalardan ajralgan holda tavsiflanadi. Buning oqibatida kishini hayajonga soladigan, qalbini to'ldiradigan holatlar bevosita yuzaga chiqmaydi.

Zebunnisoning qora kuchlarga qarshi kurashlarda tug'yonli to'qnashuvlarda duch keltirilmasligi, uni dadil harakatga undayotgan g'oyaviy niyatning, mohiyatning aniq bo'rtib turmasligi bosh qahramon xarakterini rivojlantirmaydi va ta'sirlantirmaydi. Uning o'z seviklisi shoir Roziy bilan aloqador chiziq ham harakatdan, syujetdan tashqarida hal bo'ladi. Bu borada "Alisher Navoiy" dramasiidagi Majdiddin xarakteriga o'xshab ketadigan vazir Amirxon xatti-harakatida oldi-qochdi detektivga mansublik ko'proq seziladi, uning qotili Roja Ram harakatlarida ham shunday ruh ustun Izohlanuvchi yoki xabar qilinuvchi bunday holatlar shahzoda Akbarning isyonchilar tarafiga o'tib ketishi, Avrangzebning inisi Murodning sirli holatda qatl etilishi, Muhammad Saidning kurachsiz Samarqandga yo'l olishi kabi tashqi harakatga doir o'rinlarda ham yuzakilik mavjud. Bunday holler, tabiiyki, xarakterlarni sahna orqali, dramatik holatlarda bevosita ko'rsatish imkoniyatidan mahrum qiladi.

Pe'sada ba'zi insoniy sifatlar, shohlik chog'ida jahon me'morchiligining

ziynati sanalmish Tojmahal singari obidalar yaratilishiga sababchi bo'lgan ammo toj-taxt uchun jallodlikda o'z o'g'li Avrangzebdan qolishmagan Boburiyzoda Shoh Jahon ishtirok etgan o'rinlar shoirona va ehtirosli yozilgan. Biroq shu o'rinda otabola o'rtasida bo'lgan bahs chin dramatzizmdan xoli. Eng muhimi, yurtdoshimiz ulug' Boburning avlodi bo'lgan Zebunnisoning o'z otasidan ko'ra bobosi Shoh Jahonga qattiq mehr qo'yganligining hayotiy-insoniy negizi yetarli ochilmay qoladi. Buning ustiga bandizindondagi uchrashuvga doir o'rinlarda Zebunniso xarakteri rivojlanmaydi. Oqibat-natijada so'nggi ko'rinishda ziddiyat, harakat so'nib-susayib qoladi va yechim izohiga aylanadi.

Dramaturgiya san'atning sahna talablaridan biri esa munosabatlarning tobora kuchayib borishini, keskinlik avj nuqtasiga ko'tarilishini va shundan keyin, munosabatlar susaymay turib, yechim – final yuzaga chiqishini talab qiladi. Bunday nuqsonlar Zebunniso obrazining yanada yorqin, ta'sirli va unutilmas obraz bo'lishida salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, bu p'esa tariximizda insoniy g'oyalar targ'ibotchisi hamda nurli siymolaridan biri bo'lgan Zebunniso haqida, haqsizlik, adolatsizlik va zulm hukm surgan davr to'g'risida naql qilishi, kitobxonda hayotga, yashashga rag'bat uyg'otuvchi ta'sirbaxsh o'rinlari bilan ahamiyatga molikdir. Kitobxon bu p'esa tufayli uzoq o'tmishda kelajakka umid ko'zi bilan qaragan xalqchil siymolardan birining hayoti bilan tanishish va undan ruhlanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Zebunnisoning qora kuchlarga qarshi kurashlarda tug'yonli to'qnashuvlarda duch keltirilmasligi, uni dadil harakatga undayotgan g'oyaviy niyatning, mohiyatning aniq bo'rtib turmasligi bosh qahramon xarakterini rivojlantirmaydi va ta'sirlantirmaydi. Uning o'z seviklisi shoir Roziy bilan aloqador chiziq ham harakatdan, syujetdan tashqarida hal bo'ladi. Bu borada "Alisher Navoiy" dramasidagi Majdiddin xarakteriga o'xshab ketadigan vazir Amirxon xatti-harakatida oldi-qochdi detektivga mansublik ko'proq seziladi, uning qotili Roja Ram harakatlarida ham shunday ruh ustun Izohlanuvchi yoki xabar qilinuvchi bunday holatlar shahzoda Akbarning isyonchilar tarafiga o'tib ketishi, Avrangzebning inisi Murodning sirli holatda qatl

etilishi, Muhammad Saidning kurashsiz Samarqandga yo'l olishi kabi tashqi harakatga doir o'rinlarda ham yuzakilik mavjud. Bunday holler, tabiiyki, xarakterlarni sahna orqali, dramatik holatlarda bevosita ko'rsatish imkoniyatidan mahrum qiladi.

Pe'sada ba'zi insoniy sifatlar, shohlik chog'ida jahon me'morchiligining ziynati sanalmish Tojmahal singari obidalar yaratilishiga sababchi bo'lgan ammo toj-taxt uchun jallodlikda o'z o'g'li Avrangzebdan qolishmagan Boburiyzoda Shoh Jahon ishtirok etgan o'rinlar shoirona va ehtirosli yozilgan. Biroq shu o'rinda otabola o'rtasida bo'lgan bahs chin dramatizmdan xoli. Eng muhimi, yurtdoshimiz ulug' Boburning avlodi bo'lgan Zebunnisoning o'z otasidan ko'ra bobosi Shoh Jahonga qattiq mehr qo'yganligining hayotiy-insoniy negizi yetarli ochilmay qoladi. Buning ustiga bandizindondagi uchrashuvga doir o'rinlarda Zebunniso xakteri rivojlanmaydi. Oqibat-natijada so'nggi ko'rinishda ziddiyat, harakat so'nib-susayib qoladi va yechim izohiga aylanadi.

II BOB. “ALISHER NAVOIY”, “MUQANNA” DRAMALARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TALQIN UYG’UNLIGI

2.1 “Alisher Navoiy” daramasi tarixiy haqiqatning badiiy asardagi aksi

O’zbek mutafakkir shoiri Alisher Navoiy o’z asarlari bilan o’zbek adabiyotining ravnaqida muhim o’rin tutgan buyuk siymodir.

Professor M.E. Malovning iboralari bilan aytganda, Navoiy o’z asarlari bilan XV asrdan e’tiboran, Xuroson va Markaziy Osiyodagi turkiy tildagi adabiyotning Sharqqa qarab odim otishida va keng yoyilishida vositachilik rolini o’ynadi¹.

Alisher Navoiy, bir tomondan, turkiy xalqlar og’zaki ijodiyoti va Ahmad Yassaviy, Lutfiy, Atoiy kabi so’z san’atkorlari meroslariga xos hamma fazilatlarni davom ettirish, rivojlantirish, ikkinchi tomondan esa, Sharq adabiyotining mumtoz namoyondalari sifatida shuhrat qozongan Nizomiy, Husrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy siymolariga ma’nan yaqinlashish bilan adabiy tafakkur olamining sinovlarida komillik kasb etgan ijodkordir, turkiy xalqlarning o’y-fikrlari, orzu-umidlarini kuylagan qalam sohibidir.

Alisher Navoiy o’z asarlari bilan o’zbek adabiyotining nufuzini benihoya darajada oshirdi. Uning Sharq adabiyotlari qatoridagi o’rnini yuqori pog’onaga ko’tardi. Ona tilidagi adabiyotga mumtoz «Xamsa» an’anasini olib kirdi. Shoirning «Xazoyin ul-maoniy» majmuasini tashkil etgan devonlariga kirgan lirikasi, xususan «Xamsa» dostonlari vositasida o’zbek adabiyotida umumbashariy g’oyalar keng o’rin ola boshladi. Islom dini va tasavvufning olam va odamni tushunishdagi ta’limotining turkiy adabiyotlardagi teran talqinlari ham Navoiy tomonidan o’rnak darajasida ko’rsatib berildi. Navoiy asarlari o’zining ana shu g’oyaviy-badiiy mundarijasi bilan o’z navbatida boshqa turkiy xalqlar o’rtasida juda erta tarqaldi va shuhrat tutdi. Turkiy xalqlarining so’z san’atkorlari Alisher Navoiyni turkiy til va bu tildagi adabiyot uchun kurashuvchilarning sarvari sifatida tanidilar. Shoirning asarlarida o’z ruhiy olamini, adibning qahramonlarida o’z orzu-umidlarini

¹ Малов С.Е. Мир Алишера Навои в истории тюркских литератур и языков Средней и Восточной Азии. Изв.АН СССР.-М., 1947. Т. IV. –С. 480.

ko'rdilar. Navoiyning ijodiy yuksakligi badiiy so'z sohiblari uchun orzudagi bir mezon bo'lib qoldi. Shu bois Navoiy mahoratini o'rganish, hayot hodisalarini, jamiyatning quvonch va tashvishlarini navoiyona qalamga olish so'z san'atkorlarining estetik qarashlariga toboro ko'proq singib bordi.

XVI asrda yashagan adabiyot homiysi Abdurashidxondan boshlab XIX asr shoiri Bilol Nozimgacha Navoiyning mahorat maktabiga murojaat qilish izchil bir jarayon sifatida kechdi.

Aslida Navoiyga murojaat qilish jahon adabiyoti tajribasida bo'lganidek, daholardan o'rganish, ularning ijodiy tajribalaridan bahra olib, yangi ijodiy kashfiyotlarga qo'l urishni bildirar edi. Qolaversa, Navoiyga murojaat etish ustoz an'alarini davom ettirish qobiliyatiga ega bo'lgan ijodkorlarni ham talab qilar edi.

Komil Yashin xarakterlarni harakatda ochish san'atida dramaturgiyamizda o'ziga xos adabiy maktab yaratdi. Bu maktab san'atkorlarning qanchadan-qancha shogirdlarini tarbiyalab voyaga etkazdi, yetkazayapti, qanchadan-qancha izdoshlarni yangi-yangi ijodiy yo'tuqlarga ruhlantirdi, ruhlantiryapti. Ayni chog'da, dramaturgiyamiz bayroqdorining qalamkash – safdoshlariga ta'siri, safdoshlarining unga ta'siri – bir-biriga ustoz, bir-biriga shogirdlari ham o'z an'ana-samaralariga ega. Dramaturgiyamizning dramatism va kolliziyalarga boy p'esalari, ayniqsa, "Gulsara", "Nurxon" muzikali dramalari shogirdlari bilan birga safdoshlariga ham ibratli namunalardandir.

Xarakterlarni harakatda ochish san'atida mazkur asarlarida mavjud xislat-traditsiyalarini avtor bilan birga safdoshlari ham davom ettirdi, ularni yangi-yangi navatorona xususiyatlar bilan boyitdi. Shu jihatdan ayniqsa, Uyg'un va Izzat Sultonovning "Alisher Navoiy" (1944) p'esasi alohida e'tiborlidir. Har bir davr adabiy jarayonning o'z shoh asari, o'z durdonasi bo'ladi. Dramaturgiyamizning yigirmanchi va o'ttizinchi yillarida "Boy ila xizmatchi", "Maysaraning ishi", "Paranji sirlari", "Gulsara", "Nurxon"larsiz tasavvur qila olmaganimizday uning qirquinchi yillarini "Alisher Navoiy"siz idrok etolmaymiz. Binobarin, bu asarni

quyida dramatic harakat nuqtai nazaridan maxsus ko'rib o'tamiz.

Butun umrini xalq baxti uchun kurashga bag'ishlaganlar, xalqchil ideallarni deb jon olib, jon berganlar ruhan manguликka barhayot siymolardir. Bundaylarni hayotdagi kabi adabiyotda ham abadiylashtirish, bundaylarning hamisha birinchi darajali vazifalaridan bo'lib keldi, bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Zotan, adabiyotimizga zamonaviy tema juda ham muhim bo'lgani holda, tarixiy tema ham zarur. Chunki, zamonaviylik muammosi faqat shu kunlardan olib yozilgan asarlar orqaligina hal qilinmaydi. Yozuvchi tarixga murojaat qilish bilan undan zamonaviy masalalarni hal qilishga ko'maklashuvchi faktlarni izlaydi, tarixga zamonamizning ilg'or tendensiyalari nuqtai nazaridan yondashib, uni davrimiz xizmatiga bo'ysindiradi. Mislsiz jangovar sahifalarga boy tariximiz zamondoshlarimizga hamma vaqt yaqin va qimmatli.

“Alisher Navoiy” dramasi avtorlarining biri Izzat Sulton shunday hikoya qiladi: “Alisher Navoiy”ni dastavval biz uch kishi – Hamid Olimjon, Uyg'un va men avtordoshlikda yozmoqchi bo'ldik. Biz asarni yozishga kirishishdan oldin buyuk daho Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga oid Navoiy, Mirxond va Bertel's asarlaridan material to'pladik, so'ng Uyg'un bilan birga Oqtoshga chiqib biro y asar ustida jiddiy ishladik. Navoiy hayoti va ijodiga, u yashagan davr muhitiga oid yig'ilgan materiallarni sinchiklab o'rgandik va dramaning rejasini tuzib, shaharga qaytdik. Bu paytda Hamid Olimjon Moskvaga ish bilan ketgan edi. Moskvadan qaytgach, bizning drama ustida olib brogan ishlarimiz bilan tanishib, «ikkalangiz asar ustida ancha ishlabsiz, endi mening ishtirokimning hojati yo'q», deb p'esani yozishni bizga havola qildi. Biz Uyg'un bilan birga asarni yoza boshladik. Dramaning vujudga kelishida bizning hissamiz bir xil, ikkimiz ham teng mehnat qilganmiz. Men bir kartinani yozsam, Uyg'un ikkinchi bir kartinani yozgan. Masalan, men Astrobod kartinasinoi yozsam, Uyg'un bo'lak kartinani yaratgan.

Xullas, asar ustida shunday yaqin hamkorlikda ish olib borganmiz. Drama avval prozada yozilgan edi. Men Uyg'unga asarni she'riy uslubda yozishni tavsiya etdim. Biz asarning poetic uslubda juda durust chiqayotganligini ko'rib, uning

ustida yanada qiziqib ishlay boshladik. Natijada dramaning yarmi she'r, yarmi prozada yozildi. Bu esa asarning qimmatini oshirdi, unga qanot paydo qildi. Dramani yozish jarayonida Uyg'un sevgi va muhabbat liniyasiga ko'proq e'tibor berish kerakligini aytdi. Men asarda Alisher Navoiy va u yashagan tarixiy muhitni butun murakkabligi bilan aks ettirishni lozim ko'rdim. Natijada biz dramaning sotsial tomoniga jiddiy e'tibor berdik. Biroq, shunday e'tirof etishim kerakki, asarning estetik jihatdan puxta chiqishida Uyg'unning xizmati katta bo'ldi"².

“Alisher Navoiy” dramasi 1941-yilda yozilib, 1945-yil may oyida Hamza nomidagi Davlat akademik drama teatrida talantli rejissyor Mannon Uyg'ur tomonidan sahnaga qo'yildi. So'ngra bu asar ko'pchilik viloyat teatrlarida ham sahnalashtirildi.

Manfaatparast, xudbin, olchoq kimsalar bilan taraqqiychi, insonparvar kuchlar o'rtasidagi kurash dramaning yetakchi konfliktidir. Ellik yil davomida bu asar umumbashariy mezonlar bilan bir qatorda zamon adabiy siyosatiga bog'langan holda baholab kelindi. Endi mustaqillik sharofati bilan vujudga kelgan yangi sharoitlarda bu asarni yangicha o'qish va yangicha talqin etish zarurati tug'ildi. Dramadagi konflikt ana shunday –yangicha munosabatni talab qiluvchi asosiy muammolardan biridir. Shu vaqtgacha shoh Husayn Boyqaro, vazir Majididdin, Bek Qutbiddin va Shayxulislom bir taraf hamda xattot Sultonali, oshpaz Abulmalik, Guli va uning bastakor otasi Qulmuhammad, me'mor Jaloliddin, navkar Turdiboylardan iborat ikkinchi taraf o'rtasidagi ziddiyat asosida sinfiy kurash ifodasi yotadi deb kelindi. Asarga sinchiklab qaralsa, bu kurash zamirida faqat sinfiylik borligiga hech qanday ishora yo'q. Bu kurash hayot haqiqatini namoyon etishning muhim vositalaridan biri sifatida tasvirlangan. Shunday ekan, ularga yaxlit, bir butunlikda qarab, asar konflikti asosida xudbin, olchoq, hasadgo'y, munofiq kimsalar bilan adolatparvar, insofli, xalqchil, ilg'or tafakkurli va diyonatli kuchlar o'rtasidagi kurashni ko'rsatish yotadi, deb qarash

² O'tkir Shokirovning Toshkentda 1965-yil 19-noyabrda “Alisher Navoiy”ning yaratilishi tarixi haqida Izzat Sulton bilan qilgan suhbatidan.

to'g'ri bo'ladi. "Alisher Navoiy" dramasi shuhrati so'nmay kelayotgani sababi, shubhasiz, eng avvalo, uning katta mahorat bilan yozilganida, xalqning buyuk shoiriga cheksiz mehr-muhabbatida va bulardan tashqari, asarga singdirilgan chuqur zamonaviylik ruhidir.

"Alisher Navoiy"ning muhim fazilatlaridan biri uning zamonamiz bilan hamohangligi va hamnafasligidadir.

Dramaturglar Navoiy qiyofasidagi eng muhim tomon, olmos qirra – gumanizmni topa bildilar va uni o'z asarlarida yetakchi planda katta ehtiros bilan aks ettirdilar. Bu esa dramaga chuqur hayotiylik va umrboqiylik baxsh etadi. "Engur zulmatni nur albatta shaksiz", degan fikr Navoiy obrazining markaziy nuqtasini, shoir ideali va falsafasining asosini, umuman, asarning harakatini boshqaruv g'oyasini tashkil qiladi. Dramadagi barcha katta-kichik voqea va hodisalar ham, bosh va yordamchi syujet va konflikt yo'llari ham ana shu asosga bo'ysindirilgan.

Zulmat bilan nur, reaksiya bilan adolat o'rtasidagi kurash p'esaning bosh syujet va konflikt yo'llarini tashkil etadi. Dramaturglarning mahorati ham ana shu hayotiy ziddiyatni o'z asarlarida haqqoniy ifoda etishlari, badiiy to'qimadan ustalik bilan foydalanishlari, syujetni kuchli dramatizm asosida talqin qilishlari, xarakterlarni yorqin gavdalatirishlari va nihoyat, tarixiy o'tmishga zamonaviy ko'z bilan yondashishlarida aniq namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiyning shoir, davlat va jamoat arbobi sifatida faoliyatining gullagan payti ham ana shu tarixiy davrda bo'lgan.

Tarixiy asar uchun muhim bo'lgan tarixiy haqiqatga sodiqlik dramada o'zining to'la ifodasini topgan. XV asr feodalizm davrida yuz bergan yirik tarixiy hodisalarning va shu muhitda yashab ijod etgan Navoiy, Bekzod, Hondamir, Sohibdoro, Husayn, Majdiddin, Binoiy va Mo'minmirzo kabi tarixiy shaxslarning asarga asos qilib olinishi fikrimizning aniq isboti bo'la oladi. Bular esa dramaning chuqur tarixiylikini, o'tmishni bilish jihatidan ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Dramaturglar asarning g'oyaviy-badiiy jihatdan mukammalligini oshirishda badiiy to'qimadan ham ustalik bilan foydalanganlar. Natijada dramada yo'qorida nomlari qayd etilgan tarixiy shaxslar bilan Guli, Abulmalik, Jaloliddin, Turdiboy, Qulmuhammad, Hosiyat, Qunduz, Qutbiddin, Ubaydillo, Mansur, Abdulvose, Munajjim kabi personajlar ham o'rin olgan. Bu personajlar yozuvchilar ijodiy fantaziyasining mahsuli bo'lib, ular ma'lum hayotiy haqiqatga egadir. Busiz to'qima obrazni tasavvur etish qiyin. San'atkorlar ijodiy hayolining hayotiyliigi, ayniqsa, Navoiy bilan Guli o'rtasidagi muhabbatga va shoir bilan Mansur munosabatlariga asoslangan yordamchi syujet liniyalar traktovkasida yorqin namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiy har bir voqea va hodisaga "Aql va idrokning talabiga ko'ra" yondashadi va har bir masalaga xalq va davlat manfati nuqtai nazaridan baho beradi. Navoiy Hirotidagi xalq isyonini bostirish borasida ham masalaga adolat va haqiqat yuzasidan qarab, "xalqning haqli talablariga odilona quloq solmoq lozim"ligini shohdan talab etsa, Majdiddin "tezdan isyonchilar ustiga qo'shin tortmoq zarur" deb hisoblaydi. Boyqaro esa "Temur avlodi qilichining qudrati"ni ko'rsatishga shoshiladilar.

Yodgormirzoning poytaxtga kirishi va Bog'iston qal'asini egallishi esa vaziyatni yanada murakkablashtiradi. Mamlakat tinchligi va osoyishtaligi uchun jiddiy xavf bo'lgan ushbu voqeani bartaraf etishda ham Navoiy "bunday musibatlarni hayajon va his bilan emas, har bir mushkulni aql va sovuqqonlik bilan hal qilish"ni lozim ko'radi. Bu og'ir vaziyatda ham Alisher xalq va davlat manfaati yuzasidan yurti tinchitish va Yodgor Muhammadni daf qilish borasida butun ixtiyorni o'z zimmasiga oladi. Navoiy poytaxt qo'zg'olonchilari oldiga borib, Hirot beklari tarafidan nohaq solingan hirojni bekor qiladi. Xalqning odil talabiga quloq solib, zolim beklarni jazolaydi. Me'mor Jaloliddin yordamida Bog'iston qal'asiga yashirin yo'l bilan kirib Yodgormirzoni tiriklayin qo'lga tushirib, Husayn huzuriga keltiradi. Bu ikki masalani hal qilishda Navoiy xarakteridagi xalq va davlat manfaati yo'lida har qanday og'ir vazifani bajarishga qodirlik, haqiqatparvarlik va

adolatparvarlik kabi xususiyatlar yorqinlik holda ko'rinadi. Navoiy davlat arbobi sifatida ushbu fazilatlar bilan Husayn Boyqaro va Majdiddinlardan yo'qori turadi. Chunki Husayn saltanat ishlariga o'zining "dunyo bevafo, toj-taxt bebaho" qabiladagi falsafiy qarashi bilan yondashsa, Majdiddin esa urush va tengsizlik tarafdori.

Dramaturglar Navoiy obrazini puxta yaratish uchun tarixdan muhim voqealarni saralab olishga harakat qildilar va ulardan ulug' siymo qiyofasining badiiy ifodasi uchun unumli foydalanadilar. Asardagi Darveshali qo'zg'olonini olaylik. Tarixdan ma'lumki, Alisher Navoiyning inisi Darveshali saltanatga qarshi bosh ko'targan. Dramadan Darveshali qo'zg'oloni Navoiy tomonidan bostirilganligi va u Husayn huzuriga yuborilganligidan xabardor bo'lamiz. Demak, dramaturglar bu tarixiy faktdan ham Navoiy xarakteridagi xalq va mamlakat tinchligi yo'lida har qanday og'ir vazifalarni bajarishga qodirlik kabi muhim hislatlarni yanada yorqinroq ko'rsatishda ustalik bilan foydalanganlar.

Darveshali qo'zg'olonini tinchitib, Balxda osoyishtalik o'rnatib, Hirotga qaytgan Alisher katta hurmat va izzat o'rniga asossiz zulm va razolatga duch keladi. "Fitnachi o'rgimchak"ning omon qolishi, inisi Darveshalining zindonga solinishi, ariq qazish ishlarining to'xtatilishi, Jaloliddinning qatl etilishi va Gulining haramga keltirilishi kabi voqealar Majdiddin boshliq reaksion guruhlarining Navoiy va uning tarafdorlariga qarshi ochiqdan-ochiq kurashga o'tish edi.

Gulining o'limi bilan ham Alisherning qaddini buka olmagach, shoir bilan Husayn o'rtasiga nizo sola olmagach, Majdiddin "mish-mishlarga qaraganda Shahzoda Badiuzzamonning fe'li bir aynigan emish. Alisher siz o'tirgan taxtga o'g'lingiz Badiuzzamonni yoki nabirangiz Mo'minmirzoni ko'rmoq orzusida yurgan emish!" deb yana fisqu fasodni avjga mindirib, shohni Alisherdan voz kechishga undaydi va o'zining razil muddaosiga erishadi.

U nurning zulmat ustidan g'alabasi yo'lida kurash olib borishdan charchamaydi. "Astoroboddek notinch bir viloyatda ham tinchlik va osoyishtalik

o'rnatadi". "Balx ustida chiqqan ota bilan bola o'rtasidagi xavfli mojaroni bartaraf etadi" va mamlakatda nisbiy tinchlik o'rnatishga erishadi. Chunki mamlakatda nisbiy tinchlik o'rnatish, insonlar o'rtasida adolat va haqiqat urug'larini sochish Alisher Navoiy uchun eng mo''tabar, eng olijanob ish edi.

Navoiy siymosidagi bu olijanob fazilatlar bizga yaqin, zamondoshlarimiz uchun ibratlidir. Asar avtorlarining Navoiyning ijtimoiy-siyosiy faoliyatini puxta aks ettirishga alohida e'tibor berishlarining sababi ham shunda. Chunki tarixiy shaxs sifatida shoir faoliyatidagi ushbu fazilatlar bir, tomondan, asarda Navoiy xarakterining qirralarini yorqin aks ettirishda, ikkinchidan esa, dramaning zamonaviy ruhini yanada oshirishda katta ahamiyatga ega edi.

Navoiy Hirotdagi xalq isyonini bartaraf etish, Yodgormirzoni daf etish uchun jo'nar ekan, Boyqarodan "xalq huzurida, butun kuchini yurtni obod qilishga sarf eturlar", deya va'da berishga vakolat so'raydi. Shoh ham bunga rozi bo'aldi. Biroq, Boyqaro Majdiddinning ta'sirida o'z va'dasidan voz kechadi. Xalq vakili sifatida saroyga yuborilgan Jaloliddin pulsiz qaytadi. Bu Majdiddin boshliq salbiy kuchlar tomonidan Navoiyga berilgan birinchi zarba edi.

Dramada Navoiyning ijtimoiy-siyosiy faoliyati yoritilishi jarayonida shoir ideali, Navoiy va xalq masalalari ham ochiq-oydin namoyon bo'ladi.

"Adolat barchadan afzal va oliy" deb tushungan Navoiy mamlakatda adolat va xaqiqatning qaror topishi faqat yurt bog'boni podshoh amri bilangina ruyobga chiqishi mumkin deb o'ylaydi va barcha masalalarga ana shu mezon bilan yondashadi. Uning Husaynni odillikka chaqirishi, yurt va xalq g'amini yeyishga da'vat etishining boisi ham shunda.

Xarakterlarni harakatda ochish san'atida mazkur asarlarida mavjud xislat-traditsiyalarini avtor bilan birga safdoshlari ham davom ettirdi, ularni yangi-yangi navatorona xususiyatlar bilan boyitdi. Shu ihatdan, ayniqsa, Uyg'un va Izzat Sultonovning "Alisher Navoiy" (1944) p'esasi alohida e'tiborlidir. Har bir davr adabiy jarayonning o'z shoh asari, o'z durdonasi bo'ladi. Dramaturgiyamizning yigirmanchi va o'ttizinchi yillarini "Boy ila xizmatchi", "Maysaraning ishi",

“Paranji sirlari”, “Gulsara”, “Nurxon”larsiz tasavvur qila olmaganimizday uning qirquinchi yillarini “Alisher Navoiy”siz idrok etolmaymiz. Binobarin, bu asarni quyida dramatic harakat nuqtai nazaridan maxsus ko’rib o’tamiz.

Butun umrini xalq baxti uchun kurashga bag’ishlaganlar, xalqchil ideallarni deb jon olib, jon berganlar ruhan manguликka barhayot siymolardir. Bundaylarni hayotdagi kabi adabiyotda ham abadiylashtirish, bundaylarning badiiy haykalini yaratish yozuvchilarimizning hamisha birinchi darajali vazifalaridan bo’lib keldi, bundan keyin ham shunday bo’lib qoladi. Zotan, adabiyotimizga zamonaviy tema ham zarur. Chunki, zamonaviylik muammosi faqat shu kunlardan olib yozilgan asarlar orqaligina hal qilinmaydi. Yozuvchi tarixga murojaat qilish bilan undan zamonaviy masalalarni hal qilishga ko’maklashuvchi faktlarni izlaydi, tarixga zamondan yondashib, uni davrimiz xizmatiga bo’ysindiradi. Mislsiz jangovar sahifalarga boy tariximiz zamondoshlarimizga hamma vaqt yaqin va qimmatli.

Uyg’un bilan Izzat Sultonning “Alisher Navoiy” (1941-yil) she’riy dramasi o’zbek dramaturgiyasining o’lmas namoyondalaridan biri. Buning boyisi maskur tarixiy asarda xalqchilik va gumanizm g’oyalarini buyuk san’atkorimiz Navoiy obrazida uning zamondoshlariaro munosabatlarida dramatizmga boy harakatlarda mahorat bilan ifodalashdandir.

“Alisher Navoiy”da bosh konflikt mazmuni feodal tuzumi davrning sotsial ziddiyatlari va qarama-qarshiliklarini adolat bilan rizolat va uning tarafdorlari o’rtasidagi kurashni ko’rsatishdan, o’zaro talon-taroj urushlarni, taxt va amal uchun ko’tarilgan qirg’inchilik hamda qonxo’rliklarni qoralashdan, insoniylikni, gumanist g’oyalarni targ’ib etishdan iborat. Mana shu hayotning qarama-qarshiliklar asarda razolat va reaksiya kuchlarning boshida turgan Majdiddin boshliq shaxslar bilan o’sha davr progressive va gumanist g’oyalari tepasida turgan buyuk shoir Alisher Navoiy hamda uning muhlislariaro to’qnashuvlar va kurashlar shaklidagi badiiy konflikt negizini tashkil etadi. Dramaturglar o’sha vaqtda o’tmish va hayotning sharoitiga ko’ra amalga oshmagan progressive g’oyalarning o’lmasligini kelajakda amalga oshishi muharrarligini sotsiolistik realism

talabalardan chiqib haqqoniy ravishda, voqea-hodisalarni revalyutsion taraqqiyotida, harakatlarni tipik sharoitlarida mahorat bilan aks ettiradilar.

Drama maqsad, harakat izchil rivojlantirilishi, ustalik bilan amalga oshirilishi jihatidan namuna bo'larli darajaga yetkazilgan. Asarda konflikt ibtidosi g'oyat qisqa. Shoh Husayn Boyqaroning yangi xiroj olish to'g'risidagi buyrug'iga qarshi xalq g'alayoni va poytaxtga Yodgorbekning kutilmaganda bostirib kelishi bilan dramatic konflikt tugallandi. Lekin "Alisher Navoiy"ga xos xususiyatlar ayniqsa uning murakkab rejalanganligi, avtorlarning maqsadni o'tkir situatsiyalarda chuqur hayotiy zaminda ta'sirli ifodalashga intilib, yordamchi konfliktlarga ham murojaat etishlari dramatic harakat tugunini tag'in ham kattaroq tugishiga olib keladi: yo'qoridagi tugun yuzaga kelgach, Navoiyning ashaddiy dushmani makkor, g'alamsi va fitnachi vazir Majdiddin shohning mayshatparastligi va buzuvq tabiatidan foydalanadi. Uning bog'da yurgan qiz (bu shoirning seviklisi Guli edi)ni ko'rib, hayoli qochgan shohga "harambop" deyishi bilan boyagi tugun yana bir bor qattiq tuguladi. Bu yoirdamchi liniya Navoiy ideali bilan uning zamoni va zamondoshlari axloqiy hamda dunyoga qarashlari, maslaklaridagi ziddiyatlar zaminidan tug'uluvchi bosh konfliktni kuchaytirishda, xarakterlar xususiyatlarini ochishda, ularning ruhiy dunyosini ifodalashda ichki va tashqi harakat birligini taminlashda muhim zveno bo'lib qatnashadi.

Dramatik konfliktning puxta va qattiq tugulishi, unda murakkab hayotiy ziddiyat va insonning taqdirlarning qamrab olinishi voqealarni tez rivojlantiradi, personajlar munosabatini darhol keskinlashtiradi, Navoiyning xalqparvarligi, adolat o'rnatishida qat'iy va o'z so'ziga amal qilishi ikkinchi ko'rinishda tag'in ham kuchliroq qarshiliklariga – bekdodalar va ularning homiylari noroziligiga, Mansur kabi yangi ayg'oqchi dushmanlarning ko'payishiga sabab bo'ladi. Majdiddin bilan Yodgorbek o'rtasidagi xoinlikni ochuvchi xatning Navoiy qo'liga tushishi, Darveshali qo'zg'olonida uning og'asi ulug' shoirimizning ishtiroki bor deya tuhmat qilinishi, sir ochilmasligi uchun Yodgorbekning qatl etib yuborilishi kabi hodisalar ayniqsa tashqi harakatni tobora kuchaytiradi, chuqurlashtiradi, ichki

harakatga zamin hozirlaydi.

Ikkinchi parda oxirida (to'rtinchi ko'rinish) Navoiy dalillar bilan Majdiddinning hoyin va razil shaxsligini ochib tashlagach, shoh tomonidan uni o'ldirish uchun jallodning chaqirilishi bilan drama, ayniqsa tashqi harakat ma'lum nihoyaga yaqinlashgandek, uning finishi ko'rinib qolgandek tuyiladi. Biroq dramaturglarimizning san'atkorligi, konfliktni mahorat bilan rivojlantirishlari, unga munosib harakatlar tanlaganlari, voqealarni ilgarigidan ham kuchayishiga, dramatismning oshishiga olib keladi: Majdiddinning ustomonligi va Darveshali qo'zg'oloni bostirulguncha uning o'limini kechiktirishga shohni ko'ndirishga kifoya qiladi. Bu hol o'z o'rnida yana yangi kurashuvlarning, yangi kuch bilan ilgariga jadal borishiga, murakkablashishiga turtki bo'ladi. Yangi jumboq – endi nima bo'alr ekan, degan mushkul savol va sir kitobxon yoki tomoshabinning hayajon va besabirlik bilan kutishga, asardagi dramatismning asiri bo'lishga mahkum etadi.

Konflikt keskin va murakkab bo'lsa bir sahna asarida dramatism birnecha bor yo'qori cho'qqilarga ega bo'lishi mumkin. Lekin ularning navbatdagisi oldingisidan kuchli va zo'r bo'lishi zarur. Zotan bu janr dramatismi tabiati shuni talab qiladi. "Alisher Navoiy"da xuddi shunday fazilatlar mavjud. Jumladan, beshinchi va oltinchi ko'rinish (uchunchi parda)da Gulining, shoh haramiga keltirilgach, og'ir va fojiali qismatiga yo'liqishi, Jaloliddinning to'satdan qatl etilishi, obodonchilik ishlarining izdan chiqarilishi xarakterlarni yangi vaziyatga munosib ravishda chuqur ochadi, dramani murakkablashtiradi. O'z rejasi va niyatlari muholiflari tomonidan barbod etilayotganligini ko'rgan Navoiy dahshatga tushadi, ayniqsa, yaqin do'sti Jaloliddinning o'ldirilishi shoir qalbini larzaga soladi:

Ey! Voh!

Bu xo'rlik! Bu sitam! Bu qonli vahshat!

Bu zulmat! Bu jafo! Bu zulm! Bu dahshat!

Gunohi ne erdi u tilla boshning?

Gunohi ne erdi u porloq quyoshning?

.... Javohir saqlagan dengiz edi u.

Hunar, fan bobida tengsiz edi u.

U san'at yurtining shunqori erdi.

U elning iftixori, ori erdi.

Edi qilmishlari pok, ham o'zi pok.

Dili pok, ham tili pok, ham so'zi pok³

- Bosh qahramon tilidan aytilgan va tashqi harakatlar majmuasining ichki harakatga olib kelishi sifatida yuzaga chiqqan bu monologda drammatizm o'zining cho'qqilaridan biriga minadi.

Lahza o'tmay, shu zahotiy oq drammatizm, ilgari gidan ham yuqoriga ko'tariladi: Gulining haramdaligini eshitgan Navoiyning shu ondagi holatini, uning ruhi va kayfiyatini faqat dramaturglar ifodasida, bosh qahramon nutqi orqali tasavvur etish mumkin:

Yo rabbiy, bu ne hol!?

Tushummi yoki bu o'ngummi. Tangrim?!

Bu mash'um mujdani kim sharx etar? Kim?

.... Falak solmish mening qalbimga g'ashlik.

Yiqil zolim falak, xharxi sitamkor!

Balolar domiga qilding giriftod!

Yiqil ustimga, ey, gardun, yiqil tez!

Yiqil, boshimni yanch! Gavdamni bos, ez!⁴

Navoiyning ichki dunyosini, konkret situatsiyadagi ruhiy holatini g'oyat ta'sirli ifodalovchi va ichki harakatga boy bu monologdan so'ng shoir haram tomon otiladi. Natijada ichki harakat yana tashqi harakat bilan almashinadi. Dramatik oqim shu asnoda yaxlit va yagona yo'nalish kasb eta boradi.

Keyingi ko'rinishlarda ham drammatizm nainki pasayadi va susayadi,

³ I.Sulton "P'esalar, Maqolalar" Toshkent, 1959, 117-118-betlar

⁴ O'sha kitob, 119-bet

aksincha, yang-yangi situatsiyalarda zo'rayib, xarakterlarning qirralarini keng ocha boradi. Bunga yettinchi ko'rinishda (to'rtinchi parda) Navoiyning Guliga haramda duch kelib, "Ko'zim chiqsin seni ko'rguncha mundoq, kesilsun til seni so'rguncha mundoq" deya og'ir va mushkul ahvolda qolishi, Husayn Boyqaro bilan to'qnashishi kabi momentlar ham shahidlik qila oladi.

Sakkizinchi ko'rinishda harakatni ilgariga yo'naltiruvchi yangi hayotiy vositalar mavjud etiladi. Majdiddin va uning maslakdoshlari tazyiqi bilan shoh tomonidan Astrobodga surgun qilingan Navoiyning og'ir qismati, shoir ideallarining fojiasi yangi real sharoitda to'la ochiladi. Orzulari zamonaning zo'rligi tufayli barbod bo'la boshlagach, buning ustiga Gulidan ham ayrilgan, ko'ngli xasta shoir ijodga butun vujudi bilan shung'iydi. Bu o'rinda asar syujetini rivojlantiruvchi, murakkablashtiruvchi tashqi harakatdan ko'ra personajlar qalbini, xususan, Navoiy psixologiyasini ochuvchi ichki harakat ustun turadi. Hatto Mo'minmirzoning Balx ustida ota-bola – Husayn shoh bilan Badiuzzamon o'rtasida janjal chiqqani to'g'risida xabar keltirishi, Mansurning josusligi va qotilligi oshkor bo'lishi kabi tashqi harakatlar ham ichki harakat ta'sirini bosib ketolmaydi. Shuning uchun ham p'esaning bu o'rinlaridagi dramatism qalblarga chuqur kira oladi.

Oxirgi o'ninchi ko'rinishda konflikt rivoji dramatismni eng yuqori avjga – kulminatsiyaga olib chiqadi: nosoz zamonadagi yaramas axloq tufayli, razolatning hokimligi va adolatning oyoq osti qilinganligi sababli o'sha davrning eng umidli va aqli rosa shaxslaridan biri Mo'minmirzo yovuzlar qora niyatining begunoh qurboni bo'ladi. Navoiy o'z intilishlari, butun xatti-harakati, adolatli hukmdor o'rnatish yo'lidagi urinishlari befoyda va oqibatsiz ekanini to'la anglab yetadi, bu yo'lda sarf qilgan mehnatlari zoya ketganligidan ruhan eziladi. U, shoh saroyidan ketishga qaror qiladi. Demak, xarakterlar chuqur ochilmaguncha harakat to'xtatilmaydi. Navoiy ideali bilan uning zamonasi o'rtasidagi ziddiyatga asoslangan konflikt tufayli asarning boshidan toki finaligacha o'tuvchi yaxlit harakat yuzaga chiqib, Navoiyning ruhiy fojiasi bilan nihoyasiga, yechimga yetadi.

Ammo asarning dramatik ruhi, ta'sir kuchi qalblarni uzoq vaqt zabt etib oladi.

Shunday qilib, Uyg'un va I.Sulton XV asrda yashagan va ijod etgan buyuk shoir, mutafakkir va davlat arbobi Navoiy obrazini, uning insoniy dahosini mahorat bilan badiiy vositalarda, dramatismga boy harakatda ifoda etadilar. Dramatik konflikt o'sha zamon hayotidan olinganligi, chuqur hayotiy negizda turganligi uchun ham asardan davrning ruhi, adolat va inson erkinligi poymol etilganligi va unga qarshi xalq noroziligi sezilib turadi.

O'tmishdagi qarama-qarshiliklar, sotsial kurashlar, feodal hukmdorlarning mansab, amal, taxt uchun o'zaro janjallari va olishuvlari konkret, individual sifatlarga ega bo'lgan turlicha harakatlar taqdirida, ularning maqsad, g'oya yo'lidagi kurashlari tarzida badiiy haqiqatga aylanadi. Asardagi personajlar o'z xarakterlari mantiqiga muvofiq kurash etaplarini bosib o'tib, dramatic janr spesifikasiga muvofiq bo'lgan faoliyat va harakatni yuzaga chiqaradilar, uning uzluksiz va muttasil kuchaytirib borilishi natijasida Navoiy yashagan davr ruhi, xalq hayoti o'zining realistic ifodasini topadi. Avtorlarning sotsialistik realism metodi bilan qurollanganliklari esa asarning partiyaviy ruhini o'tkirlashda, uning xalqchil va zamonaviy ruhini chuqurlashtirishda, gumanistik g'oyani ta'sirchan ifodalashda, voqealarni istiqbolli etib tasvirlashda, davrning ilg'or g'oyalarini tasdiqlashda, jirkanch va qabohatlarni qoralashda keng imkoniyat yaratadi.

Ma'lumki, Navoiy xalq obodonchiligi yo'lida ko'p olijanob ishlarni qilgan ajoyib jamoatchi edi. Yaxshisi, bu to'g'rida tarixga murojaat etaylik. Shayboniyxon Movarounnahrni istilo qilib, Xurosonni ham temuriylar qo'lidan tortib olishga qasd etgan vaqtlarda unga qarshi kuchlarni birlashtirib kurashuv niyatida Hirotga, Sulton Husayn o'g'illari huzuriga kelgan Bobir shunday yozadi: "Alisherbekning o'lturur uylarinikim "Unsiya" derlar, maqbara va masjidi jomenikim "Qudsiya" derlar, madrasasi va xonaqohnikim "Xalosiya" va "Ixlosiya" derlar, hammom va dorilshifosinikim "Safoiya" va "Shifoiya" derlar, borini andak fursatda sayr qildim". Navoiy madrasalariga uzoq viloyatlardan minglab talabalar kelib turgani "barchasining maishati asbobi omoda va muhayyo va hamma

o'zlarining matolib va maqosidiga yetib, ul hazratga duo va sanolar deb" yurtlariga jo'nashlari to'g'risida "Ravzatus-safo"da yoziladi. Navoiyning faqat Hirotda emas, Xurosonda o'zga viloyatlarda ham ko'p xayriya uylari, ko'prik va rabotlar, hovuzlar bino qildirgani ma'lum" (Oybek).

Asarda Navoiyning bu sohadagi faoliyati yagona bir liniya atrofida, uning mamlakatning sug'orish ishlariga rahbarlik qilishi asosida yoritiladi.

Dramada Navoiyning ijtimoiy-siyosiy faoliyati asar konflikti bilan chambarchas bog'langan bo'lib, konfliktning kuchli dramatism asosida rivojini, shoir fojiasi va uning ma'naviy qiyofasini yanada yorqinroq yoritilishini ta'minlagan. Dramaturglar Navoiyning bu sohadagi faoliyati bilan o'quvchi va tomoshabinni asarning birinchi ko'rinishidanoq tanishtirib boradilar. Buni dramaning birinchi parda, birinchi ko'rinishidagi Alisher bilan Guli o'rtasidagi dialogidan chuqur his etamiz.

*Guli – So'nggi chog'da kamnamosiz,
G'arib, bechora men – yer, siz – samosiz.*

*Navoiy – Yoningda bo'lmoq, orzum ertayu kech,
Faqat, naylay, ilojin topmadim hech.
Ariq qazmoqdamiz cho'llarda ish ko'p,
Rabotu, madrasa, yo'llarda ish ko'p.
Yumush der, yerdagi har zarra tuproq,
Yumush der, bog'dagi har toza yaproq.*

*Guli – Kimiki bo'lsa inson, bo'lsa odam,
Xaloyiqning g'amin eydur damo-dam.*

*Navoiy – Vafodorum, shuning-chun kamnamoman,
Olur vaqtimni bu ishlar tamoman.*

Majdiddin va saroy beklarining Alisherga qarshi ig'vo, bo'honlari Sulton Husaynni do'stidan ajratadi. O'zi istamagan holda o'z do'stidan benasib bo'lish qanday og'ir vaziyat, chuqur ruhiy kolliziya. Buni Husaynni "Alisher davlatimning tayanchi, saltanatimning suyanchi, hayotimning quvonchi, undan voz

kecholmayman”, deb e’tirof etishdan aniq his etamiz.

Biroq shuni ham qayd etish lozimki, dramada ma’lum darajada Boyqaroni o’ta salbiy tip sifatida ko’rsatish hollari ham uchraydi. Tarixiy haqiqatdan ma’lumki, Husayn Boyqaro qirq yil davomida Xurosan mamlakatini idora qilgan va uzoq muddat uni qirg’in urushlardan saqlab qolgan, she’riyat bobida ham samarali qalam tebratgan shaxs edi.

Navoiyning Husayn vorislaridan eng donosi, sohibi taxt Mo’min Mirzo istiqboliga bo’lgan munosabati, uni bobosi o’rnida odil shoh sifatida ko’rish orzusi ham senariyning dastlabki qismlaridanoq ochiq-oydin ko’rinadi.

Navoiy va Mo’min Mirzo munosabatlariga ham senariy va fil’mning dastlabki kadrlaridanoq zamin tayyorlanadi. Navoiy Mo’minni yoshligidanoq adolatparvarlik va xalqparvarlik ruhida tarbiyalab borsa, Majdiddin o’g’li Mansurni zulmat dunyosi girdobiga tortadi. Ikki xil falsafa, ikki xil tarbiya natijasida voyaga yetgan insonlarning biri johilligi uchun adolat yo’lida qatl etilsa, ikkinchisi esa ahlidonishligi uchun zulmat dunyosi vakillari tomonidan vaqshiylarcha o’ldiriladi. Naqadar dahshat, qanday razolat, inson o’zining ahlidonishligi, sohibi tadbirligi uchun yorug’ dunyo lazozatlaridan mahrum etilsa?!

Dramada Mo’min Mirzo so’nggi kartinalarda ko’rinadi. Mo’min otasi bilan bobosi o’rtasidagi nizoni bartaraf etishni so’raydi. Navoiy bunga rozi bo’ladi.

Mo’min – Shuning uchun iltimosimni qabul eting, ustoz!

Navoiy – Mayli, shahzoda, sizningcha va ustod Jomiycha bo’lsun. Men erta tong bilan otang yoniga jo’naymen, undan Hirotga o’tamen.

Mo’min – Ustoz, meni xursand qildingiz, sizga yuz yil umr bersin!

Navoiy – Aziz shahzoda, dunyoda yuz yil yashamak, yuz yil azob kechmak ekanini bilsangiz edi, ehtimol, menga yuz yil umr tilamagan bo’lur edingiz.

Mo’min – Azoblarni yengish, xalq uchun, ijod uchun yashang! San’at osmonida nur sochuvchi ulug’ yulduzga also zavol yo’q!

Navoiy – Afsuski, bu yulduzlarni quyug’ zulmat o’rab olgan.

Mo'min – Zulmat qancha quyuq bo'lsa, yulduz shuncha ravshan charaqlaydi.

Navoiy (Mo'min javobidan xursand) – Ofarin!

Mualliflar bu dialogdayoq Mo'min qiyofasidagi haqiqat, adolat va tinchlik uchun kurash kabi xususiyatlarni gavdalantirganlar. Natijada, ko'z o'ngimizda shahzoda Mo'minning yorqin qiyofasi butun borlig'i bilan qad ko'taradi. Mo'min xarakteridagi muhim sifatlarni qisqa dialogda ustalik bilan tarannum etishdagi dramaturglarning mahorati ham, shahzodaning tomoshabinlar tomonidan qizg'in kutib olinishining boisi ham shunda.

Mo'minmirzoning o'limi Alisherni chuqur iztirobga soladi. Chunki, Mo'minning fojiasi Navoiy idealining butkul barbod bo'lishidan, shoirning ma'naviy tragediyasidan dalolat berar edi. Navoiy: "Yo rabbiy! Bu hodisalardan ilgariroq meni ko'r va kar qilib qo'ysang bo'lmasmidi", deb nido qiladi.

Yanglishganligini, pista po'chog'idan kema yasamoqchi bo'lganligini chuqur his etib, qattiq iztirob chekadi. Bu Navoiyning ma'naviy fojiasi edi. Ammo Navoiy insoniyatning ulug'vor qudratiga, uning kelajagiga umid ko'zi bilan boqadi. Axir bir kun insonlar o'rtasida o'zaro nizolar barham berilib, adolat va haqiqatning tantana qilinishiga ishonch bilan qaraydi.

Bu esa Alisher Navoiy idealining hayotbaxsh kuchidan, shoirning kelajakka bo'lgan nekbinoma munosabatidan yorqin dalolatdir. Navoiy ideali va shoir xarakterining optimistik ruhi ham shunda. Navoiy ideali adolat va haqiqat qaror topgan bizning jamiyatimizdagina ruyobga chiqdi.

Husayn Boyqaroning Majdiddin makriga shu ravishda uchib, laqillanishi quyidagi faktorlarga ko'ra ishonasiz:

1. Husayn Boyqaro – uncha-munchaga laqillanishmaydigan, uyalmay netmay yengil-yelpi ish qilmaydigan, hodisalar, harakatlar, holatlar xatti-harakatlar ma'nosidan to'g'ri xulosa chiqarib ola biladigan, aqlli, dono, tadbirkor bo'lgan. Shuning uchun ham toju-taxtni eng murakkab sharoitlardan qirq yilga yaqin o'z qo'lida ushlab tura olgan. Uning mazkur sifatlariga ishora beruvchi, ayriq o'rinlar

p'esada ham bor: xalqning shohga qarshi isyon ko'tarishi, buning ustiga yovuz dushman Yodgor Muhammadning poytaxtga bostirib kirishi munosabati bilan Husayn Boyqaroga og'ir musiybat yuzlanadi. Shunda Majdiddin "Hirotdan uzoqroq ketib turmoq, kuch yig'ib, so'ng Hirot ustiga yurish qilmoq" [85] maslahatini beradi. Bunday qaraganda, bu maslahatda jon borgan o'xshaydi. Darhaqiqat, vaziyat benihoya og'ir: bir yoqda xalq isyoni, ikkinchi yoqda Yodgor Muhammadning poytaxtga kuchli qo'shin bilan bostirib kirganligi.... "ikki olovga qarshi birdan chora ko'rish mushkul". Shunday bo'lsa-da, Husayn Boyqaro Majdiddinning mazkur maslahatiga ko'nmaydi, uning "asosli" dalillariga ham uchmaydi, laqillamaydi, uning maslahatiga amal qilishni – "fursatni qo'ldan berish" deb biladi. Fursatni qo'ldan bermaslik uchun ikki olovga qarshi chorani Hirotning o'zida turib toppish zarurligini yuz bergan vaziyatning ma'nosidan donalarcha uqib oladi. Yana bir o'rinda Majdiddinning "Taxtingizni tebratib turgan Alisher" [102] degan so'zlarga laqillamay, Alisher va Majdiddinning harakati mantiqidan kelib chiqib, bu so'zlarni "Hasad! Ig'vo!" [107] deydi haqli ravishda Majdiddin Navoiyning tug'ishgan ukase saltanatga isyon ko'targanligini asos qilib, "buni, Navoiy odamlarining shohga qarshi ochiq bosh ko'tarishi, deb aniqlamoq kerak" (102) deydi. Uning bu fikrida haqliga o'xshab ko'rinishini qo'zg'olonchilar boshlig'i Alisherning inisi ekanligi tasdiqlanganday bo'ladi. Shunda ham shoh Majdiddinning bu fikriga Navoiyning harakati mantiqdan kelib chiqib qo'shilmaydi. Ammo, bu masalaga beparvo ham qaramay, "hujjat, dalil" [102] talab qiladi. Hujjat, dalil yo'qligini, taxminlarga borligini aniqlab, "taxminlar bilan ish qilib bo'lmaydi" [103] deydi. Ayni choqda, taxminlarni ham diqqat e'tiboridan qochirmay, ularning to'g'ri-noto'g'rligini Navoiyni qo'zg'olonni bostirishga yuborish orqali aniqlaydi. Qarang, naqadar tadbirkor, naqadar pishiq-puxta ish qiladi. Odamlarning xarakteri logikasidan nimalar qilishga qodir-u, nimalar qilishga noqodirligini biladi. Bundaylarni laqillatish oson emas.

2. Yodgor Muhammad "poytaxtga tez va o'ng'ay" [85] kirib oladi. Bu hol, Husayn Boyqaroda haqli ravishda shubha tug'diradi. Bu holdan taajjulanib, ro'y

bergan voqeada ichki dushmanni qo'li bor emasmikin, degan xayolga boradi u. Uning bu xayoli – bu shubhasini Yodgorning Majdiddinga yozgan xati haqiqatga aylantiradi. Bu haqiqat Majdiddinning taftish tamom bo'lmagani holda Yodgorning boshini oldirib yuborishida, shu yo'l bilan aybi ochilishining oldini olmoqchi bo'lganligida ham tasdiqlanadi. Shuning uchun ham Majdiddinning xoin emasman deyishiga shohning laqillashi ishonchli emas.

3. Majdiddinning ig'vogar, makkor, munofiq, xudbinligini, xudbinligi yo'lida har qanday yaramasliklardan qaytmasligini shoh juda yaxshi biladi. Shu sababli uning Alisher ustidan qo'zg'agan bir ig'vosiga uchmay, uni achchiq kinoyali so'zlar qamchisi bilan savalaydi – “koshki, o'zgalarni g'iybat qiluvchilar o'z nuqsonlarini ham bilsalar” [86], - deydi. Ko'p o'rinlarda, uni ochiqdan-ochiq “iblis” deb ataydi, uning aybi fosh bo'lgan paytda o'zini oqlamoqchi bo'lishiga javoban “iblis, yana hiylaga ko'chmakchisen” [107] deydi. Demak, Majdiddinning iblisligi, hiylagarligi, shohga oldindan ma'lum. Binobarin, uning xoinligiga oid hujjatni makkorlarcha rad etishga urinishi ham qilgan ko'p qilgiliklaridan biriligi xarakter belgilaridan shohga ayon haqiqat.

4. Shoh ko'rib turibdiki, Majdiddinning Mo'min Mirzoni qatl ettirishida ko'rinadi. Shohning mastlik chog'ida bilmasdan Mo'minni o'ldirish haqidagi farmoni oliyga qo'l qo'yishi, Mo'minning shoshilinch o'ldirilishi tabiiy. Bu hodisa xarakterlar, sharoitlar mantiqiga mos: Majdiddin shohlikning keyinchalik Navoiy ta'siridagi kimsaga – Mo'minga o'tishini istamay, ruhini saltanatda doimiy barqaror qilmoqchi bo'lib, ana shu mash'um hodisani uyushtirishda, yuzaga chiqarishga tashabbuskor bo'ladi. Siri ochilgach, haqli ravishda ayblanib, o'limga mahkum etiladi. Oqibat shunday bo'lishini – shahzodani qatl ettirgani uchun o'zi ham o'ldirilishini oldindan biladi. Nahotki, bugun nabirasini o'ldirsam, ertaga shoh o'zimni o'ldiradi-ku, nabirasini jonidan ortiq ko'radi-ku, deb o'ylamagan bo'lsa... o'ylagan, o'ylagani holda, shahzodani qatl etib, o'z o'limiga o'zi sababchi bo'lishi ustomonligiga zid emasmi? Majdiddin Mo'min Mirzoni hiyla bilan qatl ettirmasligi kerak edi, demoqchiasmiz. Uning bu qilmishi o'ziga xos sifatlari,

xususiyatlari ma'nosiga juda mos bo'lib tushib, qahramonlar psixologiyasini, davr ruhini ochishda juda muhim rol o'ynaydi.

Dramaturglar Navoiy va Guli, Navoiy va Mansur munosabatlariga asoslangan yordamchi syujet yo'llarini ham hal qila boshlaydilar. Dramada voqealar tizmasining shu yo'sin ketma-ket yashin tezligiday berilishi syujetning keskin drammatizm asosida rivojlanishini va Navoiy xarakteridagi adolatsiz zamonaga chuqur nafrat, xalqparvarlik va vatanparvarlik kabi qarashlarining aniq aks ettirilishini ta'minlagan. Navoiy bor ovozi bilan zulmat dunyosiga qarshi barilla la'natlar o'qiydi:

Falak solmish mening qalbimga g'ashlik,

Yiqil zolim falak, charqi sitamkor!

Balolar domiga qilding giriftor,

Yiqil ustimga, ey dardun, yiqil tez!

Yiqil, boshimni yanch! Gavdamni bos, ez!

Bu satrlar ulug' inson ma'naviy fojiasining dastlabki bosqichidir. Shu jihatdan ushbu holat asarning birinchi kulminatsion cho'qqisini tashkil etadi. Navoiy siymosini badiiy ifoda etishdagi ijodiy izlanish, mashaqqatli mehnat jarayoni haqida shunday hayajonli satrlarni Uyg'un va Izzat Sultonlar maqolalaridan ham topish mumkin. Adiblarimiz xalqimizning sevimli farzandi Alisher Navoiy xarakteri va antogonistik qarama-qarshilikka ega bo'lgan uning davrini haqqoniy ravishda badiiy ifoda etishdek mushkul, og'ir ishning to'la uddasidan chiqdilar. Natijada Alisher Navoiyning parloq siymosi adabiyot va san'atning turli janrlarida yorqin aks ettirildi.

O'zbekiston xalq shoir G'ofur G'ulom tabiri bilan aytganda:

«Etuk kishilarni yana ming yillar,

Xalq farzand ataydi jondan beg'araz».

Chindan ham Alisher Navoiy siymosi barhayot, uning qalamiga mansub asarlari esa oradan qancha davrlar o'tmasin o'z qadrini yo'qotmaydi.

O'zbek dramaturglari Uyg'un va Izzat Sultonlar yozgan "Navoiy" dramasi

o'zbek adabiyotining dramaturgiya janridagi eng yirik asarlaridan biri bo'lib kelmoqda.

2.2. “Muqanna” daramasida sujet masalasi

So'z san'atining asosiy turlaridan biri bo'lgan drama unoncha so'z bo'lib, harakat, amal-faoliyat degan degan ma'nolarni bildiradi. Pesa, asosan, sahnada ijro etish uchun mo'ljallangan bo'lib, suhbat – diolog shaklida yoziladi. Unga bayon va tasvirlashga xos usullar yot bo'lganidan, muallif personojlar hatti-harakatini, hodisalarini bevosita tahlil etish imkoniyatiga ega emas. Bunday vazifalar diolog yetakchiligida, monolog, remarka va pauzalar yordamida muayyan vaqt ichida ko'z o'ngimizda sodir bo'layotgan qismatlar shaklida amalga oshiriladi. Har bir voqeaga yo'nalish beriladi. Dramatik asar tanafuslar bilan ko'rsatilganligi sababli har qaysi qismi parda deb yuritiladi. Parda ichida ko'rinishlar bo'ladi. Bir kechaga mo'ljallanganligi sababli drama hajmi cheklangandir.

Sahna asarining yetakchi va o'ziga xos xususiyati uning dramatic mohiyatiga, pesada uzliksiz rivojlanib, kuchayib boruvchi, o'ziga tortib turuvchi tasirbahsh, zavqbahsh yo'nalishga, ya'ni dramatic harakat bilan aloqador xususiyatlarga borib taqaladi. Lo'nda qilib aytganda, dramatic harakat – bu obrazlarning pesadagi g'oyaviy niyatga nisbatan o'zaro munosabati zaminida kelib chiquvchi hayajonli, qiziqarli, tasirchan yo'nalishidir. Demak, dramatic harakat obrazlar karakteriga tabiatiga muvofiq ravishda amalga oshuvchi xatti-harakatlarni, intilishlarni, to'qnashuv hamda psixologik holatlar natijasida jelib chiqqan voqeani bir yo'la qamrab oladi. Albatta, har qaysi pesa da dramatik yo'nalish mohiyati o'sha asarning qanday mavzuda qanaqa janrda ijod qilinishi, harakterning fe'l atvori – mantiqi va dramaturkning individual uslub, qirralari bilan belgilanadi.

XX asr boshlarigacha o'zbek xalq dramaturgiyasi asrlar qariga kirib boruvchi uzoq o'tmishda og'zaki pesalar shaklida hukm surdi.

Madaniyatimaiz tarixi bilan rivojlanib kelgan bu san'at turi sinkritik aralash mohiyatga molik xalq teatri bilan bir butunlikda, ayniqsa, qiziqchilar va qo'g'irchoq teatrlari hamda turli ommaviy sayl-tomoshalar bag'rida yashadi.

XX asr avvalida tom ma'noda o'zbek dramaturgiyasi shaklandi. Mahmudxo'ja Behbudiyning 1911-yilda yaratilgan "Padarkush" dramasi bu sohadagi birinchi asarlardan hisoblansa, Hamza Hakimzoda Niyoziy qalamiga tegishli "Zaharli hayot", "Ilm hidoyati" pesalari yozma drama namunalari edi. Nusratullo Qudratilloning "To'y", Badriyning "Juvonmarg", "Ahmoq", Abdulla Qodiriyning "Baxtsiz kuyov" kabi pesalari o'sha yillarda nashr qilindi. Hoji Mo'min Shukrulloning "Mazluma xotin", "Eski maktab yoki yangi maktab", "Ko'knori", "Juvonbozlik qurboni", "Isloh va maktab haqida kengash majlisi" pesalari ham shu turdagi sahna asarlari jumlasidandir.

Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" tragediyasi Chingiz bosqinchilariga qarshi el-yurt kurashini boshqargan shu tarixiy shaxsning cho'ng, qahramonona realistik obrizini mohirona gavdalantirishdan tashqari, o'zbek dramaturgiyasida bu janr uzil-kesil qaror topganligini tasdiqladi (janr xususiyatini yoritish niyatida pesa tahlili "Tragediya" bo'limiga ko'chirildi. Vatan urushi yillarida xalqni kurash va g'alabaga ilhomlantiruvchi asarlar yozishga yo'naltirib turish nihoyatda zarur edi. Xususan, 1941-yilda yozuvchilar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvlarning birida kishilarimizni ota-bobolarimizning vatanparvarlik hamda jangovarlik an'analari ruhida tarbiyalovchi sahna asarlari yozish vazifasi qo'yildi. Ana shu da'vatga javoban Hamid Olimjon Muqannaning arablar istilosiga qarshi, Shayxzoda esa Jaloliddin Manguberding mo'g'ul bosqinchilariga qarshi xalqimiz olib borgan mardona janglarni aks ettirgan, qahramonona xarakterlar o'z ifodasini topgan o'lmas pesalar yaratdilar.

Ma'lumki, Muqanna VIII asrning 70 – 80-yillarida Mavarounnahrda arab xalifaligining bosqinchiligi va hukimronligiga, mahalliy feodallar zulmiga qarshi ko'tarilgan xalq ozodlik harakatining boshlig'idir. Uning asl ismi Xoshim ibn Hakim bo'lib, Marv shahri yaqinidagi Koza qishlig'ida tuug'ilgan. Buxorolik

tarixchi Narshaxiyning yozishicha, uning bir ko‘zi ko‘r, boshi kal va basharasi juda xunuk bo‘lganligidan, ko‘k parda tutib yurgan. Shuning uchun ham u “Muqanna”, ya’ni “niqobdor” laqabi bilan mashhur bo‘lgan. Uning tarafdorlari ham oq pardada yurishgan. Muqanna 769-yildan boshlab, umrining oxirigacha Movaraunnahrda arab xalifaligiga qarshi ko‘tarilgan xalq qo‘zg‘alonlariga boshchilik qilgan; u o‘qimishli, bilimdon bo‘lib, arab va fors tillarini puxta bilgan.

Muqanna qo‘zg‘aloniga zarba berish uchun xalifa Abu Jafar 775-yilda Ozarbayjondan lashkarboshi Jabroil ibn Yahyoni chqirtirib olib, katta kuch bilan Mavaraunnahrga yuboradi. Amma Jabroil qo‘zg‘alonchilarga yengiladi va Samarqanddagi arab qo‘shiniga kelib qo‘shiladi. Arablarning birlashgan qo‘shinlari Muqannaga qarshi tashlanadi. Narshah qal’asida “Oq kiyimlilar” yengilgach, mahalliy feodallar sotqinlik qilib, joylarda arablarga yordam bera boshlaydilar. Ular arablar bilan birga Muqannaning Som tog‘idagi istehkomini qamal qilishda faol qatnashadilar. Uzoq davom etgan qamaldan so‘ng kuchsizlana boshlagan muqannachilar taslim bo‘ladilar. Ammo arablarga taslim bo‘lishni or bilgan Muqanna o‘zini uch kun davomida qizdirilgan tandir tandir oloviga mardona tashlab halok bo‘ladi. U o‘z o‘limidan oldin safdoshlariga yangi kuch-qo‘shi olib kelajagini aytib, umidvorlik urug‘ini kurashchilar qalbiga sochib ketadi.

O‘z yurtining mustaqilligi, xalqining ozodligi, baxti, kelajagi uchun bosqinchilarga qarshi qurol ko‘targan Muqanna boshchiligidagi xalq qo‘zg‘aloni Hamid Olimjonning diqqatini 30-yillardayoq o‘ziga tirtgandi. U Vatan urushi boshlangach, davr talabiga ko‘ra, qahramonlik, erkparvarlik mayllariga to‘la, davrga hamohang mavzuga jiddiy kirishadi. Shoir xalqimizga avlod-ajdodlarimizning o‘z yurtini chet el bosqinchilaridanhimoya qilish tarixini, qahramonona sahifalarini yaqqol ko‘rsatish zarurligini tuygan edi.

A.Fadeev “Muqanna” pesasi g‘oyat zo‘r istedod bilan yozilgan asar desa, K.Zelinskiy urush kunlarida yaratilgan eng yaxshi pesalardan biri – “Muqanna”dir, deb takidlaydi. Bu gaplarda katta asos bor edi. Shu sababli mazkur she’riy tarixiy dramani 1943-yildayoq mashhur teatr nazariyotchilaridan biri S.Mixoels bilan

Mannon Uyg'ur sahnalashtiradi. Chunki, Hamid Olimjon o'z publitsistikasida katta ishonch va g'urur bilan o'zbek xalqi haqida, uning avlod-ajdodi haqida: "Mening xalqim qanday bo'lmasin, bir iloj qilib umr o'tkazishga kelgan xalq emas. Butun qaug'usi qorin to'ydirishdangina iborat bo'lgan bo'lgan har bir joyda ham kun ko'ra oladi. Yo'q, mening xalqim baxt va saodat bilan ko'krak kerib yashashni istaydi. U yer uziga o'zining butun imkoniyatlarini namoish qilishni, o'z dahosini ko'rsatishni, o'zi yaratgan boyliklar, shonli o'tmishini, nimalarga qodir va qobil ekanligini namoish qilishni, milliy madaniyati, o'z milliy an'analrining g'ururiy ruhi bilan yashashni, o'zining kelajak avlodlarga baxt va saodat berishini istaydi"⁵ degan edi. Hamid Olimjon pesada yaratgan qahramonlarining jangavor yo'li, ularning bukilmas irodasi, yuksak insoniy tuyg'ulari fashist bosqinchilariga qarshi mardona kurashayotgan xalqimizning ruhi va tuyg'ulariga tutash edi.

Asarning boshlanishiyoq kuchli dramadan guvohlik beradi. Orashparast qul Otashning oilasi arab bosqinchilarining musulmon dinini zo'rlab o'tkazishlaridan og'ir kechinmalariga tushadi. Ular arablar diniga tish-tirnog'I bilan qarshi. Muqannaning bosqinchilarga qarata bosh ko'targanligi xususida xabar hamma qatori Otashning qizi Guloyimning qalbiga ham o't soladi, u haloskor kurashchi safiga qo'shilish orzusiga beriladi. Shunday negizda dramatic harakat boshlanib, Muqanna boshliq ijobiy kuchlar safi to'la boradi va arablarga qarshi kurashuvchi, ularga dahshat soluvchi ijtimoiy kuchga aylanadi. Asar harakati davomida Muqanna safdoshlaridan uning sevgilisi Guloyimni erka, tantiq, ishyoqmas malikalardan emas, balki xalq qasoschisi, o'z yurti, elatining fidoiy jangchisi, umuman, jasorat timsili bo'lib gavdalanadi. Gulyimning arab lashkarboshisi Saidbattol bilan to'qnashuv-olishuvlari, yovga qarshi kurashda yigitlarday matonat ko'rsatishlari haqqoniy kuch hamda jo'shqin ruh bahsh etadi, mardlikka, zulmga, nohaqlikka qarshi tik borishga undaydi.

Dramada muallif Muqanna obrazini romantik bo'yoqlarda ta'sirli va real chizadi. Unga tegishli hayotiy mantiqiy kuch, xarakterning tom ma'nosi Muqanna

⁵ Hamid Olimjon. Asarlar majmuasi 5 tomlik. 4-tom. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, T.B-130

aytgan monologda bor bo‘yi bilan yuzaga chiqadi:

Sizni bosgan jarohatlarga malham
Agar xudo kerak bo‘lsa, xudo xam
Odam ham man. Ozodlik shiorim.
Hurriyatdir topinajak ollohim.
Tomiringda qolmaguncha qatra qon.
Qur‘oniga topinmayman hech qachon...
...Menga kelsin barcha jabr ko‘rganlar.
Uni kuyin ko‘cha kuyda yurganlar.
Muhammadi, Isosi ham o‘zimman,
Ibrohimi, Musosi ham o‘zimman⁶.

Oddiy insonparvarlik ko‘kka ko‘tarilgan bu so‘zlarda mardlik, insonparvarli g‘oyalari, zamonga hamnafaslik barq urib turibdi. Unda yangi dinni zo‘rlab kiritishga qarshi isyonkorlik, qat‘iy kurashga chaqirish ruhi mujassamdir.

Dramaturg asardagi salbiy kuchlardan Jaloyir obrazini arab ruhoniysi sifatida ko‘rsatishni ko‘zda tutadi. Haqiqatdan ham Jaloyir obrazida biz aniq harakterni ko‘ramiz. Unda islom dinining yirik namoyondasi – mafkurachisi mujassam. U faol bosqinchiligi, shavqatsizligi, qat‘iyligi bilan uzoq o‘tmishda o‘tgan, mohiyatan esa fashizm mafkurachilarining timsolini eslatadi. Bu bilan muallif Jaloirni zamon ruhi talablaripardasiga o‘ragan. U o‘z xatti-harakatlari bilan drama konfliktini keskinlashtiradi. Va ta’sirchanligini oshiradi. Shu jihatdan II va IV ko‘rinishlarda Jaloyirning Muqanna bilan to‘qnashuvi tomoshabin va kitobxon qalbida bir umr qoladi. Mana, yangi qad ko‘targan, Sharq memorchiligining eng go‘zal namunasi hisoblangan hashamadli masjid old tomonining ko‘rinishi. Uning ochilish marosimiga qullar, cho‘rilar, qurollangan arab askarlari to‘plangan. Lashkarboshi Saidbattol, bir guruh ruhoniylar kuzatuvida arab keksalaari kiyadigan milliy libosda Jaloyir kirib keladi. Uning harakatlari salobatli, ko‘zlari aqlga to‘la mo‘ysafid namoyon bo‘ladi. Bir qo‘lida uzun hassa, ikkinchisida tasbeh. Uni

⁶ H.Olimjon.Asarlar majmuas, 3-tom.G‘.G‘ulom,.T.1970.B-23

hamma itoatkarona bo‘yin egib qarshi olishadi...

Islom diniga sig‘inishdan, uni qabul qilishdan bosh tortgan Otash va Guloyimni olib kiradilar. Jaloyir muruvvat va iltifot bilan ularni o‘z yoniga taklif qiladi. Guloyimning boshini “otalarcha” mehribonlik bilan silab, asta-sekin, g‘oyat tasirli ohangda kalmia keltirishini iltimos qilganday bo‘ladi. Jaloyir ollohning dunyo va insonni yaratishdagi mo‘jizalarini hikoya qilayotganda xalq orasida paydo bo‘lgan Muqanna uning diqqatini jalb qiladi.

Avvalo, Jaloyir Muqannaning kimligini bilmaydi, uni nazar-pisand qilmaydi. Lekin Muqanna zo‘r ixlos va jo‘shqinlik bilan din va dindorlarning odamlar boshiga slogan kulfatlarini, islom dinini yoyish shiori ostida xalqning insoniy huquqi va erki arab bosqinchilari tomonidan vahshiyona poymol qilinishini aytganda, Jaloyir qahr g‘azabga to‘ladi. Haqiqat oldida dovdaraydu, ammo o‘zini ushlab oladida, Muqannani band-asir qilishga buyruq beradi. Bunday xatti-harakatlari bilan u xalq oldida asl maqsadini, bosqinchilar mafkurasichi ekanligini namoyon qiladi. Chunki xalq uni dastlab yumshoq, raxmdil, olijanob va samimiy bir inson deb tasavvur qilgan edi. Ammo uning “olijanibligi” bir niqob ekanligi fosh bo‘ladi.

Xalq Jaloyirning maqsadini va u orqali islom dinining mohiyatini tushinib yetadi. Islom diniga topinishga tashbviqot tiluvchi Jaloyirni o‘limga hukm qiladilar. Shunisi ham borki, dramaturg bu yerda yerli xalq – otashparastlarining bu qadar g‘azab va a‘lamga to‘lishi sabablarini, o‘lim hukmiga savovor bo‘lgan Jaloyirning kirdikorlarini, uning ma’naviy ezish qurolini xalq ongiga joylab, uni zulm kishaniga solishda farmonbardor, fatvochi shaxsligini atroficha ochib bermagan. Shunday qilinsa, asar konflikti keskinlashib, uning dramatizmi, ta’sirchanlihi ortardi.

Pesadagi harakat Muqanna boshliq vatanparvarlarning kurashda mag‘lub bo‘lishi bilan nihoyasiga yetadi. Lekin Hamid Olimjon asarni chuqur va hayotbahsh optimism bilan ta’minlagan bunday optimism ijobiy qahramonlarning zo‘r iroda kuchida, dushmanga asir tushishidan, erksizlikdan, o‘z ozodliklari

yo'lida o'limdan tap tortmasliklarida, kelajakda ham bosqinchilarga qarshi kurashni g'alabagacha to'xtatmasliklarida o'z aksini topadi. Erkparvar Muqanna ketidan uning safdoshlari G'irdak, Bog'iy, Xishriy, Kulartaginlar mardona kayfiyatda o'zlarini o'tga tashlaydilar va bosqinchilar qo'lga tushishdan ixtiyoriy o'limni afzal ko'radilar. Shu damda aytilgan Muqannaning qilich damidek o'tkir so'zlari alohida jasorat nidosi bo'lib yangraydi, zamonaga hamohang ruh kasb etib jaranglaydi:

Xalqqa ayting, men also o'lganim yo'q,
Yov qo'lga taslim ham bo'lganim yo'q,
Men elimning yuragida yashayman,
Erk deganning tilagida yashayman...⁷

Shu tariqa Vatan urushi yillarida o'zbek adabiyoti g'oya va mavzu jihatdan boyidi. Uning ko'zga ko'rinarli yutuqlaridan biri dramaturgiyamizda zamonaviylikning chuqurlashuvi va harbiy mavzuning keng o'rin olishibilan izohlanadi. Bunday ruh zamonaviy mavzulardagi, davr kishilari obrazlari aks etgan asarlar bilan bir qatorda o'lkamizning uzoq va yaqin tarixidan yozib olingan, davr bilan hamohang turli qismat va xarakterlar egalari gavdalantirilgan realistic pesalarda o'z aksini topdi. Bu asar qa'ridagi milliy mustaqillik uchun kurash g'oyasi, ona-vatanni sevish va ardoqlashga qaratilgan ruh biz uchun ayniqsa muhimdir.

⁷ Hamid Olimjon. Tanlangan asarlar, V tomlik, II tom.: T. 1958. B-300.

III BOB. “JALOLIDDIN MANGUBERDI” VA “MIRZO ULUG’BEK” DRAMALARI SUJETIDA OBRAZLAR TALQINIDAGI O’ZIGA XOSLIK

3.1 “Jaloliddin Manguberdi” dramasida tarixiy shaxslar obrazi

Dramaturgiyamiz ufqi janrlar rang-barangligi hisobiga kengayayotganligi ham ijobiy hodisadir. Shu jihatdan tarixiy mavzularda tragedya janri namunalari paydo bo‘layotganligi e’tiborni tortadi. Keyingi yillarda bu janr xususida jiddiy gaplar bo‘lganligi, uni rivojlantirishga davit eruvchi fikrlar o‘rtaga tashlanganligi bejiz emas. Zero, muhim janrlardan bo‘lgan tragedyani rivojlantirmay turib, adabiyotning ta’sir kuchini, ta’lim-tarbiyaviy o‘rnini kuchaytirish qiyinligi ustida aytilgan fikrlarda jon bor. Negaki, bu janr namunasida xarakterlarning ulug‘vorligi, o‘ta mushkul azob uqubatli jarayonlarni yengisj bobida qalblarni fojiali tug‘yonlar qa’riga tortuvchi iztiroblarning ikkilanish onlari, noiloj holatlardan chiqish uchun bugun vujudi bilan qarshi kurash ishlari, o‘lim dahshatlaridan tap tortmasliklari kitobxon va tomoshabin qalbini larzaga soladi, hayajonlantiradi, biro lam unitilmas estetik ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘pincha, qahramonlik ruhi bilan omuxta bo‘lib keluvchi fojia ruhi hayajonlantiruvchi kuchi, ta’siri bilan turmushning xunik va yovuz ko‘rinishlaridan uzoq yurishga, unday xollarga qarshi beomon kurshga undaydi, ulug‘vorlikka chorlaydi. San’atkorona ko‘rsatilgan bunday holatlarni ko‘zdan kechirgan qalbidan xis etgan tomoshabin va kitobxon o‘zini avvalgidan bardamlashgan, ma’naviy kuchi oshgan, yangi kurashlarga chog‘langan his etadi. Tragedyaning terbiyaviy-ta’limiy kuchi, illat va yovuzliklardan qalblarni forig‘etuvchi, fojiaviy larzaga solib ta’sir o‘tgazuvchi estetik qudrati xuddi shundadir.

Bu janr namunasida, avvalo tragic g‘oya yotishi zarur. U yuksak badiiylik bilan yaxlitlikda namoyon bo‘lishi kerak. Unda g‘oya chinakkam fojiaviy ruh darajasiga ko‘tarilishi shart. Bunga tragic kolliziyaning murakkab tus olishi orqali erishiladi. O‘z navbatida, tragic g‘oya qirralarini ifodalovchi harakterlarning murakkab qismatida faqat uning yakka o‘zigagina, uning sha’niga, manfaatiga

tegishli mohiyat mavjud bo'lolmaydi. Aksincha, tragic qahramonlarga qarshi turgan kuch yoki kuchlar uning o'zidan ham boshqalarga – oila manfaatlariga, jamiyat aloqalariga, el-yurt oldidagi burchga bir so'z bilan aytganda, ko'pchilikka, uning manfaatlariga dahldor bo'ladi. Ana shunday manfaatlar birlashgan, yechish, xal etish mushkul nuqtada turgan xarakter kurashida mardonavor turib, ikkilanish azoblarini bosib o'tadi va muayyan hayotiy ne'matlardan mahrum bo'ladi, baxtsizlikka yo'liqadi yoki o'zi jisman halok bo'ladi. Uning shunday fojiaiy, o'zidan boshqalar uchun ham naflī kurash jarayonlarida chekkan azob-uqubatlariga, iztiroblari, kurash alamlari kitobxonni estetik tug'yonga soladi. mana shunday qamrovga, tragic holatga molik bo'lgan hayot ko'rinishlarigina tragedyaning mavzuyi va mazmuni doirasini belgilaydi. Aks holda tragedia uchun maydon zohir bo'lishini tasavvur etish qiyin. “Jaloliddin Manguberdi”dagi material mohiyati, harakter va kollizyaning fojiaiy tabilatiga, butun asar harakatidan tragic g'oyaning sizib o'tishi uni tragedia deyishga to'la asos beradi.

Ikkinchi jahon urushi davrida yetakchi o'zbek shoirlari va shu jumladan Maqsud Shayxzoda ham xalqimizning qahramonona tarixiy kechmishi mavzuiga murojat qiladi. 1944-yilda uning “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy fojiasini yaratilib, Hamza nomidagi Davlat akademik drama teatrida sahnalashtiriladi. Bu drama haqida vaqtli matbuotda qator taqrizlar e'lon qilinadi. Bu taqrizlarda pyesaning zamonning muhim ma'naviy ehtiyojlari bilan hamohang ekanligi takidlanadi.

Oybek va G'afur G'ulom “Jaloliddin Manguberdi” dramasi haqida (“Qizil O'zbekiston” gazetasi, 1945-yil, 18-fevral) pyesa haqida asosan, ijobiy fikrlar bayon qilingan. Oybek va G'. G'ulom o'z taqrizlarida pyesaning bosh qahramoni Jaloliddin haqida shunday deb yozadilar: “Bu umumiy to'zg'unlik va dahshatli falokat zamonlarida Jaloliddin xalq, vatan, erk bayroqdori kabi qasos qilichini ko'tardi. Muhammad Alovuddinning bu o'g'li, haqiqatan, ajoyib yigit edi. Tabiat unga o'tkaq zir aql, olijanob, mardona yurak va jo'shqin g'ayrat kasb etgan edi.

Mo'g'ul bosqinchilarini, manfur talonchilarni yurtdan quvmoq uchun

Jaloliddin tarqoq qo'shinlardan, ona-Vatan uchun kurashga otlangan xalq ommasi kuchlaridan bir musht yasashga bel bog'laydi. Hamisha bahodirning yostig'i tosh, jangovar oti yo'ldosh bo'ladi. U baloxo'r dushmani bosadi, chekinadi ham, uradi, uriladi ham. Lekin mo'g'ullar bilan kurashda o'z harbiy nomusi va sharafiga bir tomchi dog' yuqtirmaydi also. Uning aqliga, sohibi tadbirligiga, mardonavor ishlariga, shaytoniy takabburlik cho'qqisiga mingan Chingizxonning o'zi ham tan beradi".

Jaloliddin kim? Uning o'tmishida yurt erkinligi uchun olib borilgan kurashlardagi ro'li va o'rni nimadan iborat? Nima uchun Maqsud Shayxzoda o'zining ilk dramatik asarini yaratar ekan, xuddi Jaloliddin mavzuiga murojaat qildi, degan savollarga mazkur fikrlardan to'la-to'kis javob olish mumkin.

1218-yilda O'rta Osiyo xalqlarining hayoti tahlika ostida qoldi. Sharqdan Chingizxon (1152-1227) qo'shinlari balo-qazodek yurt ustiga yopirilib kela boshladi. Ammo o'sha davrdagi sharq feodal monarxiyalari ichida ulkan saltanat hukmdori Xorazmshoh Sulton Muhammad Aloviddin amir va beklarning so'ziga kirib, o'z kuchlarini birlashtirib, yovga zarba berish o'rniga, ko'p sonli qo'shinlarini mamlakatning turli qal'alariga bo'lib yuboradi. Iste'dodli sarkarda va bag'oyat dovyurak o'g'li Jaloliddinni qo'shinga qo'mondon qilib tayinlash o'rniga, onasi Turkan Xotun va tog'alari bo'lmish qipchoq beklarining tazyiqi ostida uni valiahdlikdan mahrum etadi. O'zi esa qo'rqqoqlik qilib, o'z jonini avaylab, muttasil chekinib boradi. Natijada, juda katta bir mamlakatda parokandalik yuz beradi, xalq kimga itoat etishini va nima ish qilish kerakligini bilmay sarosimaga tushib qoladi. Bunday parokandalik va besaranjomlikdan foydalangan mo'g'ul istilochilari birin-ketin mamlakatning O'tror, Samarqand, Buxoro va Urganch kabi yirik shaharlarini zabt etib, xalqni qilichdan o'tkazib, el-yurtning kulini ko'kka sovura boshladilar.

Xorazmshohning qo'rqqoqligi va qipchoq amirlarining xoinligidan g'azablangan oddiy xalq, garchand, uyushmagan tarzda bo'lsada, mo'g'ullarga qarshi o'z ozodligi uchun kurashga otlandi. Otasining uqusizligi va saroy a'yonlarining sotqinligi bilan Jaloliddin dovyurak Temur Malik kabi sarkardalarini

o'z atrofiga to'plab, Chingiz qo'shinlariga qarshi kurashga o'tlanadi va birin-ketin dushmanga zarba bera boshlaydi. Jaloliddinning jiddiy dushman ekanligini tan olgan Chingizxon 1221-yil, 24-noyabrda Sind daryosi bo'yida bo'lgan jangga asosiy kuchini tashladi. Jangni bevosita o'zi boshqarib turdi. Bir necha kun davom etgan bu jangda Jaloliddinning qo'li baland kela boshladi. Mana shunday mas'uliyatli bir paytda afg'on amirlari arzimagan sabab bilan arazlab, janggohni tashlab ketadilar. Bundan foydalangan Chingiz shiddatli hujumga o'tadi. Jaloliddin yengilishini aniq sezgach, mo'g'ullarga asir bo'lgandan ko'ra erkin o'lim topgan afzal deya onasi, xotinlari va singlisi Sultonbegimni Sind daryosiga g'arq qildi. O'zi esa oti bilan tik qoyadan daryoga tashlab, narigi qirg'oqqa suzib o'tdi. Uning ketidan 4 mingdan ortiq sodiq sipohilari ham daryodan o'tib, Jaloliddinga qo'shilishdi. Shundan keyin Jaloliddin asosan oddiy xalqdan qayta-qayta kuch to'plab, mo'g'ul bosqinchilariga bir necha bor jiddiy zarbalar berdi. Lekin feodal tarqoqligi, o'zi qilgan jiddiy xatolar natijasida, o'z kurashini markaziy bir nuqta atrofiga jipslashtirishga muvaffaq bo'lolmadi. 1231-yilda ov paytida Kurdiston tog'larida fojiona halok bo'ldi. Jaloliddinning shahzodaligi, kurashining maqsadi va xarakteri ayrim xatolardan qat'iy nazar, harqalay, uning kurashda O'rta Osiyo xalqlarining erksevar ruhi, yurt mustaqilligiga tahdid solib, elni qullik zanjiriga band etishga intilgan mo'g'ul bosqinchilariga qarshi cheksiz g'azab-nafrati o'z ifodasini topdi. Xuddi shuning uchun ham xalqimizning yorqin qahramonlik sahifalaridan biri bo'lmish mazkur tarixiy voqealarni Maqsud Shayxzoda o'z dramasi uchun asosiy material sifatida tanladi.

Asar uchun mavzu bo'lgan davr voqealari nihoyatda murakkab, og'ir va ziddiyatlilik bilan ajralib turadi. Bunday ahvol bugun o'lka boshiga og'ir musibat, g'am, jabru-javo va fojia tushganligi bilan izohlanadi.

Fojiada ko'pchilik markaziy personajlar – Jaloliddin, Xorazmshoh, Sulton Muhammad Aloviddin, uning qizi malika Sultonbegim, iste'dodli sarkarda va mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashlarning mashhur xalq qahramoni Temur Malik, Samarqand hokimi amir Badriddin, mashhur tarixchi Muhammad Nasafiy,

davrining taraqqiyparvar ulamosi Shahobiddin Xivaqiy, Chingizxon, Xutuxu No'yon real tarixiy shaxslar bo'lganidek, Elbors pahlavon, vazirlar, Yarog'bek va bir necha saroy a'yonlari kabi to'qima obrazlar ham mavjud.

Lekin fojiada muallif, tarixiy voqea va sarguzashtlarning quruq hamda sidirg'a ta'rif-tavsifi bilan cheklanib qolmagan. U o'zi qalamga olgan tarixiy davrning chuqur mohiyatini ochish, xarakter va hodisalarning ijtimoiy-falsafiy umumlashmasini ifodalashda katta san'atkorlik bilan ish tutgan. Bu holat asarning bosh qismida Chingiz ofatini daf qilish masalasida bir tomondan Xorazmshoh, amir Badriddin va vazirlar, ikkinchi tomondan Jaloliddin, tarixchi Nasafiy va imom Shahobiddinlar orasida sodir bo'luvchi keskin munozaradayoq ko'zga tashlanadi.

Samarqand. Sulton b e g i n n i n g amir Badriddin bilan nikoh to'yi marosimi. Bazm avjida. Shu payt Chingiz elchilari kelib dag'allik bilan itoat talab qiladilar. Bundan joni halqumiga kelgan, o'zining qudratidan mag'rur Xorazmshoh ularni qo'pollik bilan haydab, deydi:

Qulasa qal'amda birgina devor

Ostida ming chingiz bo'lar xokisor

Jaloliddin otasining bunday yengiltaklik bilan qilgan muomalasidan ranjib va tashvishlanib:

Bag'oyat zo'ravon g'animdir Chingiz,

Bunga ko'z yummayin rostin bilingiz.

Dedingiz: qulasa qal'amda devor

Ostida chingizlar bo'lur tor-mor

Lekin u yotmaydi devor ostiga

Yo'q qilib chiqadi qal'a ustiga

Sirdaryo bo'yida bor kuchingizni

Musht qilib qaytaring qonli Chingizni!

-degan jiddiy mulohazada bayon qiladi.

Besh pardali bu drama 1217-1224-yillar oralig'ida bo'lib o'tgan tarixiy voqealarni o'z ichiga oladi. Asosiy qatnashuvchilari 12 kishini tashkil etgan

(Muhammad Xorazmshoh, Jaloliddin, uning singlisi Sultonbegim, Temur Malik, Chingizxon, Amir Badriddin, Elbars Pahlavon, Muhammad Nasafiy, Ona, Imom Shahobiddin Xivaqiy, Yaroqbek, Qedeg'on No'yon) bu asarda shoir o'sha davrning haqqoniy manzarasini aks ettirishga muvaffaq bo'lgan.

Asarning butun syujeti uchun kalit bo'lgan shu fikrlardayoq Jaloliddinning mulohazalari mamlakat taqdiri haqida umumxalq kayfiyatining ifodasidek tuyuladi. Lekin Jaloliddinning mulohazasi shoh va uning a'yonlariga yoqmaydi. Ular Jaloliddinni taxt tamasida ish tutmoqda degan ig'vo bilan (amir Badriddin) valiahdlikdan mahrum etishga muvaffaq bo'ladilar. Asar voqeasidagi jiddiy va fojiona hodisalar mana shunday yuzaga keladi. Jaloliddin obraziga xos mardlik, el qayg'usi, tadbirkorlik, sarkardalik iste'dodi va yurt daxlsizligini muqaddas deb bilish fazilatlari ham xuddi mazkur voqealar boshlanmasida namoyon bo'lib, drama syujetining rivoji davomida u poyama-poya kamolotga erisha boradi.

Jaloliddin zamonadagi voqealarni chuqur o'ylovchi siyosiy va harbiy arbob sifatida fikr yuritadi. U otasining uni valiahdlikdan mahrum etish haqidagi qaroridan zarracha afsuslanmaydi:

Kishi tug'ilmaydi boshda toj bilan,
Tug'ilar erklikka ehtiyoj bilan....
El-o'lka sog' bo'lsin, toj kelib-ketar...
Odamlar o'ylarki bo'lmasa tojim,
Qalandar bo'lurman, qolmas ilojim.

Jaloliddin taxtga egalik qilish uchun emas, balki, saltanat butunligi, el osoyishtaligi uchun kurashadi. Jaloliddin va uning safdoshlari yovni yanchishga, vatan tuprog'ini xalos etishga jahd-u jadal qiladilar, janglarda ko'p fidokorlik ko'rsatadilar. Ammo Chingizxon qo'shinlarining ko'pchiligi va uyushqoqligi, Jaloliddin qo'l ostidagi amir va beklarning itoatsizligi, amir Badriddin kabi xoinlarning sotqinligi natijasida Temur Malik kabi pahlavon sardorlar mo'g'ullar qo'lga asir tushibqoladi. So'nggi jang mo'g'ullar foydasiga hal bo'ladi. Ammo bu og'ir damlarda Jaloliddin sarosima va tahlikaga tushib, esankirab qolmaydi.

Yashash va yovdan qasos olish ishtiyoqi uning qalbida ustivor. Shuning uchun u:

Yo'q... qasosni oliy deya yashamoq kerak!-

degan umid bilan o'z-o'ziga dalda beradi. Asar voqeasining ham avj nuqtasi, ham xotimasi bo'lgan bu ko'rinishda muallifning Jaloliddin obraziga yuklagan niyati va g'oyaviy-badiiy muddoasi ham o'zining haddi a'losiga ko'tariladi. G'urbat ixtiyor qilishdan o'zga chorasi qolmagan Jaloliddin yurtga qaytish umidini sira uzmaydi. Qalbida jo'sh urayotgan tug'yonli hislar uning so'nggi monologida yaxshi ifodalanadi:

G'urbatlarga yo'l olmoq ulug' musibat

G'urbatda ham armondir: Vatanga xizmat!

Bir bo'lsaydi saltanat, el-urug'lar bir,

Dahshat sohib bo'lardik jangda olamgir.

Mangulikdan joy olgan –yashar abadiy,

Men-ku mangu berdiman, olam biladi.

Ko'klardanmi, suvdanmi, yo yer tagidan,

Balki sahro bag'ridan, tog' etagidan.

Bir kun paydo bo'laman shu yurt, shu yerda,

Yurt shaydosi ko'milmas g'urbatda, go'rda.

Ulug'vor niyatlarga kor qilmas ajal

Kim yurtdan yovni quvsa- mendurman o'shal !

Bu so'zlarda Jaloliddin xarakteriga xos bo'lgan mardlik va el-yurtga sadoqat ro'yirost bo'rtib turibdi. Jaloliddin obrazini mardlik va sadoqat timsoli sifatida tasavvur etgan Maqsud Shayxzoda, el-yurt daxlsizligi uchun kurashgan, o'z jasorati bilan bilan o'zgalarni kurashga ilhomlantirgan odam xalq xotirasida mangu yashaydi, degan g'oyani ilgari suradi. Jaloliddin obrazini ulug'vorlik va chin insoniylik xislatlarini kitobxon tasavvurida yaqqol jonlantiradi.

Jaloliddin Manguberdi Chingizxonga qarshi kurashda sadoqatli sarkardasi Temur Malik, el polvoni Elbors (to‘qima obraz), singlisi dovyurak malika Sultonbegim, Imom Shahobiddin Xivaqiy va va umuman, bahodir sadoqatli sipohlarga tayanib ish tutadi. Shuning uchun ham olamga dahshat solgan Chingizxonning yuragiga g‘ulg‘ula soladi. Asarda muallif Sultonbegim, Temur Malik, Elbors polvon kabi personojlar faoliyatining realistik tasvirini chizish orqali Jaloliddin obraziga xos mardlik, el-yurtga sadoqat xislatlarini yanada ravshanlashtiradi, obrazni qiyomiga yetkazadi.

Sultonbegim ham xuddi og‘asi Jaloliddin kabi, tarixiy shaxsning qayta ishlanib, umumlashma darajasiga ko‘tarilgan badiiy portretidan iborat.

Sultonbegim jasoratli, irodali, yurtga benihoya sodiq qiz. U saroy muhitida tarbiya olgan bo‘lishiga qaramay, aysh-ishrat, zebu ziynat shaydosi emas. Yurt boshiga og‘ir kun tushganda har qanday orzu-havasdan ko‘ra erkinlikni afzal, ona yer tuprog‘ini muqaddas deb biladi. Samarqanddan qo‘rqoqlik va xoinlik bilan qochib kelgan eri amir Badriddin sovg‘a qilgan qimmatbaho uzukni rad etib, ta’na qiladi:

Samarqand siynamni ilk ochgan shahar,
Sevgimni qutladi u yerda sahar.
Oh, eri yarasin silab bog‘lagan,
Baxtli kelinlarga hasad qilaman.
Oh, koshki shunchalar ziynatdan ko‘ra,
Keltirsang u yerdan bitta bitta g‘isht parcha!
Ne kerak Samarqand la’lu tillasi?!
Rahmat derdim bo‘lsa mo‘g‘ul kallasi!

Murakkab voqealar jarayonida Sultonbegim obrazining dinamikasi, xilma-xil sifatlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Asarning so‘ngi pardasida Badridriddinning sotqinligi fosh etilgach, sultonbegim qalbidagi sevgi hislaridan yurtga muhabbat va sadoqat tuyg‘ulari ustun keladi. Iztirobli Sultonbegim og‘asiga g‘azab bilan xitob qiladi.

U ishqdan aynidi, aynidim undan,
Uning yuzin unutdim men o'sha kunda!
Qalbaki bir toj uchun toptaldi ko'nglim,
Shu xo'rlangan sevgi der: xoinga o'im!

Shu yo'sin Sultonbegim ham og'asi Jaloliddin bilan yelkama-yelka turib
bosqinchilarga qarshi kurashadi.

Asardagi Temur Malik obrazi ham eng baquvvat obrazlardan biri.

Dramada Temur Maalik faoliyatini ifodalovchi tarixiy voqealarning asosiy
chizig'i saqlangan holda, asar uning shaxsiy fazilatlariga mos xarakter belgilari
bilan to'ldirilgan. Kitobxon va tomoshabin nazarida Temur Malik el-yurtga sodiq,
jasur va dovyurak xalq qahramoni sifatida namoyon bo'ladi. Temur Malik
xarakteridagi yuksak bashariy fazilatlar – jasorat, dushmanlarga cheksiz nafrat va
bulilmas iroda uni Chingizxon asirligidagi xatti-xarakatlari tasvirida qiyomiga
yetadi. Chingizxon uni katta vadaalar evaziga o'z xizmatiga o'tishga davat etadi.
Ammo Temur Malik:

... Yurtimga navkarlik- ulug'vorlikdir!
Qal'amda erk tug'i chin tug'dorlikdir!
Vatanga qulchilik – shohona mansab,
... Sharafdan ko'z yumib topilgan najot
O'g'ridan sadaqa olishday uyat!-

deya mardona halok bo'ladi. O'z jasorati bilan xalq qalbida qaynoq muhabbat,
bosqinchilarga nisbatan o'tli nafrat qo'zg'aydi.

Jaloliddinning mardligiga hatto uning ashaddiy dushmani Chingizxon ham
tan beradi:

U garchi dushmandir, ammo ulug' yov
Agar u qo'limga tushsa beayov
Yorib ko'kragini, ichardim xunun
So'ngra... Tiz cho'kardim oldiga uning !

U Jaloliddindek o'g'li bo'lishini orzu qilib, Xorazmshohning ahmoqona qilig'iga

kuladi:

Ko'p ham taajjubdir dunyoning ishi:
Yaxshi in'om olar noloyiq kishi,
Xorazmshoh uchun shunday bir farzand,
Otasi ne anglar, ne bo'lar xursand
Oh, koshki to'rt o'g'il o'rniga falak-
Menga birin bersa Jaloliddindek.

O'rta Osiyo xalqlari boshiga mislsiz ofat yog'dirib, mamlakatni xarobazorga aylantirgan vahshiy Chingizxonning manfur obrazi dramada katta ustalik bilan yaratilgan. Har qanday madaniy taraqqiyotning ashaddiy dushmani bo'lgan "general vahshiy" Chingizxon mo'g'ul otining tuyog'i tekkan el va ulusni vayron qildi. Xalq orasida Chingiz haqida:

Bo'ji keldi, bo'ji keldi,
Chingiz bilan Jo'ji keldi. –

kabi bosqinchilarning jirkanch qiyofasini ifodalovchi maqollar yaratildi.

Dramada tasvirlangan Chingizxon oobrazida ana shu tarixiy haqiqat umumlashmadarajasiga ko'tarilgan bo'lib, uning tashqi qiyofasi va ma'naviy dunyosi aniq, o'ziga xos xatti-xarakatlar vositasida yaqqol chizilgan.

Chingizxonning quyidagi so'zlarida "general vahshiy"ning ma'naviy olami, maqsadi va insoniyatga munosabati "mana men" deb ko'rinib turibdi:

Falaklar yozganday bo'ldim olamgir,
Odamzod tug'ilgan bo'lay deb asir.
Oyog'im tagida qadimgi tojlar,
O'lka ham uluslar, to'lar bojlar.
Meni jallod deydi olam barisi,
Xatodir, men o'izm o'lim tangrisi.
Adolat yo insof? Nima degan u?!
Tupurdim bularga, ming karra tfu!
Ranglarda – shirin rang – rangi xunniydur,

Kim nola tinglasa, uniki huzur,
Birdan o'ldirmasam deyman kishini,
Darhol bitirmasam san'at ishini;
Dastavval kessamu, olmasam jonin,
Menga yolvorsayu, men ichsam qonin,
Qo'limda ingrasa, endi men bo'g'sam,
O'lmasdan burunroq otashda yoqsam,
Va so'ngra kullarin olib hidlasam,
Ana kayfu, lazzat, ana baxtli dam!

Ha bu yovuz odam nazarida insoniy his-tuyg'ular, olijanobliklar va bashariy fazilatlarning sariq chaqalik qadri yo'q.

Shu holatni alohida qayd qilib o'tmoq zarurki, Maqsud Shayxzoda yaratgan Chingizxonning manfur obrazi davr uchun faqat tarix sadosigina bo'lib qolmay, u chuqur zamonaviy mazmun kasb etadi, ya'ni Chingizxon odamxo'r Gitlarning sahna orqali namoyish qilingan "katta bobosi"ning kechmish tarix tusiga bo'yalgan manfur surati tarzida namoyon bo'lishi, bir-biriga "egizak" bu ikki "jahonshumul jallodlar" qiyofasi fashizm vabosiga qarshi muqaddas kurashga otlangan xalqimiz qalbida vahshiy bosqinchilarga qarshi muqaddas kurashga otlangan xalqimiz qalbida vahshiy bosqinchilarga nisbatan g'azab-nafrat olovini yanada alanga oldiradi.

Umuman, Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" tarixiy pesasi o'zining mazmuni va g'oyaviy mundarijasi, romantik – qahramonlik xarakteri, yurtsevarlik va insonparvarlik belgilari tufayli davr talablari, zamona ehtiyojlari bilan to'la hamohang bo'ldi.

Fojiadagi voqealarning mazmuni va g'oyaviy yo'nalishidan ravshanki, Chingizxon o'rta asr feodal tuzumi tug'dirgan dahshatli va yovuz hokimi mutlaqning mukammal timsoli sifatida gavdalansa, Muhammad Aloviddin Xorazmshoh irodasiz, qo'rqqoq, toju-taxtdan o'zga tashvishi bo'lmagan tipik feodal hukmdori; kuyovi Badriddin esa, taxt tamaida yurgan yurt, imon, e'tiqod va hatto

sevgisini ham qurbon qilgan bevatan sotqinning qiyomiga yetkazilgan obrazi tariqasida namoyon bo‘ladi. Umuman, asardagi salbiy obrazlar pishiq ishlangan bo‘lib, ular kitobxon va tomoshabin qalbida g‘zab, nafrat hislarini qo‘zg‘aydi.

Asrning tili, ayrim nuqsonlaridan qat’iy nazar, (ba’zi so‘zlarni noo‘rin qo‘llash, bevosita ehtiyoj bo‘lmagani holda arab va fors iboralarini ishlatish, goho qofiyalarda sohtalik) muvaffaqiyatli chiqqan. Muallif har bir personajni jamiyatdagi mavqe va tushunchasiga moslab tipiklashtiradi, ularning so‘zlaridan fikr va intilishlaridan ochiq anglashilib turiladi. Asar tilining yana bir fazilati shudaki, ko‘pchilik holda yetakchi obrazlar gapirilar ekan, ularning fikr va mulohazalarida bevosita jonli xalq tilidan olingan iboralar, shuningdek, qalamga olingan davrning so‘zlashuv uslubiga xos jonli til xususiyatlari bir-biriga uyg‘unlashtirilib, singdirib yuboriladi, ayrim misralarga joylangan fikrlar chuqur falsafiy mazmun kasb etadi. Mana bir necha misol:

”Birobning davlatin olarkan xudo,

Dastavval aqlidan qilarkan judo”.

”Kishi tug‘ilmaydi boshida toj bilan,

Tug‘ilar erklikka ehtiyoj bilan.”

”Ulug‘davlat tiz cho‘kmas, botir yolvormas,

Chinor sinar egilmas, bedov ot horimas!”

”Onamizning onasi bo‘lsa shu Vatan,

Ko‘rlik afzal bu yurtni asir ko‘rmoqdan!”

Shunday qilib, o‘zbek xalqining mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi olib borgan ozodlik kurashi tarixini aks ettirgan bu sahna asari, gitlerchi bosqinchilarga qarshi kurashga qo‘zg‘algan xalqni vatanparvarlik, yovga qarshi nafrat va bahodirlik ruhida tarbiyalashda, muqaddas savashga safarbar qilishda muhim tarbiyaviy va tarixiy-ma’naviy rol o‘ynaydi.

Ammo muallif asarning ayrim o‘rinlarida Jaloliddinning tarixdagi o‘rni va

xizmatlarini birmuncha bo‘rttirib yuborgan. Chingizxonga qarshi ozodlik kurashining yetakchi kuchi bo‘lgan mehnatkash xalq ommasining roli ba’zan roli ba’zan Jaloliddin obrazining soyasida qolib ketadi.

Biroq bu nuqssonlarga qaramay, ”Jaloliddin Manguberdi” asarining dunyoga kelishi Maqsud Shayxzodaning ijodiy takomilida yangi bosqich bo‘ldi. Shu ma’noda aytish mumkinki, ”Jaloliddin Manguberdi” Ulug‘ Vatan urushi davri o‘zbek dramaturgiyasida ma’lum mavqeni ishg‘ol etdi. ”Jaloliddin” – deb yozgan edilar Oybek va G‘afur G‘ulom yuqorida ko‘rib o‘tilgan maqolalarida, - o‘sayotgan o‘zbek dramaturgiyasida shubhasiz hodisadir. O‘zining fikriy va badiiy to‘laqonliligi, yuksakligi jihatidan ”Jaloliddin” bizning dramaturgiyamizda yuqori poyani ishg‘ol etadi... Ko‘pdan beri uzun umrli fikriy va badiiy salmoqdor sahna asarlarini orzu qilar edik. ”Jaloliddin” bu orzumizga javob berishga qodir”.

Ha, ”Jaloliddin Manguberdi” tom ma’nosi bilan umrzoq sahna asari sifatida o‘zbek drama san’ati xazinasidan munosib o‘rin egallaydi.

Dramani o‘qib chiqar ekanmiz,biz bu vatanparvar,doviyurak,shijoatli,zukko insonni chin yurakdan sevib qolamiz- uning siymosida tariximizning yorqin sahifalaridan birini o‘qiymiz.

3.2 Mustaqillik davri o‘zbek dramaturgiyasida Jaloliddin Manguberdi obrazining yangicha talqini.

Jaloliddin Manguberdi mavzusi- Erkin Samandar ijodining asosiy yo‘nalishlaridan biri. Uning ” Ajdodlar qilichi” ilk dramasi 1985-yilda Ogahiy nomidagi Xorazm teatrida sahnalashtirildi. Keyin kitob shaklida nashr etildi. Ilk bor u Jaloliddin nomini ” Xorazm farzandiman” she’rida tilga olgan bo‘lsa, keyinchalik ” Olis nidolar”, ” Ona va o‘g‘il ” balladalarida uning obrazini shakllantirishga harakat qildi. Shundan keyin yirikroq nasriy asar ustida ish boshlab,oradan qariyb o‘n yil o‘tgach, ikkinchi drama – ” Yot hujra” asarini yaratadi.Ko‘ryabsizki,adib goh u janrda, goh bu janrda Jaloliddin mavzusida qalam tebratib kelmoqda.Biz uning ”Ajdodlar qilichi” dramasi haqida to‘xtalamiz.

Asarning bevosita tahliliga o'tishdan oldin Jaloliddin va u yashagan davr haqida ayrim fikrlarni aytib o'tish zarur. Xorazm eli o'sha yillarda dunyoning eng go'zal va obod,boy go'shalaridan biri bo'lgan. Ba'zi bir manbalarda qayd qilinganidek,bu diyor bamisoli inson intilib yashaydigan ilohiy jannatning yerdagi bir ko'rinishidek edi. Ko'lami jihatdan ham Xorazm o'sha davrning eng yirik mamlakatlaridan hisoblanardi. Uning sarhadlari sharqda Xitoydan boshlanib,g'arbda Bag'dodgacha borardi. Janubdagi hozirgi Hindistonning bir qismini egallagan, shimol tomondan Rossiya yerlari bilan tutash edi. Iqtisodiy mavqeyiga ko'ra Sharqning baquvvat mamlakatlaridan sanalardi. Shunga monand ilm-fan va madaniyatning taraqqiyoti jihatdan ham qudratli mamlakatlardan biri bo'lganligi tarixdan ma'lum.Tabiiy, o'rta asrning boshlarida qudratli boy hududga aylangan bu mamlakatning shakllanishi bir yoki ikkiasr yoxud ikki-uch avlod ishi emasdi. Ikki daryoning quyi oqimida joylashgan bu taraqqiyot markazining shakllanishi bir necha asrlar va ko'pgina avlodlar sa'y-harakati,mislsiz mehnatkash xalq chidam va bardoshining natijasi edi.

XIII asrning boshlarida Xorazm taraqqiyot yo'lida to'lib-toshib borayotgan bir paytda sharq tomondan olamga dahshat solib qora quyun bostirib kela boshladi. Bu quyunning nomi Chingizxon edi. Tarixiy manbalarga qaraganda,Chingizxon o'ta ayyor ,o'z maqsadiga erishish yo'lida har xil hiyla-yu nayranglarni ishlatishdan qaytmaydigan o'ta xudbin shaxs edi. U XII asr oxirlari-XIII asr boshlarida Mo'g'ul va Sibir yerlaridagi qabilalarni zabt etib qo'lga kiritgan yer va mulklariga qanoat qilmasdan,Sharq tomonga ochofatlarcha yurish boshlaydi. Inson sha'niga to'g'ri kelmaydigan nomardliklar ham uning uchun ayb hisoblanmasdi. Avvaliga,mug'ombirlik yo'lini tutib,yaxshi niyat bilan kelayotganidan darak beradi.Xorazm boshida turgan rahbarlar ham Chingiz o'ylagandek sodda odamlar emasdi. Bosqinchining hiyla-yu nayranglarini yaxshi bilar edilar.Erkin Samandarning " Ajdodlar qilichi" dramasida vaziyatning bu tomonlari ham chetda qolmagan.

Shu o'rinda masalaning boshqa tomoni ham bor. Mamlakatlar orasidagi taqdir

sinovlari shaxmat o'yinini eslatadi. Yo'l qo'yilgan arzimagan bir xato yoki donalarning kerak o'rinda joylashmasligi oqibatida o'yinchi yutuqni boy berib qo'yishi hech gap emasdir. Dramalarda ko'rsatilgandek, Alouddin Xorazmshoh saroyidagi ayrim kamchiliklar, kelishmovchiliklar, ba'zi bir mulozimlar yo'l qo'ygan o'zboshimchaliklar Chingizga yo'l ochib beradi. Buning ustiga, dramada talqin qilinganidek, Alouddinning biroz keksayib qolib, muvozanatni saqlashda yo'l qo'ygan xatolari ziyrak dushmanning makr ishlatish imkoniyatini yanada oshiradi.

” 450 qal'a har biri o'zini o'zi himoya qilsin” degan tamoilning o'rtaga qo'yilishi saroy ahli ichida ancha yosh ko'ringan, biroq ziyraklik, aqli rasolik, harbiy ish sirlarini bilish bobida to'liq bilimga ega bo'lgan shahzoda Jaloliddin Manguberdi mulohazalarining inobatga olinmasligi ” shaxmat taxtasi” uzra Xorazmshoh yo'l qo'ygan eng yirik xato bo'ldi. Voqealar rivojiga xronologik ravishda qaraganda, Chingiz va Xorazm orasidagi, binobarin, ” Ajdodlar qilichi” dramasiidagi fojining boshlanish nuqtasi shu edi. Biroq, dramaturg voqealar tizimini tomoshabin didiga moslashtirish maqsadida o'zgacharoq yo'l tanlaydi. Asarga muqaddima tarzida Chingiz bilan bo'lgan janglarning eng mas'uliyatli pallasini oladi. Tarixdan ma'lum voqealarni kuzatar ekansiz, Jaloliddin ofatdek bostirib kelgan dushmanga nisbatan 14 marta shiddatli jangga kiradi. U jang sirlarini shu darajada yaxshi bilar ediki, ularning 13 tasida g'alaba qozongan. Faqat bir martagina mag'lubiyatga uchragan. Drama o'sha mag'lubiyat keltirgan jang tasviri bilan boshlanadi. Tasvir ham xiyla jonli: uzoq davom etgan shafqatsiz jang taqdiri dushman foydasiga hal bo'layotgan mash'um kunlar. Yerda siniq qilichlar, dubulg'alar, qalqonlar sochilib yotibdi, ko'kda hamon burqsib turgan qora tutunlar izi. Yondirilgan uylar, yakson etilgan istehkomlar, otlarning zorli kishnashlari, yaradorlarning og'ir ingrashlari, xotinlar va bolalarning faryodlari. Mana o'sha jang oqibatidagi manzara. Asarning asl mazmuni birinchi pardada tasvirlangan Xorazmshoh saroyidan boshlanadi. Dramaning shu bosh qismidayoq mazmunning asl yo'nalishini anglab olish qiyin emas.

Ma'lumki, dramatik asarga janr e'tibori jihatdan konfliktning o'ta ziddiyatli

ravishda ro'y berishi va voqealarning tez sur'atlar bilan rivojlanishi xarakterlidir. Asarga xos bu xususiyat birinchi pardadan, ya'ni Xorazmshoh saroyidagi mashvaratdan boshlanadi. Dramaturg 200 yildan ko'proq vaqt davomida zafarlar quchib kelgan qudratli imperiya tanazzul tomon yo'l tutganiga ishora qiladi bu mashvarat tasvirida.

Gap shundaki, bir tomondan qora quyunday bo'lib ko'p sonli Chingiz lashkari bosib kelyapti. Mashvaratning diqqat markazida turgan masala-bu ulug' saltanatni yopirilib kelayotgan dushmandan qanday qilib saqlab qolish yo'llarini izlashdan iborat. Mana shu yo'lni izlash jarayonining boshlanishidayoq saroy ahli orasida murosaga kelish qiyin bo'lgan ziddiyat ko'zga tashlanadi. Asarda tasvirlanayotgan qator obrazlarning xarakter hislatlari kitobxon va tomoshabin ko'z oldida ochiq-oydin namoyon bo'la boshlaydi. Ziddiyatning asosiy yo'nalishi bir masalaga borib bog'lanadi. Mashvarat qatnashchilarining mamlakatni dushmandan saqlab qolish masalasi yuzasidan qarashlari bir-biriga zid kelib, ikki tomonga ajraladilar. Bir tomonda Xorazmshohning navqiron, biroq aql va idrokda o'z yoshiga nisbatan ancha yetuk to'ng'ich o'g'li Jaloliddin turadi. Uning fikri va zikri ravshan: 500 ming lashkarga ega bo'lgan kuchni jamuljam qilib, dushman ustiga o'tlanish, hali yov mamlakatning markaziy nuqtalariga yetib kelmasdan turib uni tor-mor qilish. Mashvaratda bu fikrni qo'llab-quvvatlaydiganlar ham bor edi, albatta. Mamlakat taqdiriga bag'ishlangan bu yig'ilishda ikkinchi taklif o'rta tashlanadi. Bu taklifning asosiy tashabbuskori Xorazmshohning mamlakatni boshqarishda ko'pgina haq-huquqlarini o'z qo'lga olgan onasi, ya'ni Jaloliddinning buvisi Turkon xotun. U qat'iyatlik bilan taklif qiladi: Xorazm eli 450 qal'adan iborat. Ulardan har birida mustahkam istehkom va kuch bor, qudrat bor. Hokimlar shu kuch-qudratni ishga solsinlaru, dushmanga qarshi e'lon qilsinlar. Bu taklifning mantiqi shunday ediki, uzluksiz janglar bo'lar, janglarda dushman holdan toyar-mag'lubiyatga uchrar. Taklifning negizida valiahdlikka tayinlangan Jaloliddinga qarshi g'araz tuyg'ulari, Jaloliddinning ukasi, urug'-aymoqlik jihatdan Turkon xotunga yaqin Qutbiddin O'zloqshohni valiahd qilib tiklash manfaati

turardi. Ziddiyat dramada keskin tasvirlanadi va masalaning qanday hal bo'lishi kitobxon va tomoshabinni o'yantiradigan tarzda bitiladi. Shoh onasi tomon yon bosadi. Uning taklifini qabul qilib, Jaloliddinni valiahdlidan mahrum qiladi va unga uzoq viloyatlardan biriga hokim sifatida jo'nash buyrig'ini beradi. Muhtasar ravishda bitilgan bu mashvarat tasviri tarixan shubha uyg'otmaydigan dalillarga asoslangan. Shu darajada masalani aniq dalillay olish yozuvchining cheksiz izlanishlari va voqealarni aniq, lo'nda qilib berish mahoratiga bog'liqdir.

Tasvirlanayotgan mashvarat bo'lib o'tgan paytda Jaloliddin hali yosh yigit edi. Bu yigitning mamlakat boshiga tushgan tashvish og'irligini to'liq anglagan holda, yarim millionlik qo'shinga bosh bo'lib, bosib kelayotgan qora quyunga qarshi jang qilishga tayyor ekanligini dalil turib bo'yniga olmoqchi bo'lgani aql bovar qilmaydigan bir hodisadek tuyiladi. Biroq bu tarixiy haqiqatdir. Manbalarga qaraganda, buning negizi shundaki, Jaloliddin yoshligidan o'z atrofiga bir guruh chavandozlarni yig'ib ot surgan, qilich o'ynatgan. Boshqacha aytganda, ayrim shahzodalarga o'xshab o'yin-kulgi, maishat bilan band bo'lmasdan, tinimsiz ravishda mashqlar bilan shug'illangan. Mana shu tarzdagi sa'y-harakat unga lashkarboshi bo'lishga huquq berayotganini anglash qiyin emas. Biroq, mashvaratdagi vaziyat shunday bo'ldiki, Jaloliddin o'z kuch-qudratini, qahramon sifatidagi jangovarlik xislatlarini ko'rsatish imkoniyatlaridan mahrum bo'layotgan edi. Bu hol kitobxon va tomoshabinlarda afsuslanish, achinish hissini uyg'otadi. Yosh qahramon taklifi rad qilingan bo'lsa ham, uning jangovarlik ruhi so'nib ketmadi. U belgilangan viloyat hokimi sifatida atrofiga kuch yig'adi, nisbatan oz sonli sarbozlarga bosh bo'lib, ko'p sinovlardan o'tgan Chingiz qo'shiniga qarshi jang e'lon qiladi. Turkistonning goh u yerida, goh bu yerida jangga kirishib yuqorida qayd qilganimizdek, aksariyat hollarda g'alabaga eriashadi. Bu haqida ko'plab tarixiy dalillar va rivoyatlar bor. Bir gal u hozirgi turkmaniston hududida yuz otliq qo'shin bilan Chingizxonning yetti yuz otliq qo'shinini tor-mor keltirgan ekan. Boshqa bir manbalarda ko'rsatilganidek, u o'n to'rt nafar safdoshi bilan ming kishilik dushman suvoriylari qurshovida qolib

ketgan u, o'z jangovarlik san'ati tufayli qurshovni yorib chiqib ketgan. Qisqasi, yosh bo'lsa ham kam kuch bilan Chingizxonning lashkariga dahshat solib omonlik bermagan.

Erkin Samandarning dramasida Jaloliddin ko'z oldimizda shu tarzda gavdalanadi. Masalaga boshqa tomondan yondashib ko'raylik. Dunyoda qahramon shaxslar ko'p o'tgan. Har bir jangchining qahramonligi unga qanday kuch qarshi turganligi bilan belgilanadi. Shu ma'noda sharqdan yopirilib kelgan Chingizxon bosqinchilari ko'p janglarni boshidan kechirgan tajribali dushman edi. Avvalo, u bu qora quyun boshida turgan Chingizxonning o'zi hazilakam bosqinchilardan emas edi. U o'z kuchi va qudrati bilan katta qo'shinni bir maqsadga bo'ysundirib, shiddat bilan jang maydoniga chiqishdan ham toymas edi. Buning ustiga u o'ta makkor sarkarda edi. Dramada ko'rsatilganidek u ikki asrdan oshiqroq davr mobaynida tinimsiz janglar olib borib, dunyoga dong'i ketgan impeiyani barpo qilgan Xorazmshohlar sulolasiga nifoq soldi. Yana tog'rirog'i bu imperiyaning ichidan yemirilishiga olib keldi. Asarda qayd qilinganidek, Chingizxon o'ta qat'iyat bilan siyosat bilan siyosat yurgizadigan lashkarboshi bo'lgan. U maqsadga erishish yo'lida barcha vositalardan foydalana olar edi. U o'ziga qarshi mardanovor kurash e'lon qilgan biror qahramon qo'lga tushib qolsa, darrov unga yaxshi munozamat ko'rsatib, o'z safiga qo'shib olishga harakat qilar, bordiyu maqsadiga erisha olmasa, og'ir jazoga tortar edi. U dramada tasvirlandan Hurqala hokimi Ixtiyoriddin bilan shu tarzda muomala qildi. O'z safiga qo'shib olaolmagach, uni hokimligidagi qal'a darvozasi oldida baland dorga ostirdi. Kingadir jazo bermoqchi bo'lsa, jazoning Barcha turlarini ishga solishga tayyor hukmdor edi. Boshqalarga ibrat bo'lishi uchun qo'lga tushgan mahbuslarning og'zigami, qulog'igami qo'rg'oshin eritib quyishdan toymas edi. O'rni kelgan paytlarda unda raxmdillikdan asar ham bo'lmas edi. U Jaloliddinning ukasi – Xorazmshohning kenja o'g'li Komronni buvisi Turkon xotunning ko'zi oldida jallodga topshirarkan:

-- Bolaning ko'ksini yer, bug'li yuragini it oldiga tashla! – deydi.

Tabiiyki, jallod Chingizning so'zini ikki qila olmaydi. Bu voqea shu darajada daxshatli, shu darajada og'ir ediki, bag'ritosh Chingizning o'zi ham bir oz tavasaga tushadi. Ammo uning mash'um irodasi har qanday rahm-shavqatdan ustunlik qilardi. Bola fojeasini tasavvuridan o'tkazarkan:

Nega etim jimirladi, nechun seskandim,
Yuragimda rahm eli oraladimi?
Yo dilimni achchiq fig'on yaraladimi?

singari tuyg'ularni xayoliga keltiradi. Biroq, bu insoniy tuyg'ularni darhol o'zidan uzoqlashtirib,keskin qarorga keladi:

- Olis hislar nari keting,sizga o'rin yo'q!

U bir zungina odam qiyofasiga kiradi,shu ondayoq yana chekinadi. Mana,Jaloliddin qarshisida turgan shafqatsiz dushman. Dramada tasvirlangan boshqa bir manzaraga nazar tashlaylik. Chingizxon o'g'li,qo'shin sarkardalaridan biri To'lixon mag'lubiyatga uchraydi. Mag'lubiyat sabablarini otasiga bildirish maqsadida uning oldiga keladi. Chingizxonning qahr-u g'azabi,ayrim dushmanlarga xos ruhan tetikligi To'lixon bilan ro'y bergan dialogda o'z aksini topadi. Bu dialog jarayonida Chingizxonning qay darajada qat'iyatli ekanligini Jo'jixonning quyidagi so'zlaridan anglab olish qiyin emas:

Hozir ota o'ldirishga buyirar uni
Tuqqan o'g'lim deya ayab o'tirmas aslo
Qahri uning hamma uchun birdek qattiqdir,
Qaytmas hatto o'z-o'ziga pichoq urishdan
Jangdan cho'chib kim orqaga qaytsa bir qadam
Ko'rib qolsa kimda agar zig'ircha hadik,
Qatl etar uni cherik ko'z oldida,

Bundan uning o'z o'g'li ham emas mustasno.

Chingizxon farzandlarini o'z xarakteriga mos ravishda tarbiyalagan. Mana, u dramada farzandlari haqida nima deydi:

Men senlarni olovlariga tashlab tobladim,
Zuvalangni sutga emas, chaydim qonlarga,
Tekis yo'lga ermas, balki jarlar, o'p-qonlar,
Girdoblarga duch ayladim ko'zi pishsin deb,
Istaymanki, sherday jasur bo'lsin har o'g'lim,
Yuzta, mingta ajdarga bas kelsin bir o'zi.

Oxir-oqibat To'lixon qaytadan jangga kiradigan bo'ladi. Buning evaziga esa otasidan yalinib-yolvorib ruxsat so'rab, Jaloliddinni tirik tutib kelishga va'da beradi. Drama haqidagi umumiy fikrlarimizni quyidagi jumlar bilan yakunlashni lozim ko'ramiz. Asarda tasvirlangan obrazlarni tipologiya jihatdan quyidagicha guruhlariga bo'lish mumkin: Birinchi guruh-qahramonlik hislatiga ega bo'lganlar obrazi. Ular Vatanni himoya qilish uchun jangga o'tlanib, jon olib-jon beradilar. Jaloliddin yetakchiligidagi lashkarboshilar va suvoriylar shunday obrazlar toifasidan bo'lib, kitobxon va tomoshabinlarda faxr-g'urur hissini uyg'otadi. Ularning qismati va jasorati doim ko'z oldimizda turadi. Ikkinchi guruh – Chingizxon va o'g'illari. Ularning xatti-harakatlarini, bosqinchilarga xos g'ayriinsoniy xislatlarini ko'rib, nafratlanamiz.

Dramada uchunchi guruhni ham tashkil etadigan qahramonlar obrazi borki, ular dramaturg tasvirida kitobxon va tomoshabinlarda achinish tuyg'ularini uyg'otadi. Ulardan biri Xorazmshohdir. U bir vaqtlar ot o'ynatib, qilich tortib, Xorazm saltanatini kengaytirishga va boyitishga katta hissa qo'shgan, bu ulkan mulkni uzoq davr mobaynida tebratib turgan shohlarning zabardastlaridan biri. Saltanat uchun xayrli ishlarni u ko'proq yoshligida qilgan. Dramada tasvirlangan paytlarda u ancha yoshlarga kirib, davlatni idora qilishda oldingi shijoatlarini anchayin boy berib qo'ygan

ahvolda ko'rinadi.U qat'iy mustaqil mavqeda tura olmaydi.Xususan,siyosatdan ko'ra saroyning fisqu fasod ishlarini boshqarayotganlar taklifi oldida ojiz. Irodasi barqaror bo'lib,ko'ringan Turkon xotun taklifi bilan Jaloliddinni valiahdlikdan mahrum qilib, Qutbiddin O'zloxshohga in'om etadi. Mamlakat ustiga bostirib kelayotgan Chingizxonga qarshi kurashib g'alaba qozonishi mumkin bo'lgan birdan-bir taklifni rad qiladi.

Psixologik jihatdan Xorazmshoh achinarli ahvolga tushib qoladi. U o'zining ustiga qandaydir yovuz kuchlar bosib kelayotgandek his qiladi. Dramaturg talqinida uzoqdagi qum barxanlari uni g'ajib tashlash uchun hujum qilayotgan bo'rilar bo'lib ko'rinadi. Shu ahvolda u ham jismonan,ham aqlan zaiflasha boradi. Uning faqat bitta ilinchi bor,u ham bo'lsa Jaloliddin. Qani u bechora ahvolga tushib qolgan otasi huzuriga yetib kelsa-yu,ota qahramon o'g'lining valiahdligini tiklasa! Belidagi tilla kamarni unga topshirsa. Jaloliddin esa,yuqorida qayd qilganimizdek,atrofiga kuch to'plab, Chingizxon bosqinchilariga birin-ketin zarba berish bilan band. Shu orada otasi bilan o'zi orasida qattiq ziddiyatlar o'tganligiga qaramasdan,Jaloliddin yo'l topib,otasining huzuriga keladi. Alovuddin Xorazmshoh qahramon o'g'li valiahdligini qaytarib berib, shohlik tilla kamarini unga topshiradi. Shunday qilib,ancha vaqtlar Xorazm saltanatini tebratib turgan shoh ko'zga ko'ringan va ko'rinmagan xavf-xatar natijasida bir faqir bechora sifatida hayotdan ko'z yumadi.

Dramada achinish hissini uyg'otadigan,biroq ba'zi bir xislatlari bilan faxrlansa arziydigan bir obraz bor. Bu Jaloliddinning onasi Oychechandir. Jaloliddin qaerda jang qilmasin,u bilan birga. Dramaturg bundan tashqari Oychechanga ham ramziy ma'no beradi. U oddiygina ona emas,Ona-zamin. U qahramon o'g'li bilan birga bo'lib,har kuni,har lahzada dushmanga qarshi kurashga uni ruhlantirib,madad berib turadi. Hatto jang bo'layotgan paytlarda ham uning huzurida paydo bo'lib, onalik nasihatlarini berib,ona

zamin oldidagi burchlarini eslatib turadi. Dramaturg asar dramtizmini chuqurlashtirish yo'lida ona obraziga bog'liq boshqa bir qo'shimcha kuchni jalb qiladi. Bu hur qizlar obrazidir. Eng mas'ul paytda hur qizlar ovozi jo'r bo'lib yangraydi. Bu ovoz yo og'ir holatni bildiradi,kuchaytiradi,ba'zida ma'lum bir obraz yoki holatlarga xos bo'lgan xislatlarni anglatib,asarda ro'y berayotgan voqealarni kitobxon yoki tomoshabin ongiga tamg'alaydi. Ona obrazi bilan hur qizlar obrazlari o'rtasida bog'liqlik bor. Ular uzviy holda bir-birlarini toldiradilar,ulug'laydilar.

Onani biz achinarli obrazlar sirasiga kiritdik.Biroq ona obrazi ota-Xorazmshoh obrazidan keskin farq qiladi. Shoh obrazi asosan achinis hissini uyg'otsa,Oychechan obrazi ham achinish,ham g'urur hissini uyg'otadi. O'zida shunday bir-biriga zid tuyg'ularni mujassam etgan Oychechan kelini bilan suvga g'arq bo'lib,baliqlarga yem bo'lishga rozi.Bu jismoniy holatga achinamiz. Biroq u ruhan tetik,har jihatdan qahramon o'g'li Jaloliddin bilan birga,uning g'am-tashvishlariga sherik.

” Avlodlar qilichi” da dramaturg Erkin Samandar tarix xronologiyasiga rioya qilgan holda ish tutgan. Bu jihatdan biror xronologik-kompozitsion chigallikka duch kelmagan. Biroq asarning tuzilishiga xos bo'lgan bir hodisa e'tiborni jalb qiladi. Voqea tasviri dramada qamrab olingan voqealarning oxirgi nuqtasidan boshlanadi. Ya'ni,og'ir va hal qiluvchi jang. Jaloliddinning qudratli qo'shini arzimagan sabablar bilan porakandalikka yuz tutgan. Yuqorida qayd qilganimizdek,Yovg'och botir o'n minglik suvoriysi bilan Jaloliddindan yuz o'giradi. Dushman ojizlanib qolgan Jaloliddin ustiga bostirib kiradi.Orqada esa Hind daryosi,qochib qutilishga iloj yo'qdek. Uning sadoqatli suvoriylari ham har yoqqa tarqalgan. Oychechan allaqachon kelini bilan daryo qariga uzatilgan.Shunday paytda Jaloliddin Qorabayir otini daryo tomon undaydi. Ot ham Jaloliddinning niyatini his qilgandek,bir qadam ham tisarilmasdan,o'zini daryoga uradi. Ot va Jaloliddinning tasviriga ko'p o'rin

ajratilmagan. Biroq shiddat bilan oqayotgan daryodan kiyim-kechak va otdagi egar-jabduqlar bilan suzib o'tishning o'zi bo'lmasligi kitobxonga ayon. Harholda biz Jaloliddin Qorabayir oti bilan daryodan suzib, narigi qirg'oqqa o'tib olganini ko'ramiz. Asar shu voqealar bayoni bilan tugallanadi. Voqealarning davomi ikkinchi drama – "Yot hujra" da aks ettiriladi.

3.3 "Mirzo Ulug'bek" dramasida obrazlar izchilligi

Maqsud Shaxzoda qalamiga mansub ikkinchi she'riy fojia "Mirzo Ulug'bek"dir. Bu asarning yuzaga kelishi tarixi ancha uzoq. Maqsud Shayxzoda "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi ustida yigirma yildan ortiqroq ishladi. Shayxzoda "Mirzo Ulug'bek" tragediyasini yaratishda tarixiy mavzuda yozilgan jahon va o'zbek dramaturglarining asarlaridagi an'anaviy uslub va novatorlik mahoratini, ayniqsa, Shekspir, Pushkin va Nozim Hikmat mahoratining sir-asrorini qunt bilan o'rgandi. Shekspir, Pushkin va Nozim Hikmatlarning bir necha tarixiy tragediyalarini o'zbek tiliga tarjima qildi.

Bundan tashqari, XV asrda yaratilgan, bevosita yoki bilvosita Ulug'ek shaxsiyati va ilmiy, siyosiy faoliyatiga taalluqli Sharofiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Muhiddin Isfizoriy, Mirxond, Xondamir, Bobur, Zayniddin Vosifiy asarlarini, shuningdek, rus sharqshunoslaridan V.V.Bartold, Ye.E.Bertels, A.Yu.Yakubovskiy, taniqli o'zbek olimi akademik Qori Niyoziyning, eron va turk tarixchilarining asarlarini sinchiklab o'rgandi. Ulug'bek haqida ilmiy maqolalar yozdi. Shu tariqa "Mirzo Ulug'bek" dramasi maydonga keldi.

"Mirzo Ulug'bek" tarixiy fojiasida o'zbek xalqi tarixining g'oyat murakkab, ayni zamonda eng muhim davri qalamga olinib, asar mavzuining markazida Ulug'bekning faoliyati turadi. Asardagi barcha voqealar, ishtirok etuvchi

personajlar va ularning hayoti, taqdiri ana shu bosh obraz atrofida markazlashtirilgan. Bu obrazlarning har bir mavqei va o'ynagan roliga qarab Ulug'bekning ko'p qirrali faoliyati, buyuk istedodi va boy ma'naviy olamiga xos rango-rang fazilatlarini har jihatdan to'kis bo'luviga, to'ldirish va kamolat kasb etuviga xizmat qiladi.

Dramada Ulug'bek ulug' olim, ayni vaqtda adolat va ma'rifatning homiysi, xalqparvar va istedodli davlat arbobi, zamonasining ilg'or fikrli podshohi sifatida namoyon bo'ladiki, bu tarixiy haqiqatning aniq ifodasidir.

Zotan, Muhammad Tarag'ay – Ulug'bek (1394-1449) jahongir bobosi Temurning o'limidan so'ng to'rt yil o'tgach, ko'p urush va talashlardan keyin poytaxti Samarqand bo'lgan Movaraunnahrdek katta feodal saltanatining hokimi bo'lib qoldi. Ammo Ulug'bek temuriylar sulolasidagi (va umuman feodalizm jamiyatidagi) podshohlardan farqli o'laroq, adolat va haqqoniyatparastligi, ma'rifat va madaniyatga homiyligi, xalqparvarligi, eng muhimi, zamonasining ilg'or fikrli buyuk olimi va mutafakkiri bo'lganligi tufayli shuhrat topdi, shuning uchun ham taraqqiyparvar doiralar va oddiy xalq orasida katta izzat va obro' qozondi.

Ulug'bek saltanatni o'z qo'liga olgach, hokimiyat uchun tez-tez bo'lib turadigan be'mani urushlarga chek qo'yishga, yurtning osoyishtaligini barqaror etishga intildi. Mamlakatning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti uchun ko'p pul sarfladi. Samarqand, Buxoro, G'ijdivon va boshqa shaharlarda madrasalar, turli jamoat binolari qurdirdi. Zamonasining buyuk olimlari Muhammad Havoriy, Qozizoda Rumi, G'iyosiddin Jamshid, Abduvali Birjandiy, Mansur Koshiy, Miram Chalabiy kabi ilm ahllarini Samarqandga to'plab, ularga ishlash uchun shart-sharoit yaratib berdi. 1424 yilda Samarqand yaqinida, Obirahmat suvi bo'yidagi tepalikda rasadxona – observatoriya qurdirdi. U o'z safdoshlari va shogirdlari bilan katta astronomik tekshirishlar olib borib, jahon fanining nodir asarlari bo'lmish "Ziji Ko'ragoniy" yoki "Ziji Ulug'bek" asarini yaratdi.

Ulug'bek zamonasining har jihatdan mukammal va yetuk kishisi edi. Shuning uchun ham uning zamondoshi mashhur shoir Sakkokiy:

Salotin dunyoga ko‘p keldiyu, kechdi, seningdek bir
Falakning gar tili bo‘lsa aytsunkim, qachon keldi? –
degan bo‘lsa, ulug‘ Navoiy ”Farhod va Shirin”da shunday degan edi:

Temurxon naslidan sulton Ulug‘bek,
Ki olam ko‘rmadi sulton aningdek.
Aning abnoi jinsi bo‘ldi barbod,
Ki davr ahli biridin aylamas yod.
Valek ul ilm sori topti chun dast,
Ko‘zi oldinda bo‘ldi osmon past.
Rasadkim bog‘lamish, zebi jahondur,
Jahon ichra yana bir osmondurur.
Bilib bu nav’ ilmi osmoniy,
Ki andin yozdi ”Ziji Ko‘ragoniy”.
Qiyomatga teganda ahli ayyom,
Yozarlar aning ahkomidan ahkom.

Biroq Ulug‘bekning odilona siyosati, xalqparvarligi, ilm va ma’rifatga xomiyligi Xo‘ja Ahror boshliq reaksiyon ruhoniylar guruhining g‘azaabini keltirdi. Ular Ulug‘bekka qarshi ketma-ket fitna va xurujlar uyushtiradilar. Bundayin xurujlar, ayniqsa, Ulug‘bek hukmronligining so‘ngi ikki-uch yilida avjiga chiqadi. Nihoyat, fitna va xurujlar 1449 yil 27 oktabrda Ulug‘bekning fojiali halokati bilan yakunlandi. Uni mansabparast va irodasiz o‘g‘li Abdulatif o‘ldirtiradi.

”Mirzo Ulug‘bek” voqeasi uchun muallif Ulug‘bek hayoti va faoliyatining xuddi ana shu keyingi ikki-uch yillik muddatini asos qilib olgan.

Chunki Ulug‘bek hukmronligining keyingi yillari uning hayoti, ilmiy va siyosiy faoliyati tarixning eng xarakterli pallasi bo‘lgan. Bu yillarda Ulug‘bekning buyuk olim sifatidagi dong‘i uzoq o‘lkalargacha borib yetdi. U o‘z ilmiy-tadqiqot ishlarini yakunlab, astronomiya sohasida o‘lmas asarlar yaratdi. Ikkinchi tomondan, Ulug‘bek boshliq ilm-ma’rifat ahllari bilan feodal va reaksiyon orasidagi shiddatli kurash ham ayni shu davrlarlarda o‘zining avj pallasiga yetdi va bu

suronli mojarolar Ulug‘bekning fojiaviy halokati bilan tugadi. Shunday bo‘lishi tabiiy edi. Negaki, bu beomon kurash ziddiyatlarning asosiy ildizi islom mafkurasi hukmron bo‘lgan, jamiyat ma‘naviy hayotini bid‘at va xurofot chulg‘agan o‘rta asr sharoitida aql-idrok, ilm-fan, adolat va umumbashariy orzular g‘oyasini ilgari surgan Ulug‘bek bilan uning feodal muhiti orasidagi kurash tashkil etardi.

Mana shu kurash va ziddiyatning, bo‘ronli voqealar va so‘ngsiz mojarolarning markazida Ulug‘bek, uning fojiasi turadi. Shu boisdan Maqsud Shayxzoda o‘z asarini tragedya janrida yozib, drama uchun olingan tarixiy materialni kitobxon va tomashbinga to‘g‘ri yetkiza oluvchi, o‘z niyati va badiiy mudaosini to‘la-to‘kis namoyon qila oluvchi monanad shakl tanlagan. Boshqacha qilib aytgand, ”Mirzo Ulug‘bek” asarida mundarija bilan shakl orasida to‘la ayniyat yuzaga kelgan. Lekin shakl tanlay bilish, hali masalaning bir tomoni. ”Mirzo Ulug‘bek”ning yetuk san‘at asari sifatida maydonga kelishidagi ikkinchi muhim mezon – muallifning fojiabop materialni haqiqatga aylantirib, uni badiiy jihatdan yuksak darajada ifoda eta bilishida ko‘rinadi. Haqiqatdan ham Maqsud Shayxzoda, XV asrdagi ijtimoiy ziddiyatlar dialektikasini dramada qatnashuvchi shaxslarning ma‘naviy dunyosi, fikr va andishalari orqali haqqoniy va ishonarli tarzda ifodalashga erishgan. Shubhasizki, muallifning asardan kuzatgan barcha ezgu niyatlari, dramaning barcha a‘lo fazilat va xislatlari, dastavval tarixiy fojining bosh qahramoni Ulug‘bek obrazida har jihatdan yaqqol namoyon bo‘ladi.

”Mirzo Ulug‘bek” tarixiy fojiasida tasvirlaangan voqealar 1448-1449 yillar moboynda, asosan, Samarqandda va uning atrofida bo‘lib o‘tadi. Asardagi voqealar Abdulatif Mirzo, Ali Qushchi, Gavharshodbegim, shoir Sakkokiy, tarixchi Abdurazzoq Sam., arqandiy, Shayxulislom Burxoniddin, qozi Miskin, Xo‘ja Axror, Said Obid, (Said Oshiq) kabi tarixiy shaxs obrazlari bilan bir qatorda Feruza, Berdiyor, Ota Murod, Piri Zindoniy, Bobo Kayfiy kabi to‘qima obrazlar ishtirokida kechadi. Bu obrazlar ijtimoiy mavqe jihatdan turli tabaqalarga mansub bo‘lib, ularning barchasi Ulug‘bek obrazini bo‘rttirish uchun xizmat qiladi va ma‘lum bir vazifani bajaradi. Mirzo Ulug‘bekning hayot va saltanatdan ko‘zlagan

birdan – bir yagona maqsadi, davlat ishlaridagi asosiy siyosiy yo‘li – mamlakatning butunligi, qudrati, fuqoroning osoyishtaligi, ilm-fan va ma’rifatning ravnaqi uchun kurashushdan iborat. Mana shu tarixiy haqiqatni ifodalash uchun muallif Ulug‘bekning zamondoshi, mashhur tarixchi Abdurazzoq Samarqandiyini so‘zlatadi:

Asrlarning sarguzashtin tekshirib ko‘rdim,
Ko‘p o‘rgandim sultonlarning amallarini.
Ammo hazrat Ulug‘bekday olim bir sulton,
Iskandardan keyin taxtga o‘tirgan emas.
Fanning shohi, fazilatning podshohi erur,
Qomatiga xo‘b kelishgan sultonlik to‘ni.
Adolati mamlakatga yog‘dirar yog‘du,
Haqiqatning mavhumlarin ko‘p kashf etar u.

Muallif Ulug‘bekning olijanob fazilatlarini va xususiyatlarini kitobxon ongiga to‘la yetkazish uchun turli imkoniyatlar va vositalar ishlatadi. Chunonchi: Ulug‘bek tilidan aytilgan monologlarda ashaddiy g‘animlari bilan bo‘lgan shiddatli va keskin munozaralarda buni ochiqchasiga kuzatish mumkin. Masalan, birinchi parda, ikkinchi ko‘rinishda Ulug‘bekning ajoyib bir monologi bor. Bu monologda genial olim, ma’rifatparvar hukmdor, xassos qalb va nozik tuyg‘ular sohibi bo‘lmish Ulug‘bekning boy va rango-rang ma’naviy olami tiniq ko‘zguda jilva bergandek ravshan namoyon bo‘ladi.

Ulug‘bekning saroy tarixchisi sifatida uzoq vaqt sulton bilan birga bo‘lgan Abdurazzoq Samarqandiy ”Matlaus sa‘dayn” kitobida ilm va ma’rifatni himoya qilishda Ulug‘bekni ”Sheri g‘arron” (”Hujmkor sher”) deb tariflaydi. Muallif mana shu tarixiy haqiqatni o‘ziga xos zo‘r mahorat bilan ishonarli qilib ko‘rsatishga muvaffaq bo‘lgan.

Abdurazzoq Samarqadiyning rivoyat qilishicha, Ulug‘bek davlatni boshqarish siyosatida har vaqt oddiy fuqoro, hunarmand va dehqon tabaqalarning manfaatini ko‘zlab ish tutgan. Ulug‘bekning siyosiy faoliyati uchun ibratli bunday

xatti-harakatlar ustalik bilan ifoda qilinadi. Qozi Miskin kabi oliy martabali a'yonlar bilan suhbatda deydi:

...Men sizlarga aytadigan uchinchi so'zim:
Xaloyiqning ahvolini o'ylamoq kerak.
Sultonlarni "Zilollolohu fil-arz" deydilar.
Bu – xudoning yer yuzida soyasi demak.
Soya bo'lib, soyangdagi yerni bilmasang,
Bu – sultonlik vazifasin unutmoqlikdir,
Agar yurtin fuqorosi tunda uxlamay,
Faryod tortsa, demak shohning vijdoni uxlar.
Ko'p o'yladim dehqonlarning tirikchiligin..
Axir, olam obodligin sababi ular.
Bani odam ozuqasin berar u qo'llar.
Lekin bizning a'yonlarchi, xo'sh kiborlar-chi?
Hayvondan ham pastga urar qishloq ahlini.
Non yeymizu, g'allakordan xabarimiz yo'q,
Kabob yeymiz qo'ychivondan olmaymiz xabar.
Olma yeymiz, bexabarmiz lekin dehqondan!

Mana uning yurtparvarlik va adolatparvarligini ko'rsatuvchi yana bir xarakterli misol. Dramada Shayxulislom sultonning farmoniga e'tiroz bildirib, otabobolardan meros bo'lib qolgan qonunlarni buzish, bu – ular ruhiga hurmatsizlik, deb isbot qilmoqchi bo'lganda, Ulug'bek shunday oqilona javob qiladi:

Gapingiz rost, Shayxulislom, biroq insonlar
Odatlarning sarhadida qolganda edi,
Ochilmasdi yangi yo'llar, yangi ufqlar.

Bobolarning qonunlari gar ma'qul bo'lsa,
Ularni ko'z cho'g'i kabi saqlamoq zarur.
Ammo zamon zayli bilan eskirib ketgan

Qoidayu qonunlarni ag'darmoq lozim.

Ulug'bek shahsiyatiga xos bunday adolatparvarlik fazilatlari asarning butun ruhiga singdirilgan. Bu fazilatlar asarning har bir parda, har bir ko'rinishida voqealarning oqimi va harakteriga qarabgoho juda ayon, goho uning ayrim belgi va ishoralarida ochiq-oydin ko'rinib turadi, his etiladi.

Ulug'bek obrazining ezgu fazilatlaridan yana biri uning insondagi aql-idrok, istedod va yuksak darajada qadrlashda, ilm va olimlikda barcha teng huquqlidegan fikrga o'z faoliyatining yetakchi mayllaridan biri sifatida amal qilishidir. Haqiqatdan ham Ulug'bek aql va istedod sohibi bo'lgan odamlarni, ularning nasl-nasabidan qat'i nazar, o'z atrofiga uyushtirdi, ularga barcha shart-sharaitlarni yaratib berdi. Ana shundaylardan biri, Temur qushboqarning o'g'i, Ulug'bekning shogirdi, yaqin ko'makdoshi mashhur olim Ali Qushchi edi. Ulug'bek shogirdi Ali Qushchiga ta'lim berib deydiki:

Ali Qushchi, men bir ikki senga aytgandim,

Tag'in seni bu xususida ogohlantiray.

Ilmu fanda shohu gado tafovuti yo'q.

Men devonda va o'lkada sultonman, xolos.

Madrasada yo olimlar anjumanida

Menga yetar shu: mudarris Mirzo Ulug'bek!

Dramada Ulug'bekning barkamol inson sifatidagi belgilaridan yana biri uning oddiy bog'bon qizi Feruzaga bo'lgan otashin sevgisidir. Dramaturg bu sevgi tasvirida albatta ma'lum tarixiy faktlarga tayangan. Bu haqda tarixiy manbalarda ochiq-oydin gap bo'lmasada, ammo bu ishning ancha-muncha mojarolarga, fitna-fasod va ig'volarga sabab bo'lganligi to'g'risida ko'pgina imo-ishoralar mavjud. Maqsaud Shayxzoda Ulug'bek va Feruza munosabatlarini asarning asosiy sujet chiziqlaridan biriga aylantirishda, o'sha imo-ishoralardan, shuningdek, Temur nabiralaridan biri Xalil Sulton va oddiy hunarmand qizi Shodimulk orasidagi sevgi mojarolari faktlaridan foydalanilgan. Bu voqeaning asarga kiritilishi Ulug'bek obrazining, umuman, asarning muvaffaqiyatli chiquvida muhim ahamiyatga ega

bo‘lgan.

Dramada Ulug‘bek bilan Feruzaning muhabbati yaqqol hayotiy belgilar bilan yo‘g‘rilgan. Feruza tili bilan aytganda, bu sevgi ”koshonalar hashamatli dabdaba” tufayli emas, balki ”shu insoniy qalbingizdir meni band etgan” deb ataluvchi samimiy tuyg‘ularda. Feruza Ulug‘bekni barkamol inson, buyuk olim, ma’rifat homiysi bo‘lgani uchun sevadi va oliy daraja ehtirom qiladi.

Shuni aytish kerakki, Maqsud Shayxzoda Ulug‘bek xarakteridagi eng muhum fazilatlarini o‘z meyorida bo‘rttirish bilan, undagi ojiz tomonlardan ham ko‘z yummaydi, ularni juda haqqoniy va xolisona ko‘rsatib, bosh qahramon obrazining hayotiy chiqishiga erishgan. Ulug‘bek adolat bilan ish tutadi, ammo bu odillikning ham chegarasi bor edi. Chinakkam adolat uchun kurashib, bobosi Temur tarafidan zindonga tashjangan Piri Zndoniy bilan yuzma-yuz kelganda, undagi podsholik tuyg‘ulari ustun keladi, ozodlik fidoiysini bandda saqlashga amr etadi.

Ulug‘bek feodal urushlari, shahzoda va amirlarning xuruj va ig‘volarining, saroydagifisqu fasodning tub sabablarini tushunishdan ojiz qolai. Bularning barchasi uning uchun techilishi mushkul bo‘lgan jumboq ediki, bu jumboqning siru asrorini bilishdan ojiz ekanligini iqrar qilishga, shohlik nomusi va saltanat sha’nini saqlash tilagida, hatto o‘z sevgisidan voz kechib, Feruzaga taloq xati berishga majbur bo‘ladi. Bunday mojaro va fitnalar qarshisida chekinishdan o‘zga iloji polmagan Ulug‘bek shohlar qismatidan ochiq shikoyat qiladi.

Sultonlarning nasibasi shu tahlit ekan,

Siyosatga qurbon ketar ularning qalbi.

Feruzani seva-seva taloq beraman!

yoki:

Zamonaning zayli bilan o‘zgarib tole,

Haqqa nohaq, mardga nomard qildi ustunlik.

Dunyodagi binolarning eng liqqildog‘i

Temurbekning shu koshonasi, Ko‘ksaroy ekan!

Shunday qilib, Ulugʻbekning dunyoqarashi, siyosiy va ilmiy faoliyatidagi bu xil ijobiy va salbiy koʻrinishlar; bir tomondan odil va maʼrifatparvar shoh; ikkinchi tomondan eng yirik feodal; bir tomondan diniy aqidalarga ishonadi va davlat yuritish ishlarida unga amal qiladi; ikkinchi tomondan – oʻz ilmiy – tadqiqot va kashfiyotlari bilan haqqu nohaq, islomiy eʼtiqodlarning ildiziga bolta uradi; bir tomondan adolatsiz urushlarga qarshi chiqib, el-yurt osoyishtaligini qoʻriqlaydi; ikkinchi tomondan esa unga qarshi qoʻzgʻalon koʻtargan qabilalarni shavqatsiz bostiradi. Binobarin, Ulugʻbek shaxsiyati, dunyoqarashi va faoliyatidagi bir-biriga zid, bir-biriga qarama-qarshi qutblarning mavjudligi, bu obrazning gʻoyatda murakkab xususiyatlarga ega ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Ana shunday murakkab jihatlarini chuqur anglagan muallif, Ulugʻbek obrazining barcha ijobiy va salbiy, qudratli va zaif, ilgʻor qarashlar va fikriy mahdudlik sifatlarini olim yashagan ijtimoiy muhit bilan uzviy bogʻlangan holda toʻla-toʻkis namoyon qilishga erishgan.

”Mirzo Ulugʻbek” tragediyasida, muallifning gʻoyaviy niyati va badiiy muddaosini toʻla ochishda muhim rol oʻynagan bir qancha tarixiy va toʻqima personajlar borki, ular oʻz xatti-harakatlari, ijtimoiy mavqe va intilishlari, ichki va tashqi qiyofasi, maʼnaviy dunyosi bilan bilan bir-biridan keskin ajralib turadi. Bu personajlar orasida, asosiy koʻpchilikni tarixiy shaxslar: Abdullatif, Gavharshodbegim, shoir Sakkokiy, tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy, olim Ali Qushchi, Shayxulislom, shayx Xoʻja Axror tashkil etganidek, ular orasida Feruza, Otamurod, Berdiyor, Piri Zindoniy, Bobo Kayfi kabi toʻqima obrazlar ham bor. Dramaturg ularning xatti-harakati, xulqi atvoriga yopishib tushadigan yorqin harakter belgilari, tasvir boʻyoqlarini ustalik bilan ishlatgan.

Abdullatifning bu yovuz makkorona intilishlarida, dastavval, uni buvisi Gavharshodbegim olim oʻgʻlidan voz kechib, nabirasini qoʻllab quvvatlaydi, fitnachilar tegirmoniga suv quyadi.

Oʻz iqtisodiy qudrati, maʼnaviy taʼsiridan, avom xalq orasidagi nufuzidan foydalanib siyosiy hokimiyatga ham qoʻl choʻzish niyatida yurgan

Xo‘ja Ahror Ulug‘bek va uning doirasiga qarshi boshchilik qiladi. Ulug‘bekni qatl etish haqida shariyat hukmini chiqarib, uni qotillar qo‘liga tutqazadi. Tarixiy haqiqatning ayni ifodasi bo‘lgan bu obrazlar kitobxonda kuchli g‘azab va nafrat qo‘zg‘aydi.

Asarda yorqin xarakter belgilari bilan alohida ajraalib turuvchi Feruza, Bobo Kayfi, Otamurod, Berdiyor, Piri Zindoniy kabi obrazlar o‘z faoliyatlari bilan Ulug‘bek siymosiga xos ezgu fazilatlarni yanada mukammalroq bo‘rttirish, muallif g‘oyasini yaqqolroq ochishda faol xizmat qiladilar. Feruza obrazida o‘sha davr sharoitida xotin-qizlar qismatining naqadar ayanchli ekani tasvirlanadi, uning pokiza muhabbati tarannum etiladi.

Asardagi voqealar yovuz kuchlarning g‘alabasi va Ulug‘bekning halokati bilan tugaydi. Lekin dramaning hotimasida o‘quvchida o‘tkir kechinmalar emas, aksincha, umidvorlik kayfiyatlaari tug‘diradi. Bunday tetik kayfiyatlar asarning optimistik ruhi, kelajakka ishonch belgilari bilan izohlanadi. Ulug‘bek eng og‘ir daqiqalarda ham badbin kayfiyatga berilmaydi, u bardam turib deydi:

O‘tib ketar bu dahshatlar, bu ma‘rakalar

Urush, vabo va jaholat o‘tib ketadi.

Oh, naqadar saodatli bo‘lar dunyomiz,

Va naqadar aziz bo‘lur erkin odamzod!

Ulug‘bek bebaho ilmiy kashfiyotlarni o‘z xalqiga meros qilib qoldirayotgani bilan fahrlanadi:

...Merosimdir kitoblarim va jadvallarim,

Bir meroski, zamon uni mahf etolmaydi.

Bir meroski, vorislari bu vatan ahli,

Bir meroski, bahra topar undan yer yuzi.

Chindan ham Ulug‘bekning ajoyib merosina zamonning to‘fonlari, na

qonli mojarolar va na yovuz kuchlarning qora niyatlari mahf etoldi.

”Mirzo Ulug‘bek” tarixiy fojia xarakteridagi asar, lekin undan tom ma‘nosi bilan zamonaviylik nafasi aniq sezilib turadi. Dramaning bosh qismida Ulug‘bek turli mamlakat elchilariga murojat qilib degan edi:

...Nega dunyo yo‘llarida butun kishilik,
Bir bo‘lmag‘ay? Nega odam avlodi nuqul
Millataro, dinlararo janjallarga band?
Men sizlarga farmon qilib, buyurganim yo‘q,
Bu – o‘zimning e‘tiqodim, tajribam, fikrim,
Insoniyat hayotining oliy qonuni:
Quyosh biru, dunyo biru, insoniyat bir.

Bu so‘zlarga Ulug‘bek siymosi uchun juda muhim bo‘lgan inson shon sharafigini, umuman insoniyat olamini yuksak darajada qadrlash, xalqlar do‘stligiga kattta hurmat bilan qarash g‘oyalari chuqur singdirib yuborilgan. Dramaturg esa Ulug‘bekdagi bunday g‘oyalarni topib ularni rivojlantirib, butun asar singdirib, badiiy ifoda etib bera olgan.

”Mirzo Ulug‘bek” dramasining tili g‘oyatda mazmundor, shirali, har bir so‘z o‘z o‘rnida ishlatilgan. Odatda, tarixiy asar tilini mazmunga monand ishlatish muallifdan qalamga olingan davrning adabiy til xususiyatlari, personojlarning, jamiyatning qaysi sinfiy toifasiga mansubligi va shuningdek, jonli so‘zlashuv tilidagi o‘ziga xos belgi va shartlarni puxta bilishni talab qiladi. Mana shu nuqtayi nazardan qaraganda, Maqsud Shayxzoda bu borada ham zo‘r mehnat qilgan. Asarda saroy muhiti, ruhoniylar va oddiy xalq vakillarining o‘ziga xos so‘zlashuv uslubi, davr koloriti to‘la-to‘kis saqlangan.

Dramaturga xalq maqollari, hikmatli so‘zlar va materiallardan kenga va o‘rinli foydalangan, ko‘p hollarda esa bu maqol va hikmatli iboralarni

misralar aro eritib, singdirib yuborganki, bu asar tili husniga loyiq bezak bo'lib tushgan. Dramaning she'riy tili masalasiga kelganda, shuni aytish kerakki, katta va mujassam asardagi har bir satr tom ma'nosi bilan quyma misralardan tashkil topgan, unda biron ortiqcha, noo'rin ishlatilgan so'zni topish qiyin. Asardagi har bir monolog, ayrim hollarda bir misraning o'zi ham bir dunyo fikrni ifodalaydi. Bu holat Maqsud Shayxzodaning she'riyatdagi kamoloti va mahorati "Mirzo Ulug'bek"da o'zining butun fusunkor husni va sehrli jozibasini to'la namoish qilolganidan dalolat beradi. Dramaturg har bir so'zni mantiq va mahorat "tarozusida o'lchab", so'ng kitob sahifasiga tushuradi. Shu tariqa asar kompozitsiysi muazzam va munaqqash qasrining darz ketishidan, qahramonlar obrazining takomiliga raxna tushuvidan avaylab saqlab boradi.

Xulosa shuki, "Mirzo Ulug'bek"da adolat, insonning aqliy qudrati, ma'naviy go'zalligi, yuksak bashariy orzularning ulug'vor tantanasi kuylangan. Shuning uchun ham "Mirzo Ulug'bek" milliy dramaturgiyamizning eng sara asarlari sirasidan munosib o'rin egalladi.

3.4 Xurshid Davronning "Alg'ul" dramasi haqida ba'zi mulohazalar

Ma'lmuki, tarixiy dramalarda dramatik vaziyat va konflikt masalalari hamisha dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan. Negaki, tarixiy asardagi kechadigan voqealarni butun-murakkabligicha qalamga olish juda mushkul ishlardan biridir. Shu bois, dramaturglarimiz o'tgan zamon, masalan mamlakatimiz tarixiga oid jihatlarni umulashtirishga harakat qilar ekan, bir necha xususiyatlarni birlashtirishga intiladi. Ayniqsa, tarixning bor qiyofasini tarixiy xaqiqatga putur yetkazmasdan badiiylilik darajasiga ko'tarib chiqadi. Keyin ushbu masalalarni teranroq tahlillab ko'radi. Demak, tarixiy asarlar o'tmish va kelajak orasidagi mustahkam ko'priq vazifasini ham bajaradi.

Bu dramaning asosiy qahramoni Mirzo Ulug'bek bo'lib, shu bilan birga Abdulatif Mirzo, Abdulaziz Mirzo, Ali Qushchi, Xoja Burhoniddin, Mironshoh qavchin kabi tarixiy shaxslar ham keltiriladi. Dramadagi voqealar 1449-yilning kuzda, bir kun davomida bo'lib o'tadi. Xurshid Davronning "Alg'ul" tarixiy dramalarida buyuk siymo Ulug'bek obrazini ochib berishga harakat qilingan. Ma'lumki dramatik tur ham o'z navbatida janrlarga ajraladi melodramma, komedya, targedya kabi. Biz so'z yuritmoqchi bo'lgan asarlar dramatik turning tragedya janrida yaratilgan ya'ni bunday asarlar fojea bilan yakunlanadi. *Hayotiy xodisalarda uchraydigan chigallik, mushkullik va dinamik kuch oddiy tilda "dramatizm" deb ataladi. Inqilobiy davrlardagi hayotiy hodisalar dramatizimi bilan oddiy kundalik hayot daramatizimi hodisalarida hamma uchun ayon farq bor. Lekin baribir hech bir muhim hayotiy hodisa, dramatizmdan holi bo'lmaydi, chunki hayotning o'zida rivoj kurash natijasidir: hayot o'zi orqali tortuvchi yoki to'xtab qolishga intiluvchi kuchlar bilan olg'a suruvchi kuchlarning to'xtovsiz olishuvidan iborat.*⁸

. Xurshid Davronning "Alg'ul" dramasida tarixiy siyosiy vaziyat aks ettirilishi bilan birga hiyonat va razolat, aldov va ko'zbo'yamchilik, turli xil fusqu fujur bilan kabi chirkin illatlar quyuq bo'yoqlarda aks ettirilishi natijasida tarixiy haqiqatning badiiy ifodasi qabarib ko'rinadi. Xurshid Davronning "Alg'ul" dramasi nomlanishida ham qandaydir bir ramziylik mavjudday bizning nazarimizda. Negaki o'zining shohligi bilan bir qatorda ilm-ma'rifat homiysi va astronomiya ilmining bevosita otasi yulduzlar harakatining kuzatuvchisi, "Zijji ko'ragoniy" asarining muallifi sifatida nom qoldirgan Mirzo Ulug'bekning bunday fojeali o'lim topishi haqida, yulduzlaridan biri ya'ni **ALG'UL** shunday bashorat qilgan. Bu asarning "Alg'ul" deb nomlanishining o'zi biroz g'alatiday tuyilishi mumkin lekin biz dramani o'qish (tomosha qilish) natijasida bunday nomlanishi zamiridagi ma'noni anglab yetamiz. Bevosita qahramon karakteri va qiziqishlarini

⁸ M.K.Nurmuhammedov tahriri ostida "Adabiyot nazariyasi" 2-jil Toshkent 1979yil 276-bet

ochib berishga va u haqda muayyan tasavvur hosil qilish uchun yordam beradigan bunday nomlanish drama muallifining mahoratidan dalolat beradi albatta.

Alg'ul" dramasi ham xalq ijodiyotiga urg'ularni ko'rishimiz mumkin, aslida bu kabi kiritmalar dramadagi qahramon kayfiyatini aks ettirishga xizmat qiladi, obrazlarning ruhiy holati haqida ma'lum bir tasavvur berishga yordamlashuvchi omil bo'lib hisoblanadi. Masalan dramada Mirzo Ulug'bek va uning shogirdi Ulug'bek tabiri bilan aytganda o'zi uchun "farzandi arjuman" hisoblangan Ali Qushchi suhbatiga diqqat qarataylik:

ALI QUSHCHI: O'lim haqida o'ylamang, ustoz.

ULUG'BEK : Ali, o'limni o'ylamoq, undan qo'rqmoq emas, hayotni sevmuqdir. Inson "Segoh"ni yaratgan ekan, o'limni anglagandur...

Ali, janazam o'qilgan payt, mobodo boshimda bo'lsang, ayt, "Segoh" ni aytsinlar...

ALI QUSHCHI: Qazoyi qadar haqida bugun ko'p gapirdingiz ... "Segoh" ni esa hozir ham tinglash mumkin. To'yjon amringizga muntazir.

*ULUG'BEK: To'yjon shu yerdami? Tezroq huzurimga da'vat et!*⁹

"Segoh" asar avvalidanoq bosh qahramon Ulug'bek obrazi orqali tilga olinadi va asar davomida takror va takror to'xtalib o'tiladi yakunida esa "Segoh" sadolari ostida parda yopiladi. "O'zbek tragediyasi tarixi Abdurauf Fitrat bilan bog'liq. Uning 1926-yilda yaratilgan "Abulfayzxon" asari – birinchi o'zbek realistik tragediyasidir. Mazkur janr namunalari sifatida Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi", "Mirzo Ulug'bek", Hamid Olimjonning , "Muqanna", S.Azimovning "Qonli sarob" asarlarini ko'rsatish mumkin".¹⁰ Xurshid Davronning "Alg'ul" diya nom olgan realistik dramasi ham yuqorida takidlangan durdona dramalar kabi o'zbek dramaturgiyasi xazinasini boyitishga o'zining munosib hissasini qo'shdi. "...har qanday tragediyada(bu yerda drama nazarda tutilayapdi: G'.Atajonov) olti unsir mavjud bo'lishi kerak. Shunga muvofiq

⁹ Xurshid Davron "Alg'ul" "Shar yulduzi" jurnali 2013-yil, 1-son, 86-bet

¹⁰ F.Salayev G.Qurboniyozov "Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so'zligi" Yangi asr avlodi Toshkent 2010-yil 266-bet

tragediya unday yoki bunday bo'ladi. Bular – fabula, xarakterlar, til, fikr – g'oya, tomosha va muzika qismlari. Bu qismlardan ikkitasi (til va muzika) tasvirlash vositalariga, bittasi (tomosha) – tasvirlash usuliga, uchtasi (rivoyat, xarakterlar, g'oya) tasvirlash mazmuniga kiradi."¹¹ Qayt etilganidek rivoyat, xarakter, g'oya tasvirlash mazmunini tashkil etadi. Xurshid Davronning "Alg'ul" dramasi aynan shu tasviriy mazmun to'laqonli ravishda tarixiy voqelikning zamonaviy ko'rinishdagi tabdili desak aslo xato qilmagan bo'lamiz.

XULOSA

XX asr o'zbek adabiyotining rang-barangligi, janrlarga boyligi, har xil yo'nalishlarda ijod qilgan shoir va yozuvchilarning ko'pligi bilan ajralib turadi. Bu davr adabiyotining asosiy qismi sho'rolar davriga to'g'ri keladi. Qatog'onga uchragan A.Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Elbek, Botu va yana bir qator shoir va yozuvchilarning istisno qilganda, XX asrda qalam tebratgan Oybek, A.Abdulla, A.Qahhor. G'.G'ulom, K.Yashin, Uyg'un, H.Olimjon va M.Shayxzoda yana bir necha shoir va yozuvchilar sobiq sho'ralar tuzumining ta'ziqi ostida ijod qilishga majbur bo'ldilar.

Lekin, biz tilga olgan shoir va yozuvchilar sho'rolar tizimining siyosatini maktab asarlar yaratmaganlar, ular ma'lum darajada o'z davrining siyosatidan chekinib bo'lsada qalam tebratishga harakat qilganlar. Shuning uchun ham ularning ijodi boshdan oyoq sho'roviy mafkura bilan mafkuralashgan deb bo'lmaydi. Ularning ichida talent bilan yozilgan she'r va poemalar, hikoyalar va qissalar, romanlar, dramalar ham oz emasdi. Shuning uchun ham bu davr adabiyotini o'rganganda, o'sha muhitda ijod qilgan shoir va yozuvchilar asarlarini tahlil qilganda mana shuni nazarda tutish kerak

¹¹ Arastu "Poetika" Yangi asr avlodi Toshkent 2012-yil 28-bet.

bo'ladi.

Dissertatsiyaning mavzu ob'ekti bo'lgan Uyg'un, Maxsud Shayxzoda, Komil Yashin, Hamid Olimjonlar ham mana shu avlod orasida bor. Ular ham o'z tengqurlari qatorida o'z davri siyosatiga, mafkurasiga ma'lum darajada xizmat qildi. Shunday ruhda badiiy asarlar, dramalar yaratdi. Lekin, bu yozuvchilar ijodi, ularning asarlarining hammasi shu g'oyalarga yo'g'rilgan deb bo'lmaydi. Ular ham o'z tengdoshlari qatorida turib badiiy jihatdan barkamol asarlar, sahna asarlari yaratishdi. Ular mana shu fazilati bilan ham bugungi mustaqillik davrining dramaturgi bo'la oladi. Chindan ham ularning "Alisher Navoiy", "Zebunniso", "Nurxon", "Jaloliddin Manguberdi", "Muqanna" "Mirzo Ulug'bek" dramalari o'zbek dramaturgiyasining nodir namunalari bo'la oladi.

Dissertatsiyamizda uch bobidagi tahlillardan shunday xulosalarga kelish mumkinki, Komil Yashin, Uyg'un, Hamid Olimjon va Maxsud Shayxzodalar drama janrining qonun qoidalarini yaxshi o'zlashtirib olgan so'z ustalaridir. Ular nafaqat drama sirlarini, balki sahna san'atining o'ziga xos xususiyatlarini ham yaxshi o'rgangan. Biz buni ularning "Alisher Navoiy", "Nurxon", "Zebunniso" hamda "Jaloliddin Manguberdi" "Mirzo Ulug'bek" dramalarining tahlilida ko'rdik.

Ma'lumki, yaqin o'tmish tarixi haqida umuman tarixiy mavzuda asar yaratish ancha murakkab va qiyin. Murakkabligi va qiyinligi shundaki, muallif birinchi navbatda asarga tasvir ob'ekti bo'lgan tarixiy muhitni, sharoitni yaxshi o'rgangan bo'lishi kerak. Agar asar markazida tarixiy shaxs turgan bo'lsa uni ham har tomonlama o'rganish zarur, uning xarakter xususiyatlarini o'zlashtirib olgan bo'lishlari kerak.

"Nurxon" dramasiidagi Nurxon obrazi juda tabiiy va ishonarli chiqqan. Har bir asarning shu jumladan, dramaning ishonarli bo'lishi, unda talqin qilingan

tarixiy shaxslarning hayotiy chiqishi ko'p jihatdan asar muallifining o'sha konkret hayotiy qahramonlarini qay darajada yaxshi o'rganganligi yoki o'rganmaganligiga ham bog'liq. Shu ma'noda to'la ayta olamizki, Komil Yashinning pe'salaridagi tarixiy shaxslarning obrazlari to'la ishonarli chiqqan va yaxshi badiiy talqin qilingan. Mana shu faktning o'zi Komil Yashin dramalarining nafaqat g'oyaviy jihatdan balki, badiiylik jihatidan ham anchagina baquvvat ekanligini ko'rsatadi.

Komil Yashin XX asr o'zbek adabiyotining, jumladan, dramaturgiyasining yirik arboblardan biri. O'zbek dramaturgiyasi taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shgan so'z san'atkorlaridan sanaladi. Shunday ekan, uning ijodini o'rganish, asarlariga baho berish jarayonlari hamma davrlarda ham davom etishi kerak deb hisoblaymiz. Komil Yashin, yo'qorida bir necha marta ta'kidlab aytganimizdek, garchi sho'ro zamonida ijod qilgan bo'lsada, bu fakt uning ijodini mustaqillik yillarida ham o'rganishni inkor qilmaydi. Dramaturgning sho'roviy ruhda yozilgan asarlari bir chekkaga surib qo'yilsada, uning chinakam talant ruhida yozilgan asarlari yangicha qarashlar, yangicha yondashuvlar, yangicha mafkura nuqtai nazaridan o'rganilmog'i zarur.

Komil Yashinning ayrim dramalarini, mafkuradan, soxta siyosatdan ma'lum darajada chetlashib yozgan asarlari ularning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari to'g'risida imkonimiz qadar so'z yuritishga bag'ishlandi. Komil Yashinning ijodi, uning mustaqilligimiz ruhiga mos keladigan asarlari hali ancha-muncha bor. Ular haqida kelajak adabiyotshunosligimizga salmoqliroq ilmiy ishlar yaratilishiga ishonamiz. Chunki, Komil Yashindek ko'p qirrali ijodkor mana shunday e'zozga va hurmatga munosibdir.

Uyg'un ham huddi Komil Yashin singari dramaturgiya janrida muvaffaqiyatli qalam tebratdi. Adibning dramaturg va olim Izzat Sulton bilan

hamkorlikda yozgan “Alisher Navoiy” dramasi nafaqat mualliflar ijodida, balki umuman o‘zbek adabiyotida, qolaversa, dramaturgiya janrida katta voqea bo‘lganligini adabiy jamoatchilik, mutaxassislar tan olishdi. Mana, yaratilganiga salkam yetmish yildan oshdiki, “Alisher Navoiy” dramasi hali ham sahnemizning bezagi, xalqimizning sevimli tomoshasi, adabiyotimizning nodir asarlaridan biri sifatida xalqimizning qalbida, ardog‘ida bo‘lib kelmoqda. Bu tarixiy drama o‘zbek adabiyotida an‘ana yaratgan asar bo‘ldi. Bu asar yaratilgandan keyin uning an‘analari davom ettiradi, qator tarixiy mavzuda sahna asarlari yaratildi.

Jalolioddin Manguberdi tarixiy shaxs sifatida turli tarixiy asarlarda rang-barang ravishda tahlil qilingan

Uyg‘unni o‘zbek kitobxonlariga tanitgan yana bir tarixiy asari bu “Zenunniso” tarixiy dramasidir. Bu asar ham o‘zbek dramaturgiyasining mashhur dramalaridan biri sifatida o‘zbek adabiyotini boyitib kelmoqda. Muallif bu asarni Zebunnisoning badiiy obrazini muvaffaqiyatli yaratdi. U yashab ijod etgan davr murakkabliklarini bir turkum obrazlar vositasida sahnada jonlantirib ko‘rsatadi. Davr qarama-qarshiliklari, boshqada ziddiyatlar dramada haqqoniy davrni xarakterlaydigan konfliktlar asosida yaxshi ochib berilgan.

Dissertatsiyamizning umumiy xulosasi shundan iboratki, Komil Yashin, Uyg‘un, Maqsud Shayxzoda hamda Hamid Olimjonning o‘zbek adabiyotida dramaturg sifatida faol qalam tebratgan, dramaturgiya janrini boyitgan adiblar deb xulosa chiqarishga to‘la asos beradi. Bu asarning yana bir ahamiyati shundaki, ularda yaratilgan tarixiy shaxslar obrazlari orqali adiblar ularga o‘ziga xos badiiy haykal qo‘ydilar. Bunday asarning yana bir tarixiy ahamiyati bor. Bu xildagi asarlarning mustaqillik yillarida yaratilgani asarlarga uyg‘unligi, ularning an‘analarining davom etayotgani ifodasidir va

bu qadriyatlarimizga bo'lgan hurmat va e'tiborning bir ko'rinishi hamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q”.:Toshkent, 2008-yil
2. Karimov I.A. “Turkiston umumiy uyimiz” Toshkent, 1995-yil
3. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi” Toshkent, 1999-yil
4. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” Toshkent, 2008-yil
5. Karimov I.A. “Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor” Toshkent, 2009-yil
6. Karimov I.A. “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir” Toshkent, 1995-yil
7. Yashin. K “Asarlar” 6 jildlik, 1-jild, Toshkent, 1979-yil
8. Yashin. K “Asarlar” 6 jildlik, 5-jild, Toshkent, 1979-yil
9. Yashin. K “Asarlar” 6 jildlik, 6-jild, Toshkent, 1980-yil
10. Karimov.N, Mamajanov.S va boshqalar.XX asr o’zbek adabiyoti. Toshkent, 1999-yil
11. Boltaboev H “Mumtoz so’z qadri” Toshkent, 2004-yil
12. Karimov. G’ “Xalq. Tarix. Adabiyot” Toshkent, 1977-yil
13. O.Sharafiddinov “Dovonlardagi o’ylar” Toshkent, 2006-yil
14. H.Abdusamatov “Hamza haqida roman” “O’zbekiston adabiyoti va san’ati” 1983-yil 11-fevral
15. H.Abdusamatov “Zamon, zamin va ijodkor” “O’qituvchilar gazetasi” 1990-yil 22-dekabr
16. Abdusamatov.H //Xalq adabi.//O’zbekiston ovozi.1989-yil 24-dekabr
17. I.Sulton “Adabiyot nazariyasi” Toshkent, 2004-yil
18. U.Normatov “Yetuklik” Toshkent, 1991-yil
19. U.Normatov “Umidbaxsh tamoyillar” Toshkent, 2003-yil
20. Yu.Sultonov “Hamza” Toshkent, 1979-yil
21. “Hamza zamondoshlari xotirasida” Toshkent, 1979-yil

22. Karimov B “Yangilanish sog’inchi” Toshkent, 2004-yil
23. A.Ibroximov, X.Sultonov, N.Jo’raev “Vatan tuyg’usi” Toshkent, 1996-yil
24. A.Ibrohimov “Bizkim o’zbeklar” Toshkent, 1999-yil
25. B.G’ulomov “Safdoslar va izdoslar” Toshkent, 1980-yil
26. O’Shakirov “Zamon nafasi va obraz” Toshkent, 1980-yil
27. Imomov B. Jo’rayev Q. Hakimova H. “O’zbek dramaturgiyasi tarixi” Toshkent, 1995-yil
28. B.Imomov “Hayot va dramatik qonuniyat” Toshkent, 1968-yil
29. Zokirov M. “Maqsud Shayxzoda” Toshkent 1969-yil
30. Samandarov E. “Jaloliddin Manguberdi” Toshkent 1999-yil
31. Xurshid Davron “Sharq yulduzi” jurnali.2013-yil 1-son.
32. N.Karimov,S.Mamajonov va boshqalar “XX asr o’zbek adabiyoti tarixi” Toshkent “ O’qituvchi” 1999-yil.
33. Sharq yulduzi jurnali 2013-yil 6-son
34. Usmon Azim ”Adibning umri” Toshkent 2011-yil
35. Naim. Karimov ”Hamid Olimjonning poetik mahorati” Toshkent

Internet materiallari:

36. www.ziyouz.com
37. www.ijod.uz
38. www.adabiyot.uz
39. www.kh-davron.uz
40. www.megaline.uz